

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**O'zbekiston Respublikasi
Davlat soliq qo'mitasi
Soliq akademiyasi**

**ShARBAT ABDULLAEVA
AKROM OMONOV**

**TIJORAT BANKLARI KAPITALI VA
UNI BOSHQARISH**

TOSHKENT– 2006

O'quv qo'llanmada bank kapitalining iqtisodiy mohiyati o'rganilgan; bank kapitalini shakllantirish bilan bog'liq jarayon nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan hamda mavjud asosiy tendentsiyalar aniqlangan; bank kapitalini boshqarishning xalqaro Bazel andozalari mohiyat jihatdan ochib berilgan; bank kapitalini samarali boshqarishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan; bank kapitalini samarali boshqarishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Qo'llanmadan banklarning moliyaviy resurslari va bank kapitali masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar, aspirantlar, moliya-kredit yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, bank muassasalari xodimlari hamda bank ishiga qiziquvchilar foydalanishi mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Toshkent moliya instituti qoshidagi Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

**Iqtisod fanlari doktori,
professor T.S.Malikov tahriri ostida.**

Taqrizchilar: **Haydarov N.H.** - iqtisod fanlari doktori
 Qoraliev T.M. - iqtisod fanlari nomzodi, professor

© «IQTISOD-MOLIYA», 2006

Sh.Z.Abdullaeva, A.A.Omonov. Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2006. 120 b.

SO'Z BOSHI

Mustaqillik yillarida moliya-kredit tizimining rivojlanishiga asos solgan muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ushbu masalaga doimiy ravishda katta e'tibor qaratib kelmokda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida banklarni kapitallashtirish, ularning nizom va aylanma fondlarini ko'paytirish va moliyaviy resurslarni real iqtisodiyotga yo'naltirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko'rish haqida qator dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

O'quv qo'llanmada Prezidentimiz tomonidan banklar kapitali miqdorini oshirish va ularning moliyaviy holatini yanada mustahkamlash bo'yicha qo'ygan vazifa va topshiriqlaridan kelib chiqqan holda bank kapitalini shakllantirish va uni samarli boshqarishda erishilgan yutuqlar va ularni yanada takomillashtirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

Muxtasar qilib aytganda, Sh.Abdullaeva va A.Omonovning bank kapitalini shakllantirish va ularni samarali boshqarish masalalariga bag'ishlangan qo'llanmasi mamlakatimiz iqtisodiyotini erkinlashtirishni yanada chuqurlashtirish jarayonida milliy bank tizimining o'rnini va ahamiyatini oshirishga salmoqli hissa qo'shadi, degan umiddaman.

Akademik M.Sh.Sharifxo'jaev

KIRISH

Tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uni oqilona boshqarishga erishish iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlardagi singari, O'zbekistonda ham iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi tijorat banklari kapitalini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tijorat banklari tashkil topishi va rivojlanishi uchun metodologik va qonuniy asos yaratildi hamda amaliyotga joriy etildi. Biroq, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlardagi singari respublikamizda ham tijorat banklari kapitalini shakllantirish va uni samarali boshqarish bilan bog'liq ayrim muammolar mavjudligi sezilib qolmoqda. Jumladan, banklarning ustav kapitalini barqaror darajasini ta'minlash, bank aktivlarini riskka tortish, kapital tarkibini moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror manbalar hisobiga shakllantirish, banklarning regulyativ kapitalini xalqaro Bazel andozalari talablariga moslashtirish kabi muammolar mavjud bo'lib ularning echimini aniqlash ushbu o'quv qo'llanmani vujudga kelishiga turtki bo'ldi.

Shuningdek, milliy iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan bank kapitali va uni boshqarish masalalari alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmaganligi, shu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar, aspirantlar, moliya-kredit yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, bank muassasalari xodimlari hamda bank ishiga qiziquvchilar uchun bank kapitali haqida yagona bir tizimga keltirilgan darslik va o'quv qo'llanmalar mavjud emasligi mualliflarga ushbu o'quv qo'llanmani tayyorlash va chop ettirishga asos bo'ldi.

Ushbu o'quv qo'llanma tijorat banklari kapitali va uni boshqarish haqida nashrdan chiqarilayotgan ilk iqtisodiy adabiyot bo'lgani tufayli iqtisodchi olimlar, mutaxassislar va o'quvchilarning fikr va mulohazalariga ehtiyoj seziladi.

O'quv qo'llanmani tayyorlash va uni shu darajaga etib kelishida o'zining qimmatli vaqtlarini ayamasdan maslahat hamda yordam bergan akademik M.Sh.Sharifxo'jaev, i.f.d. prof. Qodirov, i.f.d. prof. Abdurahmonov. Q.X., i.f.d. prof. G'ozibekov D.G'., i.f.d. prof. Olimjonov O.O., i.f.d.Hamroev O.H. i.f.d. Iminov O.K.

i.f.n. Aliev M.G', i.f.n.prof. Nazarov A.Sh., i.f.n. dotsent Xolmahmadov Z.A., i.f.n. dots. Norqobilov S.X., i.f.n. Boboqulov T.I. va taqrizchilarga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

I-BOB. BANK KAPITALINING IQTISODIY MOHIYATI VA UNI BOSHQARISH ASOSLARI

1.1. Bank kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi

Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmunini to'laqonli talqin qilishga erishish va uning amaliyotdagi ahamiyatini yanada to'liq anglab etish uni samarali boshqarishda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklari kapitalini samarali boshqarishni yo'lga qo'ymasdan turib banklarning to'lov qobiliyatini mustahkamlash va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini qozonish mushkul vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklari vujudga kelishining dastlabki davridayoq bank kapitaliga asosiy moliyaviy manba sifatida katta e'tibor qaratildi. Ushbu xatti-harakat hozirgi kunda ham o'zining iqtisodiy jihatdan dolzarbligini saqlab turibdi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov bu xususda to'xtalib, jumladan shunday degan edilar: «Bugungi kunda bank tizimini isloh qilish, ularga yanada ko'proq mustaqillik berish, banklarning o'z aktivlarini va ustav fondini ko'paytirish, sarmoyalash imkoniyatlarini oshirish muammolariga katta e'tibor berayotganimiz bejiz emas, albatta. Nega deganda, bank kapitali orqasida o'z aktivlarining ko'payishidan, banklarning samarali ishlashidan, foyda ko'rishidan manfaatdor bo'lgan haqiqiy mulkdorlar turishi, ayniqsa, ulkan ahamiyatga ega»¹.

Tijorat banklari kapitali va uni boshqarish haqida so'z yuritishdan oldin bank kapitali iqtisodiy mohiyatining aniq to'xtamiga kelish maqsadga muvofiq. Chunki, bank kapitali iqtisodiy mohiyatiga shu soha olimlari va mutaxassislarining yagona yondoshuvi mavjud emas.

Bank kapitaliga berilgan iqtisodiy ta'riflarning barchasida uning iqtisodiy mohiyatini ochib beruvchi u yoki bu jihatlari ifodalangan, xolos. Buning asosiy sababi mualliflarning bank kapitali xususidagi ta'riflari ma'lum davrda va jarayonda shakllangan bo'lib, o'sha davrning talablariga mos kelgan va uning ayrim yo'nalishdagi mohiyatini yoritishga xizmat qilgan.

¹ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-tom. -T.: «O'zbekiston», 2001, 32-bet.

Masalan, professor V.M.Usoskin bank kapitaliga bank moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraydi². Ko'rinib turibdiki, bu erda kapital bank resurslarining muhim va tarkibiy qismi sifatida qaralishi natijasida uning asosiy vazifalari (himoya, tezkor va tartibga solish) e'tibordan chetda qolgan.

Shu bilan birga, tijorat banki kapitali Markaziy bank tomonidan, uning faoliyatini iqtisodiy jihatdan baholash va tegishli operatsiyalarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq ekanligi haqida xulosalar chiqarish uchun, asosiy iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi.

Keyingi yillarda jahondagi ko'pchilik banklar, shu jumladan, Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarning banklari omonatchilarni ko'paytirish hamda bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan risk darajasini kamaytirish maqsadida bankka qo'shimcha kapital jalb qilishga katta e'tibor berishmoqda. Tijorat banklarining kapitalini ko'paytirishdan kutilayotgan asosiy maqsad sifatida, Markaziy bank tomonidan belgilangan kapitalning etarlilik darajasini ta'minlash va moliyaviy bozorga kirish imkoniyatini oshirish hamda milliy iqtisodiyotda mavjud bo'lgan inflyatsiya darajasining ta'siridan himoyalaniшни e'tirof etishimiz mumkin. Chunki inflyatsiya mavjud bo'lgan sharoitda banklarning aktivlari va majburiyatlari qiymatining doimiy ravishda o'sib borishi bank kapitalining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sishning bir maromda bormasligi bank daromadi barqarorligini ta'minlash riskini oshiradi.

Iqtisodiyotning uzluksiz barqarorligini ta'minlash maqsadida zaif kapitalga ega, ya'ni bank kapitali etarliligini ta'minlash yuzasidan muammolari mavjud bo'lgan tijorat banklar, davlatning tegishli moliyaviy organlari tomonidan nazorat ostiga olinadi va bu jarayon bank kapitalining zarur me'yorga etkazilgunga qadar davom etadi. Ushbu nazoratdan ko'zlangan asosiy maqsad bankning bankrotlik holatiga tushib qolishini oldini olish va mavjud risk darajasini kamaytirishdan iboratdir. Tijorat banklarining moliyaviy jihatdan mustahkamligiga erishish ularning aktsiyadorlari manfaatlarini himoya qilish va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

² Усоскин В.М.Современный коммерческий банк: Управление и операции.– М.: «Вазар- Ферро», 1994. С. 92.

Iqtisodchi olim R.G.Olxova bank kapitalining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda «himoya yostig'i» degan iqtisodiy tushunchani oldinga suradi. Agar tijorat banklari kutilmaganda iqtisodiy jihatdan zarar ko'rsa, kapital «himoya yostig'i» sifatida ko'rilayotgan zararining oqibatlarini engillashtiradi va bankning iqtisodiy jihatdan to'lov qobiliyatini tiklab olish imkoniyatini yaratadi³. Ushbu ta'rifda bank kapitalining bir jihati, ya'ni himoya vazifasiga urg'u berilgan. Vaholanki, bank uchun kapital moliyalashtirishning manbasi vazifasini ham bajarishi mumkin.

Xuddi shuningdek, xorijlik iqtisodchi Kris Barltropning bank kapitaliga «qimmatli» manba⁴ sifatida bergan ta'rifini e'tirof etgan holda, bu erda ham kapitalning mohiyatiga bir tomonlama ahamiyat berilganligini ta'kidlamoqchimiz. Holbuki, bank kapitali nafaqat qimmatli manba, balki qo'shimcha manba va himoya vositasi sifatida ham maydonga chiqishi mumkin.

Kapitalning «qimmatliligi» shundan iboratki, bank o'z kapitalini shakllantirish va uning miqdorini oshirib borish maqsadida oddiy aksiyalarni chiqarish, ularni moliyaviy bozorlarda joylashtirish va ushbu jarayon bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni amalga oshiradi. Ushbu jarayon tijorat banki xarajatlarining oshishiga va foydasining kamayishiga olib keladi. Agar, xarajatlar evaziga moliya bozoriga sotish uchun taklif etilgan qimmatli qog'ozlar xaridorini topmasa, ularning bahosi nominal qiymati miqdoridan ham tushib ketishi, bu esa o'z o'zidan bank kapitali miqdorining oshishiga emas, balki iqtisodiy qiyinchiliklarga duchor bo'lishiga xizmat qiladi.

Tijorat banki ishiga oid ilmiy izlanishlari bilan obro' qozongan taniqli iqtisodchi olim Jan Matuk bank kapitaliga uning to'lovga qobilligini ta'minlovchi birlamchi vosita sifatida qaraydi⁵. Albatta, bankda uning faoliyati davomida to'lovga layoqatlilik (likvidlik) riski doimo saqlanib qoladi, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari uchun kutilmagan har qanday holatda etarli darajada likvid mablag'isiz qolish xavfi mavjud. Ushbu xavf bank omonatchilari mablag'ini o'z vaqtida berolmaganda, ishonchli mijozlarning vaqtinchalik kredit resurslariga bo'lgan

³ Банковское дело. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. – М.: «ФиС», 2001. С. 74.

⁴ Крис Дж. Барлтроп и Диана МакНотон. Банковские учреждения в развивающихся рынках. Материалы ИЭР. Том II. Всемирный банк. Вашингтон, Д.С., С. 102.

⁵ Жан Матук. Финансовые системы Франции и других стран. Том I. Пер. с англ. – М.: «Финстатинформ», 1994. С. 25.

ehtiyojini qondira olmaganda vujudga keladi. Agar bank, omonatchilarning naqd pulga va vaqtinchalik kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini o'z vaqtida qondira olmasa, mijozlarda boshqa banklarga ketib qolish moyilligi tug'iladi, bu esa, o'z navbatida, bank kapitalini ko'paytirishning asosiy manbalaridan biri bo'lgan foydaning oshishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida qayd etilgan holatning surunkali ravishda davom etishi bankning to'lovga layoqatsizligini, oxir oqibat mijozlar va omonatchilarning o'z hisob raqamlaridan mablag'larni yoppasiga olishiga va bankning bankrotlikka uchrash holatiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodchi olim Jan Matukning bank kapitalini bankning to'lovga qobilligini ta'minlovchi birlamchi omil, degan fikriga qisman qo'shilgan holda, bank kapitalining to'lovga qobilligini ta'minlab turish uchun Markaziy bank tomonidan belgilangan kapitalning etarliligiga qo'yilgan talablarni doimo bajarib borishi zarur, deb hisoblaymiz.

Iqtisodchi olimlarning bank kapitali iqtisodiy mohiyatiga bergan ta'riflariga qisman qo'shilgan holda, unga yangicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Shu bois, iqtisodchi olimlarning bank kapitali xususida bergan ta'riflarining qiyosiy tahliliga tayangan holda mualliflar tomonidan bank kapitalining iqtisodiy mazmuniga quyidagicha ta'rif berildi: **«Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo'lib, bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir».**

Demak, tijorat banklari kapitaliga barqaror moliyalashtirish manbai va o'ziga xos himoya vositasi sifatida qarash lozim. Bu o'z navbatida, bank kapitali tarkibini barqaror resurslardan tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Tijorat banklari o'z faoliyatini endi boshlayotgan davrda ularning ustav kapitali birlamchi va muhim moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Keyinchalik bank faoliyatining ko'lemi kengayishi bilan ustav kapitali bank faoliyatida yuzaga keladigan risklardan himoyalaniish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Shuning uchun ham dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida, shu jumladan, O'zbekiston tijorat banklari ustav kapitalining minimal miqdoriga nisbatan majburiy talab o'rnatilgan.

Yan Ville Van der Fossenning ma'lumotlariga ko'ra, Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarda tijorat banklari uchun ustav kapitalining minimal miqdori 5 mln. evro miqdorida belgilangan. Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan ko'pchilik mamlakatlar uchun ustav kapitalining minimal miqdorini 1 mln. AQSh dollari miqdorida belgilash lozimligini qayd etgan⁶.

Shunisi xarakterliki, xalqaro bank amaliyotida tijorat banki kapitalining minimal miqdori deganda ikki xil tushuncha nazarda tutiladi⁷:

1) Markaziy bankning, bank operatsiyalarini bajarishga huquq beruvchi litsenziyasini olish va bank o'z faoliyatini boshlash uchun me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan bank kapitalining minimal miqdori.

2) Iqtisodiy normativlarni bajarilishi ustidan nazorat qilish uchun asos sifatida qo'llaniladigan kapitalning etarlilik miqdori.

Shu bilan birga, tijorat banki asosiy kapitalining etarlilik miqdori ularning faoliyatiga nisbatan qo'llanilayotgan iqtisodiy normativlarni aniqlashda ham asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Masalan, tijorat banklarining bitta mijozga yoki o'zaro bog'liq mijozlar guruhiga beradigan ishonchli kreditlarining maksimal miqdori birinchi darajali bank kapitalining 5 foizidan oshib ketmasligi lozim. Agar bunday mijozlarga ta'minlangan kreditlar berilayotgan bo'lsa, ushbu kreditlarning maksimal miqdori birinchi darajali bank kapitalining 15 foizidan oshib ketmasligi kerak. Tijorat banklari mijozlarga beradigan yirik kreditlarining umumiy miqdori bank birinchi darajali kapitalining 8 barobaridan oshib ketmasligi kerak⁸.

Yoki ochiq valyuta pozitsiyalariga nisbatan o'rnatilgan iqtisodiy normativni olaylik. Ushbu normativga ko'ra, tijorat bankining bitta valyutadagi ochiq pozitsiyasining miqdori bank kapitalining 5 foizidan, barcha valyutalardagi ochiq pozitsiyasining miqdori esa bank kapitalining 20 foizidan oshib ketmasligi lozim⁹.

⁶ Ян Вилле Ван дер Фоссен. Начальный капитал банков. Семинар по банковскому надзору. Вена, 26 февраля – 8 марта 1996. С. 1.

⁷ O'sha manba.

⁸ O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: «O'zbekiston», 2003, 189- bet.

⁹ Markaziy bank Boshqaruvi tomonidan 1998 yil 28 martda tasdiqlangan «Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish» qoidalarining 2-bandi.

Xuddi shuningdek, bank bir korxonaning ustav kapitaliga investitsiya qilish uchun sotib olgan qimmatli qog'ozlar miqdori bank birinchi darajali kapitalining 15 foizidan, barcha emitentlar ustav kapitaliga va boshqa qimmatli qog'ozlariga qilgan investitsiyalari miqdori bankning birinchi darajali kapitalining 50 foizidan, oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlariga qilingan bank quyilmalari bankning birinchi darajali kapitalining 25 foizidan oshmasligi kerak¹⁰.

Demak, bank kapitalining etarlilik miqdori tushunchasidan tijorat banklari faoliyatiga nisbatan Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan iqtisodiy normativlarni belgilashda va ularning bajarilishini nazorat qilishda foydalaniladi.

Bozor munosabatlariga o'tayotgan ko'pchilik mamlakatlarda, ayniqsa, yuqori inflyatsiya va zaif bank tizimiga ega bo'lgan mamlakatlarda bank kapitalining milliy valyutada aks etadigan minimal miqdorini oshirish zarurligi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Inflyatsiyani qoplash maqsadida.

Chunki bu mamlakatlarda Markaziy bankning bosh litsenziyasini olish uchun zarur bo'lgan minimal kapital miqdorining real qiymati vaqt o'tishi davomida inflyatsiyaning yuqori darajasi tufayli pasayib ketish ehtimoliga ega.

2. Banklararo bozorga kirish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida.

3. Moliya-kredit bozoridan nisbatan kam miqdordagi resursga ega bo'lgan banklarni siqib chiqarish maqsadida. Chunki rivojlanayotgan davlatlarda kichik banklarning bankrot bo'lish ehtimoli yuqori bo'ladi. Ularning bankrot bo'lishi esa, o'z navbatida, milliy bank tizimiga bo'lgan ishonchni pasayishiga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning etarlilik darajasini belgilashda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan andozalardan asos sifatida foydalanilmoqda.

¹⁰ O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami.–T.: «O'zbekiston», 2003, 226- bet.

Xalqaro Bazel qo'mitasining andozalariga e'tiboran bankning jami kapitali **asosiy va qo'shimcha kapitalga** ajratiladi. Ushbu andozalar birinchi marta 1988 yilda ishlab chiqildi. Ammo, amaliyotga 1993 yildan boshlab joriy etilgan¹¹.

Bazel andozalariga ko'ra asosiy kapital quyidagi elementlardan tashkil topadi:

1. Ustav kapitalining to'langan qismi (oddiy aksiyalar qiymati);
2. Muddatsiz nekumulyativ imtiyozli aksiyalar;
3. Emission daromad;
4. Sof foyda hisobidan shakllantirilgan zaxira summolari;
5. O'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi.

Shunisi e'tiborga molikki, xorijiy bank amaliyotida banklarda audit tekshiruvini o'tkazilib, audit xulosasi tasdiqlangunga qadar joriy yilning foydasi asosiy kapital tarkibiga kiritiladi. Audit xulosasidan keyin esa faqat taqsimlanmagan foyda kiritiladi.

Xalqaro Bazel andozalari bo'yicha banklarning qo'shimcha kapitali tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiritiladi:

1. Kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxiraning riskka tortilgan aktivlar miqdorining 1,25 foizidan oshib ketmaydigan qismi;
2. Qayta baholash zaxirasi. Bunda bankka tegishli bino va inshootlar hamda ularning qiymatini qayta baholash natijasida yuzaga keladigan zaxira miqdori tushuniladi;
3. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari;

Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari G'arbiy evropa davlatlarining bank amaliyotida uzoq muddatli (8-10 yil) obligatsiyalar yoki imtiyozli aksiyalar shaklida mavjuddir. Ularni subordinatsiyalashgan majburiyatlar deyilishining sababi esa, bank bankrot bo'lganda mazkur qimmatli qog'ozlarning egalari o'z ulushlarini bankning boshqa qimmatli qog'ozlariga ega bo'lgan sub'ektlardan keyin oladi.

O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida banklarning subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari hozircha mavjud emas.

4. Konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalarini tashkil etish maqsadiga yo'naltirilgan quyilmalar.

¹¹ Банковские дело. Под редакцией О.И.Лаврушина. –М.: «ФИС», 2001.С. 77.

Bazel andozalari bo'yicha konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalari deganda bank qoshida tashkil etilgan, mustaqil balansga ega bo'lmagan kredit muassasalari (lizing, faktoring, trast, forfeyting kompaniyalari) ko'zda tutiladi.

Bazel qo'mitasi bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'zda tutilmagan risklarni qoplash maqsadida 1997 yildan III darajali kapitalni amaliyotga joriy qilish haqida qaror qabul qildi. Unga ko'ra, uchinchi darajali kapital qisqa muddatli (ikki yildan ortiq bo'lmasligi lozim) subordinar qarzlardan iborat bo'lib birinchi darajali kapitalning 250 foizdan oshib ketmasligi lozim¹².

Bank kapitali tarkibini shakllantirishga Bazel andozalari asos sifatida olingan bo'lsa-da, iqtisodchi olimlar unga turlicha yondashadilar. Jumladan, xorijlik olimlardan R.G.Olxova, Yu.P.Savinskiy hamda o'zbekistonlik olimlardan prof. O.O.Olimjonov va i.f.n. B.B.Babaevlarning nomlarini ta'kidlab o'tish lozim.

Masalan, dotsent R.G. Olxova maxsus zaxiralarni va devalvatsiya zaxirasini kapital tarkibiga kiritmagan¹³.

Maxsus zaxiralar bank balansining kontr-aktiv hisob varaqasida aks ettirilib bank xarajatlari hisobidan shakllantiriladi. Bazel qo'mitasining andozalariga ko'ra aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash zaxirasini riskka tortilgan jami aktivlar summasining 1,25 foizga teng miqdorini II-darajali bank kapitali tarkibiga kiritiladi. Demak, muallifning maxsus zaxiralarni 100 foiz bank kapitali tarkibiga kiritmasligi maqsadga muvofiq emas.

Devalvatsiya zaxirasiga kelsak, u shubhasiz bankning o'ziga tegishli bo'lgan xorijiy valyutadagi kapital zaxira qiymatining o'sishi natijasida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytsak, devalvatsiya zaxirasiga nobarqaror moliyaviy manba sifatida qarash mumkin. Demak, R.G.Olxovaning devalvatsiya zaxirasini bank birinchi darajali kapitali tarkibiga kiritmasligiga qo'shilmamiz.

Ayni vaqtda, milliy valyutasining kursi nobarqaror bo'lgan mamlakatlarda devalvatsiya zaxirasi miqdorida keskin tebranish yuz bermoqda. Bu esa devalvatsiya zaxirasini nobarqaror moliyalashtirish manbaiga aylantirmoqda. Shu munosabat bilan

¹² Грязнова А.Г. Финансово-кредитный энциклопедический словарь. –М.: «Ф и С». 2002. С.387.

¹³ Банковские дело. Под редакцией О.И.Лаврушина. –М.: «ФиС», 2001.С. 73. Шунингдек, Мамонова И.Д.Экономический анализ деятельности банка.– М.:«ИНФРА-М»,1996. С.4.

taklif qilardikki, xorijiy valyutalar bo'yicha devalvatsiya zaxirasini asosiy kapital tarkibidan chiqarib qo'shimcha kapital tarkibiga kiritish lozim.

Kapitalning tarkibi xususida o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar O.O.Olimjonov va B.B.Babaevlar kredit riskini qoplashga mo'ljallangan zaxira miqdorini to'lig'icha kapital tarkibiga kiritmasligini ilmiy jihatdan asoslab berishgan. Shuningdek, ular joriy yilning sof foydasini kapital tarkibiga kiritmaganlar¹⁴.

Mualliflarning fikricha, tijorat banklarida kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalari to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarga olib borilayotganligi sababli, ushbu zaxira ajratmalari to'lig'icha kapital tarkibiga kiritilmasligi mumkin, degan xulosani shakllantirishga asos bo'lgan.

Kredit risklariga qarshi qilingan zaxira ajratmalari to'g'ridan- to'g'ri xarajatga olib borilsada, ular doimo bankning operatsion faoliyatida moliyalashtirish manbai sifatida ishlatiladi. Chunki, muddati o'tgan kreditlar qaytganda, kreditning asosiy qarz miqdori resurs sifatida tiklanadi. Shunga ko'ra, Markaziy bankning 420 – sonli «Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomiga muvofiq, kredit risklariga qarshi qilingan zaxira ajratmalari bank aktivlarining riskka tortilgan miqdorining 1,25 foizidan oshib ketmaydigan miqdori bank kapitali tarkibiga kiritiladi.

Joriy yilning sof foydasiga to'xtaladigan bo'lsak, uni kapital tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Faqat joriy yilning sof foydasini kapital tarkibiga kiritish zarur. Chunki u mazmunan taqsimlanmagan foydaga yaqin. Buning uchun auditor xulosasiga qadar joriy yil foydasini asosiy kapital tarkibida aks ettirib borish zarur.

Fikrimizcha, birinchidan, tijorat banklarning kapitalini shakllantirish uchun xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan andozalar etarli darajada asos bo'la oladi; ikkinchidan, kapitalning barqarorligi nuqtai nazaridan olganda, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan bank aktivlarini riskka tortish metodikasida ayrim kamchiliklar mavjud. Ushbu holatga qo'llanmaning keyingi paragrafida e'tibor qaratiladi.

¹⁴ Б.Б.Бабаев. Вопросы формирования ресурсов коммерческих банков и их эффективное использования. Дисс. на соиск уч. ст. к.э.н. –Т.: БФА. 2002. С. 17.

Xususan, AQSh tijorat banklarida ssudalardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira miqdori va sho''ba korxonalariga qilingan quyilmalar asosiy kapital tarkibiga kiritilgan. Bu esa bank kapitalining barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Buning boisi shundaki, asosiy kapitalning barqarorlik darajasi qo'shimcha kapitalning barqarorlik darajasiga nisbatan yuqori bo'lishi lozim. Ushbu qonuniyat xalqaro Bazel qo'mitasining asosiy kapitalning etarliligi koeffitsientida o'zining yaqqol ifodasini topgan. Ushbu koeffitsientga ko'ra, bank jami kapitalining kamida 50 foizi asosiy kapitaldan iborat bo'lishi shart.

Bank kapitali tarkibi xususida so'z borar ekan sof kapital indeksi darajasini aniqlash usulini ko'rib chiqish zarur bo'ladi, ushbu usul chet el amaliyotida juda keng ko'lamda qo'llanilib «bank kapitali tarkibi ko'rsatkichi» nomini olgan.

Tijorat banklarining sof kapitali indeksi (SKI) quyidagi tartibda aniqlanadi.


$$\text{SKI} = \frac{\text{Kapital} + \text{Zaxira} - \text{Tasniflangan aktivlar}}{\text{Aktivlar o'rtachasi}} \times 100$$

Tasniflangan aktivlarga, tartibga solish organlari tomonidan belgilangan nostandart, shubhali yoki zararli aktivlar kiradi. Ushbu ko'rsatkich 1973-75 yillarda AQSh bank amaliyotda qo'llanila boshladi, o'sha davrda belgilangan me'yorga muvofiq:

«agar SKI < 2,74 foiz bo'lsa, ushbu bank «muammoli bank» hisoblanadi»

Ko'p yillar davomida yig'ilgan xalqaro bank tajribasidan ma'lum bo'lmoqdaki, tijorat banklarining kapitali barqaror manbalar hisobidan tashkil topishi kerak. Chunki tijorat banklarining kapitali bankning kutilmaganda vujudga keladigan zararlarini qoplash orqali bank tushib qolishi mumkin bo'lgan iqtisodiy inqirozdan chiqarib olish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, aholining mamlakatdagi bank tizimiga bo'lgan ishonchini saqlab turish va uni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, fikrimizcha, tijorat banklari asosiy kapitali quyidagi elementlardan tashkil topshi lozim.

Tijorat banklari asosiy kapitalining elementlari¹⁵



Asosiy kapital tarkibidagi maxsus zaxira kapital zaxirasi va imtiyozli kreditlash fondi uchun ajratilgan mablag'lardan tashkil topadi. Bizning fikrimizcha, hozirgi kunda maxsus zaxira tarkibida hisobga olib kelinayotgan devalvatsiya zaxirasini esa qo'shimcha kapital tarkibiga kiritish lozim.

Bazel andozalari bo'yicha qo'shimcha kapital tarkibida ko'zda tutilgan barcha kapital elementlari ikkinchi darajali kapital tarkibiga kiritilishi lozim.

Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi asosiy masalalardan biri, bank kapitalining etarliligi masalasidir.

Bazel andozalari bo'yicha bank jami kapitalining minimal etarlilik darajasi 8 foizni, asosiy kapitalining minimal etarlilik darajasi esa 4 foizni tashkil etadi. Bunda kapitalning riskka tortilgan aktivlar miqdoriga nisbati bank kapitalining etarliligi sifatida olinadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu andozalar 1988 yilda ishlab chiqilgan bo'lsa-da amaliyotga 1993 yildan boshlab joriy etilgan.

Bazel andozalari ishlab chiqilgunga qadar xalqaro bank amaliyotida AQSh Federal zaxira tizimi tomonidan ishlab chiqilgan kapitalning etarlilik koeffitsientidan keng ko'lamda foydalanilar edi. Unga ko'ra, bank kapitalini depozitlarning umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi va uning minimal darajasi 10 foizni tashkil etadi¹⁶.

Bazel andozalari qabul qilingunga qadar tijorat banklari ustav kapitalining xorijiy valyutadagi qismi bilan bog'liq qator muammolar mavjud edi. Bizning

¹⁵ Rasm mualliflar tomonidan tuzilgan.

¹⁶ Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. – М.: «Вазар- Ферро», 1994. С.97.

fikrimizcha, bu boradagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ma'lumki, tijorat banklarning balansi milliy valyutada tuziladi. Kapital tarkibiga xorijiy valyutada mablag' qo'yilganda, u joriy davrdagi kurs bo'yicha bank balans hisobotlarida milliy valyutada aks ettiriladi. Bunda bankning daromadi milliy valyutaning qadrsizlanishi natijasida yuzaga keladigan farq miqdorini qoplash uchun etadigan darajada bo'lishi kerak. Aks holda bank chet el valyutasidagi sof aktivlarini xorijiy valyutadagi kapital miqdoriga teng ravishda saqlab turishga majbur bo'ladi.

2. Agar kapital tarkibidagi xorijiy valyuta chet el banklariga depozit sifatida qo'yilgan bo'lsa, unda bank kapitalining qiymatini to'liqligicha saqlash imkoniyati yuzaga keladi. Lekin xorijiy bank depozitlarga bozor stavkasi bo'yicha foiz to'laydi. Rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarda esa, odatda, xorijiy valyutadagi depozitlarning foiz stavkasi juda past bo'ladi. Demak bunda, xorijiy valyutada qo'yilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligi past bo'ladi.

Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan tijorat banklari kapitalini tartibga solish bo'yicha ishlab chiqilgan andozada tijorat banklarining xorijiy valyutada shakllantiriladigan ustav kapitali bilan bog'liq munozarali bahslarga chek qo'yildi.

Ushbu andozaga ko'ra, tijorat banklarning xorijiy valyutada shakllantirilgan ustav kapitali bankning balansida tadrijiy qiymat bo'yicha hisobga olinadi. Bundan buyon xorijiy valyuta almashuv kursining o'zgarishidan qat'iy nazar, uning bank balansidagi milliy valyutada aks etgan qiymati o'zgarmasdan qoladi. Ammo bank bu mablag'larni o'zining aktiv operatsiyalarida erkin ishlatish huquqidan foydalanib ustav kapitaliga qo'yilgan xorijiy valyutalar aktiv operatsiyalarda ishlatilganda qayta baholanadi. Natijada, bankning aktivlari va passivlari o'rtasida qayta baholash miqdorida farq yuzaga keladi. Bu farq miqdori tijorat banki balansining passividagi devalvatsiya zaxirasi hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Bank kapitalining etarliligini baholashda Bazel andozalari ishlab chiqilgunga qadar AQSh Federal zaxira tizimi andozalaridan foydalanib kelinar edi. Uning asosiy kamchiliklari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat edi:

1. Mazkur andoza bank aktivlarini risk darajasiga ko'ra tabaqalash imkonini bermasdi.

2. Bank depozitlari barqarorligi jihatidan bir-biridan tubdan farq qiladi. Masalan, nobarqarorlik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan depozit turi transaksion depozit hisoblanadi. Jamg'arma depozitlari esa eng barqaror depozitlar hisoblanadi. Mazkur koeffitsientda depozitlar barqarorlik darajasiga ko'ra farqlanmagan.

3. Tijorat banklarining balansdan tashqari aktivlari inobatga olinmagan.

Holbuki, banklarning balansdan tashqari operatsiyalarini asosiy qismi yuqori riskli operatsiyalar hisoblanadi va banklarning likvidligiga va to'lovga qobilligiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, kafolatlar berish, hujjatlashtirilgan akkreditivlar qo'yish, forvard operatsiyalari kabi balansdan tashqari operatsiyalarning risk darajasi Bazel andozalari bo'yicha 100 foiz qilib belgilangan.

O'zbekistonda hozircha tijorat banklarining milliy valyutadagi balansdan tashqari yuqori riskli operatsiyalari rivojlanmagan. Xususan, opsiyon, fyuchers, forvard operatsiyalarini bank amaliyotida rivojlantirish zarur.

Shu bilan birga, mamlakatimiz tijorat banklari asosan ta'minlangan xujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklari kapitalining etarliligiga nisbatan o'rnatilgan talablar xalqaro Bazel andozalarida ko'zda tutilgan talablardan sezilarli darajada farq qilmaydi. Ya'ni, Markaziy bankning 2000 yil 26 apreldagi 420 – sonli «Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomiga muvofiq, bank umumiy kapitali adekvatlilik koeffitsientining minimal darajasi 0,1 yoki 10 foiz, asosiy kapitalining etarlilik koeffitsientini minimal darajasi esa 0,05 yoki 5 foiz miqdorida o'rnatilgan. Ayni vaqtda, tijorat banklarining kapitali etarliligining minimal darajasi Bazel andozalarida ko'zda tutilgan darajadan ma'lum jihatdan farq qiladi. Ushbu farq haqidagi ma'lumot birinchi ilovada keltirilgan. O'zbekiston tijorat banklari kapitalining etarliligiga nisbatan qo'yilgan talablar Bazel andozalaridan bunday tarzda farqlanishining asosiy sabablari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

1. Tijorat banklari kapital bazasini mustahkamlashda ayrim muammolarning mavjudligi. Masalan, tijorat banklari jami kapitali tarkibida ustav kapitali salmog'ini pasayish tendentsiyasiga ega bo'layotganligi bu boradagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu muammo mamlakatimizning qator olimlari, shu jumladan, O.F. Abdusalomova tomonidan qayd etilgan¹⁷.

2. Tijorat banklari korporativ mijozlariga tegishli depozitlarni sug'urtalash tizimining mavjud emasligi.

Mazkur tizimning mavjud emasligi bank kapitalidan depozitlarni himoya qilish vositasi sifatida foydalanish zaruriyatini kuchaytiradi.

Tijorat banklari kapitalining etarililigini baholashda markaziy o'rinni bank aktivlarini riskka tortish masalasi egallaydi.

Xalqaro Bazel andozalari bo'yicha bank aktivlarini riskka tortishda 4 ta risk darajasidan foydalaniladi: 0 foiz, 20 foiz, 50 foiz, 100 foiz. Bank aktivlarining risk darajalari bo'yicha guruhlanishi 2-ildovada batafsil berilgan.

Respublikamiz bank amaliyotida ham 4 toifali risk darajasidan foydalaniladi, aktivlarning risk darajasi bo'yicha guruhlanishi haqidagi ma'lumot tadqiqotning 3-ildovasida keltirilgan.

Shunisi e'tiborliki, Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan bank aktivlarini riskka tortish metodikasi bilan xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodika o'rtasida jiddiy farqlar mavjud emas. Masalan, Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodikada banklarning risksiz, ya'ni 0 foiz riskka ega bo'lgan aktivlari tarkibiga 6 ta aktiv kiritilgan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

- a) Bankning aylanma kassasidagi naqd pullar;
- b) Bankning Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisob - varag'ining qoldig'i;
- v) Hukumat va Markaziy bank tomonidan 90 kungacha muddatga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;
- g) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumatlari va Markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar;
- d) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlarning hukumatlari va Markaziy banklariga nisbatan talablar hamda bu davlatlarning naqd valyutalari bilan ta'minlangan aktivlar;

¹⁷Abdusalomova O.F. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish masalalari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. – T.: BMA., 2002, 50-bet.

e) Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar.

O'zbekiston Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan metodikada Bazel metodikasidan farqlanuvchi ikki jihat mavjud.

1. Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan metodikada hukumatning qimmatli qog'ozlari risk darajasiga ko'ra farqlanmagan. Bizning fikrimizcha, hukumatning qimmatli qog'ozlari risk darajasiga ko'ra farqlanishi lozim. Chunki hukumatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarida daromadlikning pasayish riski doimo mavjud;

2. Markaziy bankning tijorat banklari aktivlarini riskka tortish bo'yicha mavjud metodikasida Markaziy bankda qayta hisobga olinadigan trattalar o'z aksini topmagan.

Fikrimizcha, mazkur holat mamlakatimiz bank amaliyotida trattalar muomalasining mavjud emasligi tufayli yuzaga kelgan.

Boshqa risk toifalari bo'yicha sezilarli farqlar mavjud emas.

Shunisi amaliy ahamiyatga molikki, Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo qator mamlakatlarda Bazel andozalaridan farqlanuvchi risk toifalari mavjud. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Markaziy bankining birinchi yo'riqnomasiga asosan bank aktivlari 7 ta risk toifasi bo'yicha riskka tortiladi: 0,5 foiz, 15 foiz, 25 foiz, 30 foiz, 60 foiz, 70 foiz, 80 foiz. Ushbu risk toifasi 1996 yilning 30 yanvaridan yangilandi va ularning soni 5 tani tashkil qildi: 0 foiz, 10 foiz, 20 foiz, 50 foiz, 100 foiz.

Xuddi shuningdek, Rossiyada bank kapitali miqdorini va uning etarliligini aniqlash metodikasi Bazel qo'mitasi tomonidan taklif qilingan metodikadan tubdan farq qiladi. Birinchidan, o'tgan davr va joriy yil foydasi, maqsadli yo'naltirishni hisobga olmagan holda, to'lig'icha bank kapitali tarkibiga qo'shiladi, bu holat kapital summasini asossiz ravishda oshishiga olib keldi. Ikkinchidan, bankning korporativ qimmatli qog'ozlarining risk darajasini hisoblashda risk koeffitsienti darajasi kamaytirilgan. Ushbu tartib hozirgi kunda ham saqlanib qolgan, u quyidagi formula asosida hisoblanadi¹⁸:

¹⁸ Банковское дело. Под ред. проф. О.И. Лаврушина.– М.: «ФИС». 2001. С. 84.

$$K1 = \frac{K}{Ar - Rts - Rk - Rd + KRV + KRS + RR} \times 100$$

K- bank kapitalining hisoblangan miqdori;

Ar- riskka tortilgan aktivlar miqdori;

Rts-qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan jami zaxira summasi;

Rk- aktivlarning 2 va 4 risk guruhiga kiritilgan, yo'qotilishi mumkin bo'lgan ssudalar bo'yicha yaratilgan zaxira summasi;

Rd- yo'qotilishi mumkin bo'lgan boshqa aktivlar va debitorlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha yaratilgan zaxira summasi;

KRV-balansdan tashqari hisob-varaqlarda aks ettirilgan kredit vositalarining qiymati;

KRS-muddatli kelishuvlar bo'yicha kredit riski qiymati;

RR-bozor riski qiymati.

Bazel qo'mitasi tomonidan 1988 yilda ishlab chiqilgan andozadagi asosiy kamchiliklardan biri kreditlarga nisbatan qo'llanilayotgan risk darajalarini bir-biriga noadekvatlikdan iborat ekani amaliyotda o'z isbotini topdi. Ushbu kamchilikning mohiyati esa, kreditlar bo'yicha risk toifalari mijozning iqtisodiyotni qaysi sektoriga mansub ekanligiga qarab belgilanishi edi.

Masalan, Indoneziya bankiga berilgan kreditning risk darajasi 20 foizga teng bo'lsa, «Ford» yoki «Jeneral Elektrik» kabi yuqori nufuzli kompaniyalarga berilgan kreditlarning risk darajasi 100 foizga teng edi.

Yuqorida qayd etilgan e'tirozlarni inobatga olib Bazel qo'mitasi yangi andozalarni ishlab chiqdi va ushbu andozalar bo'yicha 2001 yilning oxirigacha e'tirozlar qabul qilindi. Ayni paytda e'tirozlar asosida ishlab chiqilishi ko'zda tutilayotgan yangi andozalar 2004 yilda amaliyotga joriy qilinishi rejalashtirildi¹⁹.

Bazel qo'mitasining kapitalni etarlilik koeffitsienti yangi andozasida quyidagi uchta asosiy holat joriy qilinishi lozim edi.

Birinchiidan, ushbu metodikada kapitalning etarligini hisoblashning yangi tartibi. Ikkinchiidan, yangi metodikada, nazorat organlari bank kapitalini etarlilik

¹⁹ М.Ю.Матовников.Новая система регулирования достаточности капитала Базельского комитета – «за» и «против». //Деньги и кредит. 2001. №2. С. 30.

miqdoriga o'rnatilgan darajadan yuqoriroq ko'rsatkichga erishishni talab qiladi. Ushbu tartib joriy qilinishining asosiy maqsadi esa, Markaziy bank tijorat banklar faoliyatini nazorati jarayonida ulardan minimal kapital miqdoriga o'rnatilgan talabdan yuqoriroq ko'rsatkichga ega bo'lishni talab qilishida edi. Shu orqali bank bo'limini inqirozga yuz tutishini oldini olish maqsadida Markaziy bankka uning kapital siyosatiga aralashuviga imkoniyat yaratiladi. Uchinchidan, bank kapitalini etarliligi va tarkibi yuzasidan bank mijozlari va tashqi ekspertlarga o'zlarining takliflarini kiritishga ruxsat beriladi.

Shunisi ahamiyatga molikki, yangi tahrirda bir vaqtning o'zida banklar va korxonalarining reytingi va ular joylashgan mamlakatdagi risk darajasini hisobga olish imkoni yuzaga keldi. Kredit riskini baholashda har bir mamlakatning reytingini hisobga olish siyosiy risk bilan bog'liq kredit riski muammosini chuqurlashuviga yo'l qo'ymaydi. Meksika, Argentina, Rossiya kabi davlatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, siyosiy risk kredit riskini bevosita kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. Bunda hukumatning to'lovga noqobil bo'lib qolishi, xorijiy valyutadagi to'lovlarni to'xtatilishi ushbu mamlakatlarga kredit bergan banklarning «kredit portfelida» umidsiz kreditlar salmog'ini sezilarli darajada o'sishiga olib keladi.


Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari kapitali ular faoliyatini moliyalashtirishning barqaror manbai bo'lib bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir. Ayni vaqtda, bank kapitalining sifat darajasi uning etarlilik va manbalarining tarkibi darajasi bilan belgilanadi.

1.2. Bank kapitalini boshqarishning asoslari va unga ta'sir etuvchi omillar

Tijorat banklarining kapitalini samarali boshqarishga erishish iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarining samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bozor munosabatlari sharoitida har qanday tashkilotning faoliyati yuksak darajadagi boshqarishni talab etadi. Samarali boshqarish tizimini yaratmasdan turib qo'yilgan maqsadga erishish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va samarali faoliyat yuritishning imkoniyati ma'lum darajada cheklanadi. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi tijorat banklarining kapitalini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Tijorat banklarining jamiyat miqyosidagi vaqtinchalik bo'sh mablag'larni jalb qilish kabi asosiy vazifasini e'tiborga olsak, ushbu masalaning naqadar muhim ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarish ko'pqirrali jarayon bo'lib, ushbu jarayonda asosiy e'tibor kapitalning tarkibiga qaratiladi. Quyidagi rasmda bank kapitalini boshqarish ob'ektlaridan kelib chiqib uning bank faoliyatiga ta'sirini ko'rish mumkin²⁰.

1.2-rasm



Rasmda bank kapitalini boshqarishning ob'ektiv asoslari keltirilgan. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, tijorat banklarining kapitalini barqaror darajasini ta'minlash bank kapitalini boshqarishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi.

Bunda asosiy e'tiborni tijorat banklari kapitalini shakllantirishning barqaror manbalariga qaratiladi. Tijorat banklari kapitali tarkibida barqaror manbalar sifatida ularning ustav kapitali va o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasini keltirish

²⁰ Rasm mualliflar tomonidan tuzilgan.

mumkin. Chunki ustav kapitali tijorat banklarining faoliyatini dastlabki davridayoq shakllantirilib bank faoliyati tugatilgunga qadar hisobda turadi. Shu bilan birga, ushbu mablag' real moliyaviy mablag'lar hisobidan shakllantiriladi. Xalqaro bank amaliyotida ustav kapitali asosiy va barqaror element hisoblanadi. Respublikamiz banklarida ham ustav kapitaliga nisbatan ana shunday sifat beriladi.


Tijorat banklari o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi ham real qiymatga ega bo'lgan mablag'lar hisobidan shakllantirilib bank aksiyadorlari yig'ilishining qarori asosida ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi mumkin.

Tijorat banklari kapitalini boshqarishning ikkinchi asosiy jihati sifatida ular jami kapitalining etarliligini ta'minlash masalasi hisoblanadi. Jami kapitalning etarliligini ta'minlash tijorat banklarining faoliyatini normal ravishda harakat qilishga imkon berish bilan birga, ularning moliyaviy mustahkamligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Banklar asosiy kapitali etarliligini ta'minlash bank kapitalini boshqarishning muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Uning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bank faoliyatining samaradorlik darajasini past yoki yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Chunki tijorat banklari ma'lum darajadagi risk asosida bank kapitalidan kredit resurslari sifatida foydalanishi ham mumkin. Kredit resursi sifatida berilgan kapital qarzdorlar tomonidan samarali foydalanishi natijasida daromad keltirsa bankning moliyaviy jihatdan baquvvat bo'lishiga xizmat qiladi. Agar ushbu holatning aksi bo'lsa, tijorat banklari moliyaviy jihatdan ikki tomonlama zarar ko'radilar. Ya'ni, birinchidan, berilgan kreditlar o'z vaqtida qaytarilmaydi va ushbu kreditdan mo'ljaldagi foizli daromadlarni ololmaydi. Ikkinchidan, kredit resurslarining belgilangan muddatda qaytmasligi bankni moliyaviy jihatdan zaif qilib qo'yadi. Demak, ushbu jarayonda kredit riskini oqilona baholash bank kapitalini boshqarishdagi muhim masalalardan biri hisoblandi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarishning ob'ektiv asoslaridan kelib chiqqan holda, unga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni quyidagi rasmda keltirilgan tartibda guruhlab tahlil qilish maqsadga muvofiq²¹.

²¹ Rasm mualliflar tomonidan tuzilgan.



Rasmning chap ustunidagi guruhga mansub omilning bir necha jihatlari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

a) Tijorat banklari oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosining o'zgarish omili.

Tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosining o'sishi ularni sotish jarayonini tezlashtiradi va sotilish koeffitsientining yuqori darajasiga erishish imkoniyatini beradi. Buning natijasida ustav kapitalining haqiqatda to'langan qismi oshadi. Aksincha, bankning oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosi pasayishi ularni sotishdan olinadigan tushumlar miqdoriga va emissiyaviy daromadlari hajmiga salbiy ta'sir qiladi.

Shunisi xarakterliki, ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda moliya bozorining rivojlanmaganligi oqibatida oddiy va imtiyozli aksiyalarning bozor bahosini aniqlash imkoniyati mavjud emas. Buning ustiga, banklarning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobilligi to'g'risida ishonchli ma'lumotlarning mavjud emasligi investorlarda qimmatli qog'ozlarni sotib olishga bo'lgan ishonchni pasayishiga sabab bo'ladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda inflyatsiya darajasining yuqoriligi bank aksiyalarining bozor bahosiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Inflyatsiyaning yuqori darajasi investorlar tomonidan bank aksiyalarini sotib olishga qilingan quyilmalarning va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymatini pasayishiga olib keladi.

Tijorat banklari moliyaviy ahvolidan noqarorligi uning operatsion va sof foydasining miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Operatsion foydaning etarli darajada shakllanmasligi imtiyozli aktsiyalarga to'lanadigan foizlarni o'z vaqtida va to'liq to'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sof foydaning etarli darajada shakllanmasligi esa oddiy aktsiyalarga to'lanadigan dividendlarning miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aktsiyalarning bozor bahosi o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan yana biri milliy valyuta kursining xorijiy valyutaga nisbatan sezilarli darajada tebranishidir. Bunga misol qilib 1998 yilda Rossiya rublining almashuv kursi keskin pasayib ketganligini va 2001 yil fevralda turk lirasi kursining AQSh dollariga nisbatan keskin tushib ketganligini keltirish mumkin. Buning natijasida mazkur mamlakatlarda milliy valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan quyilmalar va ularning hisobidan olinadigan daromadlar keskin pasayib ketdi.

b) Aktsiyadorlarning ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish omili.

Bizga ma'lumki, aktsiyadorlik tijorat banklarining ustav kapitali ikki qismdan iborat bo'ladi: 1) ustav kapitalining e'lon qilingan qismi; 2) ustav kapitalining haqiqatda to'langan qismi.

Aktsiyadorlarning ma'lum qismi ayrim hollarda o'zlarining ustav kapitalini shakllantirish yuzasidan olgan majburiyatlarini bajarishdan bosh tortadilar yoki bajarish muddatini juda cho'zib yuboradi. Buning natijasida ustav kapitalini shakllanishiga nisbatan salbiy ta'sir yuzaga keladi. Bu, o'z navbatida, uni boshqarish jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

G'arbiy evropadagi ayrim mamlakatlar banklari to'lanmagan ustav kapitalini resurs sifatida hisobotlarda aks ettiradi. Chunki amaldagi mahalliy qonunlarga muvofiq aktsiyadorlarning bank oldidagi majburiyati yuridik kuchga ega, deb hisoblanadi. Bu holat bozor iqtisodiyotining talablariga unchalik mos kelmaydi. Buning sababi, bozor iqtisodiyoti sharoitida aktsiyadorlar moliyaviy ahvoli yomonlashib borayotgan bankning ustav kapitaliga quyilmalar qilishdan qonuniy asosda bosh tortish huquqiga ega bo'lishi lozim.

Tijorat banklari jami kapitalining etarlliligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi omil guruhiga quyidagi omillar kiradi.

a) Tijorat banklari kapitalining oqilona tarkibini shakllantirish va uning etarliligiga nisbatan qo'yiladigan minimal talabning mo'tadil darajasini aniqlash omili.

Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat banklari kapitalining etarliligiga nisbatan qo'yiladigan talablar dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida qo'llanilayotgan bo'lsada, bank kapitalining tarkibi va uning etarliligiga qo'yilgan minimal talab darajasi ko'pchilik mamlakatlarda bir-biridan farq qiladi. Masalan, xalqaro Bazel andozalari bo'yicha jami kapitalga qo'yilgan minimal talab 0,08 ni tashkil qilsa, Markaziy bank tomonidan respublika tijorat banklari jami kapitaliga belgilangan minimal talab darajasi 0,1 ni tashkil qiladi. Shuningdek, tijorat banklari asosiy kapitaliga nisbatan belgilangan minimal talab o'rtasida sezilarsiz darajada farq mavjud.

Xalqaro Bazel andozalaridan farqlanuvchi minimal talab darajalarini boshqa qator mamlakatlar bank amaliyotida ham kuzatish mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasi bank amaliyotida ustav kapitalining miqdori 5 mln. evrodan kam bo'lgan tijorat banklari uchun jami kapitalning etarliligiga qo'yilgan minimal talab darajasi 11 foizni tashkil etadi, ustav kapitalining miqdori 5 mln. evro va undan yuqori bo'lgan tijorat banklari uchun bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etadi.

Shveysariyada bank kapitalining minimal etarlilik darajasi bank balansidagi har bir guruh aktivlariga nisbatan alohida belgilangan. Masalan, bank kapitali:

- hukumatning qimmatli qog'ozlari, veksellar, pul bozorining qat'iy belgilangan foiz stavkadagi majburiyatlari va eksport kafolatiga ega bo'lgan muddatli ssudalarining 2 foizidan kam bo'lmasligi kerak;

- boshqa banklarning bu bank oldidagi 90 kun muddatgacha bo'lgan qarzlari, Xalqaro hisob-kitoblar Banki va boshqa mamlakatlarning Markaziy banklaridagi depozitlari, ko'chmas mulk bilan ta'minlangan kontokorrent kreditlari umumiy miqdorining 4 foizidan kam bo'lmasligi kerak;

- boshqa banklarning bu bank oldidagi 90 kundan ortiq muddatdagi qarzlari va veksellar hamda pul bozorining qat'iy foiz stavkalariga ega bo'lgan majburiyatlari, ko'chmas mulkdan tashqari boshqa garov ob'ektlari bilan

ta'minlangan kontokorrent kreditlari umumiy miqdorining 6 foizidan kam bo'lmasligi kerak;

- bank portfelidagi birja qimmatli qog'ozlari summalarining 10 foizidan kam bo'lmasligi lozim;

- bozorda kotirovka qilinmaydigan xususiy qimmatli qog'ozlar, investitsion trastlarning aksiyalari, bank binolarining qiymati, bankning xorijiy valyutadagi aktivlari umumiy miqdorining 20 foizidan kam bo'lmasligi lozim;

- konsolidatsiyalashgan kompaniyalardagi ishtirok miqdorining 100 foizidan kam bo'lmasligi lozim.

Milliy bank tizimidagi tijorat banklarining to'lovga qobilligini ularning aktivlari va passivlari mavjud tarkibidan kelib chiqqan holda jami kapitaliga qo'yiladigan minimal talab darajasini belgilash lozim. Asosiy kapitalga nisbatan belgilangan 50 foizli talab saqlanib qolishi zarur, deb hisoblaymiz. Ya'ni, asosiy kapital regulyativ (jami) kapitalning 50 foizi yoki undan ko'pini tashkil qilish lozim²².

Tijorat banklari kapitalining tarkibini oqilona shakllantirish bank kapitalini boshqarishning muhim amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

b) Bank aktivlarini riskka tortilgan miqdorining o'zgarish omili.

Bu omilning juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini shundan ham bilsa bo'ladiki, xalqaro Bazel andozalari bo'yicha jami kapitalning ham, asosiy kapitalning ham etarlilik darajasi aktivlarning riskka tortilgan miqdoriga nisbatan belgilangan.

Mazkur andozalarni amaliyotga joriy qilingunga qadar tijorat banklari to'lovga qobilligining asosiy ko'rsatkichi sifatida ularning mijozlar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olish imkoniyati e'tiborga olinar edi. Unga ko'ra, bank mijozning, asosan, muddatsiz depozitlari bo'yicha qo'ygan talablarini shu zahoti bajara olish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur edi. Albatta, ushbu ko'rsatkich hozirgi kunda ham o'zining dolzarbligini saqlab turibdi. Lekin banklarni iqtisodiy jihatdan inqirozga tushib qolishining asosiy omillari sifatida ularning aktiv operatsiyalari

²² O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: «O'zbekiston», 2003. 376- bet.

tarkibida riskka tortilgan aktivlari darajasining holatiga qarab aniqlanishi muhim ko'rsatkich bo'lib qoldi.

Shunisi e'tiborga molikki, xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining iqtisodiy jihatdan bankrotlikka uchramasliklari uchun qancha miqdorda kapital mablag'i zarur bo'ladi degan savolga, aniq javob mavjud emas. Chunki katta miqdordagi kapitalga ega bo'lgan Yaponiya, G'arbiy evropa mamlakatlaridagi ko'zga ko'ringan banklar iqtisodiy jihatdan tanazzulga yuz tutganligi tarixdan ma'lum. Demak, Bazel andozalariga ko'ra bank kapitalining etarliligi tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlari sifatiga bog'liqligi mantiqan to'g'ri. Ya'ni, riskka tortilgan aktivlarning sifati qanchalik yomon bo'lsa bank kapitalining miqdori ham shunga nisbatan yuqori bo'lishi va tegishli zaxiralarni yaratish lozimligi, va aksincha.

Tijorat banklarida riskka tortilgan aktivlar miqdorining o'zgarishini quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rib chiqamiz.

1.1-jadval

**Tijorat banklarida riskka
tortilgan aktivlar miqdorining o'zgarishi**

(foizda)

T/r	Ko'rsatkichlar	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2002 yilda 2000 yilga nisbatan o'zgarishi (punkt)
1.	Risksiz aktivlar	27,9	17,0	16,1	-11,8
2.	Risk darajasi 20 % ga teng bo'lgan aktivlar	7,4	12,7	14,3	+6,9
3.	Risk darajasi 50 % ga teng bo'lgan aktivlar	9,1	13,5	13,1	+4,0
4.	Risk darajasi 100 % ga teng bo'lgan aktivlar	55,6	56,8	56,5	+0,9
Riskli aktivlar-jami		100,0	100,0	100,0	X

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, ko'rilayotgan davr mobaynida tijorat banklarida risksiz aktivlar salmog'ining sezilarli darajada pasayishi yuz berdi. Ushbu pasayish 20 foiz risk darajasiga ega bo'lgan bank aktivlarining riskka tortilgan hajmdagi aktivlar umumiy salmog'ini sezilarli darajada o'sishi hisobiga yuz berdi. Bu esa ijobiy holat sifatida baholanadi. Chunki risksiz aktivlar salmog'ining pasayishi yuz foiz riskka ega bo'lgan aktivlar salmog'ining o'sishi hisobiga bo'lmadi. 100 foiz

riskka ega bo'lgan bank aktivlarining riskka tortilgan hajmdagi aktivlar umumiy salmog'ining o'sishi tahlil qilingan davr mobaynida atigi 0,9 punktni tashkil qildi.

20 foizli risk darajasiga ega bo'lgan aktivlarning 99 foizi tijorat banklarining xorijiy banklardagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlari qoldig'iga to'g'ri keladi, qolgan bir foizi esa inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'lari hissasiga to'g'ri keladi. 20 foiz riskka ega bo'lgan boshqa turdagi bank aktivlari respublikamiz bank amaliyotida mavjud emas. Xususan, hukumatning o'rta va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari, hukumat tomonidan kafolatlangan korporativ qimmatli qog'ozlar bank amaliyotida mavjud emas.

Shunisi xarakterliki, rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida banklarning riskka tortilgan aktivlari miqdorining sezilarli qismini ularning balansdan tashqari aktivlari miqdori tashkil etadi. Balansdan tashqari bank aktivlari tarkibida hujjatlashtirilgan akkreditivlar qo'yish, forvard shartnomalari tuzish, koll va put opsiyonlar berish egallaydi. Biz ushbu balansdan tashqari operatsiyalarga xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan 100 foiz risk darajasi belgilanishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Chunki ushbu operatsiyalarning har birida bankning yo'qotish ehtimoli juda kattadir. Masalan, hujjatlashtirilgan akkreditivlar qo'yishda bank mijozning to'lov majburiyati yuzasidan kafillikni to'liq o'z zimmasiga oladi. Mijoz to'lovga noqobil bo'lib qolganda yoki mijozning joriy hisobvarag'ida vaqtinchalik pul mablag'lari etishmasligi yuz berganda, bank to'lov miqdorini to'lig'icha to'lab beradi. Ammo O'zbekiston tijorat banklari ochayotgan hujjatlashtirilgan akkreditivlarga nisbatan yuqori riskli, degan tushunchani qo'llab bo'lmaydi. Buning boisi shundaki, tijorat banklari tomonidan qo'yilayotgan akkreditivlarning mutlaq asosiy qismi ta'minlangan akkreditivlardir, ya'ni akkreditiv bo'yicha to'lovni amalga oshirishda banklar 22602—«Akkreditiv bo'yicha mijozlarning depozitlari» hisob raqamidan foydalanadi. Demak, akkreditiv miqdori mijozning joriy hisobvarag'idan olinib 22602 – «Akkreditiv bo'yicha mijozlarning depozitlari» hisobvarag'ida deponentlanadi, akkreditiv bo'yicha to'lov ushbu hisobvaraqlarni debetlash orqali amalga oshiriladi.

Xalqaro Bazel andozalari tijorat banklarining forvard transaksiyalarini 100 foiz risk darajasiga ega bo'lgan balansdan tashqari aktiv sifatida baholaydi. Biz

haqiqatdan ham forvard transaksiyalarini yuqori risk darajasiga ega ekanligini e'tirof etamiz. Lekin, bizning fikrimizcha, forvard transaksiyalari opsiyonlar bilan bir xil risk darajasiga ega bo'lishi mumkin emas. Buning sababi shundaki, opsiyon egasida faqat huquq bo'ladi, majburiyat bo'lmaydi. Bank esa emitent sifatida majburiyatga egadir. Demak, opsiyonlar o'z egasini 100 foiz moliyaviy risklardan himoya qiluvchi, bankni esa 100 foiz riskka duchor qiluvchi moliyaviy instrument hisoblanadi. Shuning uchun ularga 100 foiz risk darajasini berilishi maqsadga muvofiqdir. Lekin forvard operatsiyalarini amalga oshirayotganda banklar o'zlarini sezilarli darajada riskdan himoya qilish imkoniyatiga egadirlar. Shuning uchun ularga nisbatan 50 foiz risk darajasi belgilash maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro Bazil qo'mitasining ekspertlari banklar tomonidan chiqarilayotgan koll va put opsiyonlarining risk darajasini to'g'ri belgiladilar. Koll va put opsiyonlarning har ikkala standartida ham yuqori risk darajasi saqlanib qoladi. Ayniqsa opsiyonlarning amerika standarti juda riskli hisoblanadi, bunda opsiyon egasi opsiyon shartnomasi muddatining istalgan vaqtida opsiyondan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Opsiyonlarning evropa standartida esa opsiyon egasi opsiyondan foydalanish huquqiga faqat opsiyon shartnomasi muddati tugagandan so'ng ega bo'ladi.

Koll opsiyonlar qimmatli qog'ozlarni va valyutalarni belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotib olish huquqini beradi. Put opsiyonlar esa qimmatli qog'ozlar va valyutalarni belgilangan kurs bo'yicha kelgusida sotish huquqini beradi.

v) Bank kapitalining etarlicligi sharoitida uning likvidligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan likvidli aktivlarning mavjudligi omili.

Ushbu omilning ahamiyati shundaki, ayrim tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida resurslarning, shu jumladan, kapitalning asosiy qismini yuqori riskli aktiv operatsiyalarga yo'naltiradi. Bunday sharoitda banklarning likvidligi xavf ostida qoladi. Shuning uchun bank aktivlari tarkibida banklarning likvidligini ta'minlash maqsadida ma'lum miqdordagi likvidli aktivlarni saqlab turish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida hukumatning qimmatli qog'ozlaridan banklarning likvidligini ta'minlashda keng foydalaniladi. Masalan, Yaponiya tijorat banklarida hukumatning qimmatli qog'ozlariga quyilmalar bank

aktivlarining 10 foizdan ortiqroq qismini tashkil qiladi. Xuddi shunday holatni Germaniya, Buyuk Britaniya va Frantsiyada ham kuzatish mumkin.

Hukumatning qimmatli qog'ozlari yuqori likvidlik xususiyatiga ega bo'lib, ularga nisbatan moliya bozorida doimo barqaror talab mavjud. Shuning uchun ularni istalgan vaqtda qulay bozor baholarida sotib, bankning likvidligini ta'minlash mumkin. Boshqa tomondan esa, ular tijorat bankiga qat'iy belgilangan foizlarda daromad keltiradi va banklarning foizli daromadlarini ko'paytirish yo'li bilan ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ana shu xususiyatlari tufayli ham hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar tijorat banklarining likvidligini ta'minlashda nisbatan ishonchli va daromadli vositasi hisoblanadi.

Yuqori likvidlik xususiyatiga ega bo'lgan hukumat qimmatli qog'ozlari va boshqa qimmatli qog'ozlarning bank amaliyotida etishmasligi tijorat banklari joriy likvidligini pul mablag'lari hisobidan ta'minlashni zarur qilib qo'ymoqda. Masalan, 2004 yilning 1 yanvar holatiga, tijorat banklari balansidagi pul shaklidagi mablag'larning umumiy miqdori 900954 mln. so'mni tashkil qildi. Bu esa tijorat banklari jami aktivlarining 20,4 foizi demakdir²³.

Pul mablag'lari shaklidagi aktivlar tijorat banklariga daromad keltirmaydigan va daromadlik darajasi juda past bo'lgan aktivlar hisoblanadi. Masalan, tijorat bankining aylanma kassasidagi naqd pullar va uning Markaziy bankdagi «Nostro» vakillik hisobvarag'idagi pul mablag'lari daromad keltirmaydigan aktivlar hisoblanadi. Bankning boshqa banklardagi «Nostro» vakillik hisobvaraqlari qoldiqlariga past stavkalarda foiz to'lanadi. Shu bilan birga, banknotalar shaklidagi naqd pullarni saqlash, etkazib berish va hisobini olib borish tijorat banklari uchun qo'shimcha xarajatlarni vujudga keltiradi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning ko'pchiligida joriy likvidlik koeffitsientlari mavjud bo'lib, ular bank kapitaliga nisbatan o'rnatilganidir. Masalan, Frantsiyada likvidlik koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi: kreditlarning umumiy miqdori bankning o'z mablag'i (kapitali)ning miqdoridan va ayrim balans passividagi elementlarning miqdoridan uch martadan ortiq bo'lmasligi lozim. Germaniyada

²³ Tijorat banklarning hisobot ma'lumotlari asosida hisoblandi.

ushbu ko'rsatkich to'rt marta qilib belgilangan. Bu har ikkala ko'rsatkich bankning o'rta va uzoq muddatlik ko'rsatkichlaridir. O'rta va uzoq muddatli likvidlik ko'rsatkichlari AQSh, Angliya va Yaponiyada o'rnatilmagan.

Tijorat banklari kapitalidan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiluvchi omil guruhiga asosan quyidagi omillar kiradi.

a) Bank kapitalining daromadlik koeffitsienti (KDK)ning o'zgarishi.

Bu erda, eng qiyin holatdan biri o'z kapitalining, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, aksiyadorlik kapitali va taqsimlanmagan foydaning bahosini aniqlash qiyin kechadi. Aksiyadorlik kapitali va taqsimlanmagan foydaning bahosi bank aksiyalaridan olinishi kutilayotgan daromad miqdori bilan aniqlanadi. Ushbu qiymat ham shartli ravishda olingan bo'lib, bank tomonidan olinayotgan daromad aynan qaysi aktsiya hisobiga to'g'ri kelishini aniqlashning imkoniyati yo'q. Tijorat banklari yilni sof foyda bilan yakunlaganligini bank aksiyadorlariga to'lagan dividendlar miqdori, bank kapitalini kapitalizatsiya qilinayotgan mablag'lar hajmidan ham aniqlash mumkin. Bankning boshqa passiv mablag'lari singari bank kapitalidan foyda olish darajasi majburiy holat sifatida belgilab quyilmagan. Ammo bank aksiyadorlarining bankning kapitaliga investitsiya sifatida yo'naltirgan mablag'laridan manfaatdorlik ko'rishi va bankning moliyaviy imkoniyati mustahkamlanib borishi uchun tijorat banklari olayotgan foyda darajasini doimiy ravishda oshirib borishlari lozim bo'ladi, albatta.

Bank kapitalining daromadlik darajasini aniqlash bank kapitalidan foydalanish samaradorligini belgilovchi bilvosita ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki, birinchidan, bank kapitali hisobidan aynan qaysi aktiv operatsiya moliyalashtirilayotganligini bilishning iloji yo'q; ikkinchidan, bank kapitali bankning jami resurslariga nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

Daromadlik koeffitsientini pasayishi kapitaldan samarali foydalanish darajasining pasayayotganligidan dalolat beradi.

b) Bank ustav kapitalining jami kapital hajmidagi salmog'i o'zgarishi.

Bunda ko'zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni ustav kapitalidan qoplash imkoniyati nazarda tutiladi. Bankning ustav kapitali o'ziga xos sug'urta fondi sifatida

operatsion faoliyat davomida yuzaga keladigan ko'zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni qoplash uchun etishi kerak.

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida bank depozitlarini sug'urtalash tizimining joriy etilganligi bank kapitaliga bo'lgan talabni sezilarli darajada qisqarishiga olib keldi. Chunki depozitlarni sug'urtalash depozitlarni mijozlar tomonidan ommaviy ravishda olinishidan yuzaga keladigan xavfni kamaytiradi.

Ayni vaqtda, shuni ta'kidlash lozimki, depozitlarni sug'urtalash tizimini joriy qilinishi kutilgan natijani bermasligi ham mumkin. Buning sababi shundaki, ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda tijorat banklarining sezilarli qismi moliyaviy jihatdan nochor hisoblanadi. Natijada, ular tomonidan sug'urta fondiga yirik miqdorda ajratmalar qilinishi ushbu banklarning moliyaviy ahvolini yanada og'irlashtiradi. Jahon bankining eksperti Maykl Fuks rahbarligidagi ekspertlar guruhining fikriga ko'ra, depozitlarni sug'urtalash tizimining joriy etilishi milliy bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada yo'qotilishiga xizmat qilishi mumkin. Ularning fikriga ko'ra, agar sug'urta fondi depozitlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshira olmasa, u holda mijozlarning sug'urta fondiga va ular orqali bank tizimiga bo'lgan ishonchiga putur etadi. Shuning uchun, depozitlarni sug'urtalash fondining majburiyatlari cheklangan va fond kapitalining etarlilik darajasi kafolatlangan bo'lishi lozim²⁴.

Shunisi e'tiborga molikki, bank kapitalining moddalari barqarorligi va daromadligi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, uzoq muddatli subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari yuqori xarajatli kapital moddasi hisoblanadi. Chunki ularga to'lanadigan foiz stavkalari oddiy va imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan foiz stavkalariga nisbatan sezilarli darajada yuqoridir. Shuning uchun ulardan foydalanish natijasida olinadigan foydaning real darajasi kichik bo'ladi.

Ayrim mamlakatlarda banklarning kam xarajatli qarz majburiyatlari muomalaga chiqariladi. Masalan, Yaponiyada uzoq muddatli kreditlash banklari va ayrim tijorat banklari ikki turdagi dibencherlarni moliyaviy bozorda joylashtiradi:

²⁴ Жан Матук. Финансовая системы Франции и других стран. Москва. АО «Финстатинформ» 1994. –С.307.

besh yillik muddatga, bir yilda ikki marta foiz to'lash shartiga ega bo'lgan foizli qog'ozlar va bir yillik muddatga chiqariladigan diskontli qog'ozlar.

Ba'zi mamlakatlarda kapital moddalariga mazmunan o'xshash bo'lgan qimmatli qog'ozlar tijorat banklari balansining majburiyatlar qismida aks ettiriladi. Masalan, Angliya tijorat banklari balansining passivida jalb qilingan aksiyalar, degan modda mavjud. Jalb qilingan aksiyalar bu o'rta va uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar bo'lib, bank ularni bozorda ko'zda tutilgan muddatda qoplash sharti bilan joylashtiradi. Bunday aksiyalarga misol qilib «Midlend bank» tomonidan 1983 yilda chiqarilgan, yiliga 10,75 foiz daromad keltiruvchi va qoplash muddati 1993 va 1998 yillarni o'z ichiga olgan aksiyalarni keltirish mumkin. Ushbu aksiyalar imtiyozli aksiyalarga o'xshaydi, ya'ni bank foyda olmasa ham ularga foiz to'laydi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari kapitalini boshqarishga ta'sir qiluvchi omillar kapitalning asosiy sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirishga qodir bo'lgan omillar hisoblanadi. Ularning bank kapitalini boshqarish jarayoniga ta'sir etish mexanizmini chuqur o'rganish va salbiy ta'siriga barham berish choralarini ishlab chiqish bank kapitalini boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

II -BOB. BANK KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALIY TARTIBI VA SAMARADORLIGINING MEZONLARI

2.1. Bank kapitalini shakllantirishning amaliyotdagi holati tahlili

O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonuniga muvofiq: «Bankning ustav kapitali bank muassislari va aktsiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topadi. Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi»²⁵. Markaziy bank 1997 yildan boshlab tijorat banklarining ustav kapitali hajmini oshirishga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Xususan, 1997 yil yanvar oyidan boshlab tijorat banklariga ustav kapitalini har chorakda belgilangan miqdorda oshirish majburiyati yuklatildi. Bu esa kutilgan samarani berdi. Ya'ni 1998–2000 yillarda tijorat banklarining kapitali ikki marotaba ko'paydi.

Tijorat banklari ustav kapitalining tarkibi turli moliyaviy manbalar hisobiga shakllanadi. Ushbu manbalar haqida tadqiqotning birinchi bo'limida batafsil yoritilgan edi. Ularning asosiylari sifatida bank tomonidan chiqarilgan oddiy aktsiyalarni ta'kidlashimiz lozim. Bank ustav kapitalining asosiy qismi ushbu aktsiyalar hisobiga shakllantiriladi.

O'zbekiston bank amaliyotida tijorat banklarining imtiyozli aktsiyalarini sotishdan olingan tushum ham ustav kapitali tarkibiga kiritiladi. Bunda, imtiyozli aktsiyalarning qiymati ustav kapitali umumiy summasining 20 foizdan oshib ketmasligi kerak²⁶. Ayrim rivojlangan industrial davlatlarda, masalan, Germaniya va Avstriyada imtiyozli aktsiyalarni sotishdan olingan tushumlar banklarning ustav kapitali tarkibiga kiritilmaydi, ustav kapitali faqatgina oddiy aktsiyalarni sotishdan olingan tushum hisobiga shakllantiriladi. Chunki imtiyozli aktsiyalarning egalari tijorat bankining hisobot yilida foyda olishi yoki olmasligidan qat'iy nazar belgilangan dividend to'lovini olish yoki bank tugatilganda aktsiya uchun qo'yilgan mablag'ni birinchi navbatda qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

²⁵ O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: «O'zbekiston», 2003, 33- bet.

²⁶ O'zbekiston Respublikasining «Aktsiyador jamiyatlar va aktsiyadorlarning huquqini himoya qilish haqida» gi Konuni, 1996 yil 26 aprel. 19-modda.

O'zbekiston bank amaliyotida, xalqaro Bazel andozalarida ko'zda tutilgani kabi, ustav kapitalining faqat haqiqatda to'langan qismi kapital tarkibiga kiritiladi. Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, ko'pchilik hollarda aktsiyadorlarning bir qismi ta'sis shartnomasida ko'zda tutilgan miqdordagi o'z ulushlarining ma'lum qismini to'lashdan bosh tortadilar yoki to'lashni kechiktiradilar. Shuning uchun ham e'lon qilingan ustav kapitalining faqatgina haqiqatda to'langan qismini tijorat bankining kapitali tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Tijorat banklari kapitali shakllanish jarayoniga baho berish uchun banklarning jami kapitalining ma'lum sanadaga holatini ko'rib chiqamiz.

2.1 – jadval

Tijorat banklari jami kapitalining tarkibi
(2004 yil 1 yanvar holatiga)

T/r	Ko'rsatkichlar	Miqdori (mln. sum)	Salmog'i (foizda)
1	Ustav kapitali	102485,0	13,0
2	Emission daromad	0	0,0
3	Maxsus zaxira	609450,0	77,0
4	Taqsimlanmagan foyda	39803,0	5,0
5	Joriy yilning sof foydasi	38384,0	4,9
6	Qayta baholash zaxirasi	855,0	0,1
7	Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari	0	0,0
8	Konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan quyilmalar	0	0,0
	Jami kapital –hammasi	790977,0	100,0

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, tijorat banklarining jami kapitali asosan 2 element hisobiga, ya'ni ustav kapitali va maxsus zaxira hisobiga shakllangan. Ushbu 2 elementning jami kapital hajmidagi salmog'i 90,0 (13,0%+77,0%) foizni tashkil qiladi. Ustav kapitalining jami kapital hajmidagi salmog'i yuqori ekanligi ijobiy holat hisoblanadi. Chunki ustav kapitali yuqori barqarorlik darajasiga ega bo'lgan moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Xalqaro bank amaliyotida bank balansining passividagi ustav kapitali salmog'ining ijobiy o'zgarishi bankning to'lovga qobilligining mustahkamligini belgilovchi birlamchi omil hisoblanadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinyaptiki, tijorat banklarining kapitali tarkibida ustav kapitali sezilarli darajada yuqori salmoqni (13 foiz) egallaydi. Bu esa, ustav

kapitalining haqiqatda to'langan qismi bo'lib, oddiy va imtiyozli bank aksiyalarini birlamchi qimmatli qog'ozlar bozorida sotish natijasida shakllanadi.

Hozirgi paytda tijorat banklari aksiyalarini oldi-sotdisini amalga oshirish uchun ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining to'lig'icha shakllanmaganligi tufayli oddiy va imtiyozli aksiyalarining bahosini operatsion qiymat usuli orqali aniqlashning imkoniyati yo'q. Mamlakat Prezidenti I.A.Karimov shu xususda to'xtalib, jumladan shunday dedi: **«Takror va takror aytishga to'g'ri keladi: qachonki qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori to'la ishga tushsa, fond birjasi tom ma'noda faoliyat ko'rsatsa, qachonki aksiyalar qiymati muntazam e'lon qilib borilsa, aholida aksiyalar sotib olishga ishtiyoq va intilish tug'lsa, aksiyalarning o'zi esa shunchaki oddiy qog'oz bo'lib qolmasdan, haqiqiy qimmatli qog'ozga aylanib, o'z egalari uchun muhim daromad manbai bo'lsagina, bu maqsadga erishish mumkin.**

Sodda qilib aytganda, bu aksiyalar qonun nuqtai nazaridan qimmatli qog'oz deb baholanadi. Lekin hayotda odamlar bunga qanday qarayapti?»²⁷.

Yuqorida qayd etilgandek, qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi ularning bozor bahosini aniqlash imkoniyatini bermayapti.

Shu sababli, banklar ustav kapitalining haqiqatda to'langan qismini jami kapital hajmidagi salmog'i va bankning resurslari hajmidagi salmog'ini tahlil qilishimiz mumkin.

Tijorat banklari jami kapitali tarkibida maxsus zaxirani juda yuqori salmoqqa ega ekanligi, fikrimizcha, salbiy holat hisoblanadi. Chunki tijorat banklari maxsus zaxirasining sezilarli qismi devalvatsiya zaxirasi hisobiga vujudga kelgan. Devalvatsiya zaxirasi bank iqtisodiy qiyinchiliklarga tushganda undan chiqib ketish uchun moliyaviy himoya vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini etarli darajada bermaydi. Chunki ushbu zaxira real qiymatga ega bo'lmagan kapitalning arzon manbasi hisobiga vujudga kelgan bo'lib, uni bankning aktiv pul mablag'lari hisobvaraqlarida manba sifatida kirim qilishning imkoniyati mavjud emas.

²⁷ Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodemizga bog'liq. 12-tom, -T.: «O'zbekiston», 2004, 205-bet.

Tijorat banklari asosiy kapitali tarkibida emission daromadlarning mavjud emasligi banklarning oddiy va imtiyozli aksiyalarini mamlakat fond birjalarida oldi-sotdi qilinmayotganligi bilan izohlanadi.

Ma'lumki, emission daromad tijorat bankining oddiy va imtiyozli aksiyalari bozor bahosi bilan ularning nominal qiymati o'rtasidagi farq sifatida yuzaga keladi. Tijorat banklari oddiy va imtiyozli aksiyalarini qimmatli qog'ozlar bozorida oldi-sotdi qilinmasligi ularning bozor bahosini shakllanmasligiga sabab bo'ladi.

Imtiyozli aksiyalarni, shuningdek oddiy aksiyalarni ham sotish orqali bank kapitalini shakllantirishning eng qimmat usuli hisoblanadi. Chunki imtiyozli aksiyalarning egalari oddiy aksiyalarning egalriga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri bank foydasini taqsimlashda birinchi navbatda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar, buning natijasida to'lanishi lozim bo'lgan bank dividendlarining miqdori kamayib ketishi mumkin.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, taqsimlanmagan foydaning jami kapital hajmidagi salmog'i nisbatan sezilarli salmoqni tashkil etadi (5,0 foiz). Bu esa ijobiy holat hisoblanadi. Chunki taqsimlanmagan foyda bankning barcha to'lovlari amalga oshirilgandan so'ng qoladigan foyda bo'lib, u bank aksiyadorlari yillik hisobot yig'ilishining qaroriga muvofiq ishlatiladi. Tijorat banklari mazkur kapital manbasi ham moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror manba tarkibiga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Joriy yil sof foydasining miqdori ham jami kapital hajmida sezilarli salmoqni egallaydi (4,9 foiz). Bu esa tijorat banklari sof foydasining mavjudligidan dalolat beradi. Tijorat banklarining joriy yildagi sof foydasi barcha xarajatlar va chegirmalardan so'ng vujudga keladigan kapital manbasi hisoblanib, respublikamiz bank amaliyotida banklarning ikkinchi darajali kapitali tarkibiga kiritiladi. Bizning fikrimizcha, ushbu kapital manbasini nisbatan moliyaviy barqaror manba ekanligini inobatga olib asosiy kapital tarkibiga kiritish lozim.

Tijorat banklari kapitali tarkibida qayta baholash zaxirasining juda kichik salmoqqa ega ekanligi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi. Holbuki, rivojlangan xorijiy davlatlarda qayta baholash zaxirasi banklar qo'shimcha kapitalining asosiy qismini tashkil etadi. Buning sababi, yirik va o'rta tijorat banklari katta shaharlarda

yuqori balans qiymati mavjud binolarga egadirlar. Binolarning bozor bahosi esa, odatda, o'sish tendentsiyasiga ega. Bunday sharoitda yuqori qiymatga ega bo'lgan binolarning bozor bahosi o'sishi natijasida katta miqdordagi qayta baholash zaxirasi paydo bo'ladi.

O'zbekiston tijorat banklarida qayta baholash natijasida asosiy vositalarning o'sgan qiymati 31501-«Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholangandagi qo'shimcha qiymat» hisobvarag'iga kiritiladi. Ushbu summa, tijorat bankining 31203-«Taqsimlanmagan foyda» hisobvarag'iga, ya'ni asosiy kapitali tarkibiga, tegishli aktivning tiklash va boshlang'ich qiymatining eskirish summalari o'rtasidagi farq summasiga teng miqdorda har oyda o'tkazib boriladi²⁸.

Binolardan tashqari banklarga tegishli erlarning bozor bahosi oshishi natijasida qayta baholash zaxirasining miqdori oshadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan, AQSh, Yaponiya va G'arbiy evropa davlatlarida tijorat banklariga tegishli erlar ularning xususiy mulki hisoblanadi. Shu sababli, erlar bahosining o'sishi hisobiga yuzaga kelgan zaxira miqdori to'g'ridan-to'g'ri bankning qo'shimcha kapitali tarkibiga kiritiladi.

O'zbekistonda tijorat banklari va boshqa yuridik shaxslar egallab turgan er maydonlariga nisbatan xususiy mulkchilik munosabatlari mavjud emas²⁹. Shu sababli, tijorat banklari foydalanayotgan er maydonlarining qiymati qayta baholanmaydi³⁰. Demak, O'zbekiston tijorat banklarida qayta baholash zaxirasi faqat banklarga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasida yuzaga keladi.

Shuni nazarda tutish lozimki, tijorat banklarida qayta baholash zaxirasini shakllantirish va undan bankning kapitalini oshirish uchun foydalanganda soliqqa tortish mexanizmi bevosita ta'sir qiladi. Soliqqa tortish mexanizmi ta'sirining mohiyati shundaki, bankda qayta baholash natijasida yuzaga kelgan farq miqdori foyda yoki daromad hisoblanadi va soliqqa tortiladi. Yoki yuzaga kelgan farq miqdori mulk qiymatining o'sishi sifatida mol-mulk solig'iga tortiladi. Buning

²⁸ O'zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: «O'zbekiston», 2003, 166- bet.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Er kodeksi. –T.: «O'qituvchi nashriyoti», 1998, 19-bet

³⁰ O'zbekiston Respublikasi bank tizimida buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: «O'zbekiston», 2003, 169- bet.

natijasida bank real tushumga ega bo'lmagan holda soliq to'lagan bo'lib chiqadi. Bu esa, bankning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi.

AQSh, Yaponiya va G'arbiy evropa davlatlarida tijorat banklarining qayta baholash zaxirasi umuman soliqqa tortilmaydi. Bu esa qayta baholash zaxirasidan kapital elementi sifatida foydalanish imkonini beradi.

Demak, tijorat banklari kapitali tarkibida mazkur zaxiralarning kichik salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablari sifatida respublikamizda qayta baholash hisobidan vujudga kelgan qiymatning mol-mulk solig'iga tortilishi va tizimli qayta baholash tartibining rivojlanmaganini e'tirof etishimiz lozim.

Tijorat banklarida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining mavjud emasligi, tijorat banklarining o'rta va uzoq muddatli kreditlar bozorida mavqeining zaifligidan dalolat beradi. Chunki subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining tijorat banklariga o'rta va uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning qulay va kam xarajatli vositasi hisoblanadi.

Tijorat banklari, avvalo, qisqa muddatli kreditlash institutlari hisoblanadi. Shu sababli, ularning resurslari tarkibida asosiy o'rinni qisqa muddatli moliyalashtirish mablag'lari egallashi lozim. Ayni vaqtda, o'rta va uzoq muddatli kreditlash hisobidan moliyalashtiriladigan yuqori rentabelli investitsiya loyihalari mavjud bo'lib, ular banklarni o'rta va uzoq muddatli resurslar topishga majbur qiladi. Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlaridan ana shunday resurslarni jalb qilish vositasi sifatida foydalaniladi.

Tijorat banklari jami kapitali tarkibida konsolidatsiyalashgan sho''ba korxonalariga qilingan quyilmalar mavjud emasligi jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinmoqda. Demak, bizning banklarda lizing, trast, faktoring, forfeyting kompaniyalari kabi kredit muassasalari tashkil etish amaliyoti etarli darajada mavjud emas. Holbuki, xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari qoshida tashkil etilgan kredit muassasalari faoliyatining iqtisodiy jihatdan samarali ekani o'z isbotini topgan.

Banklar qoshida tashkil etilgan sho''ba korxonalari mustaqil balansga ega bo'lmaydi, ular belgilangan xarajatlar smetasi asosida faoliyat yuritadi va olgan foydasi bankning foydasiga qo'shiladi. Eng muhimi, ular faoliyatini samaradorligini aniq ko'rsatkichlarda ifodalash mumkin. Shuningdek, tijorat banklari moliyaviy

muassasa sifatida resurslarga ega bo'lib, ushbu resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari yanada oshadi. Bu ularning faoliyati samaradorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tijorat banklarida kreditdan kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxiralarining jami kapital hajmidagi salmog'i kichik ekanligi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkich, 2004 yil 1 yanvar holatiga tijorat banklarining jami kredit quyilmalarining 4,2 foizini tashkil etgan³¹. Buning asosiy sababi, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni tasniflashda ularning risk darajasi nisbatan yuqori emasligi va muddati o'tgan ssudalarni kichik miqdorda ekanligidir.

Tijorat banklari kapitalini shakllantirishda uning tarkibini barqaror moliyalashtirish manbalar hisobidan amalga oshirishga erishish bank kapitalini boshqarishning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, 2004 yil 1 yanvar holatiga tijorat banklarining ustav kapitali jami kapital hajmidagi ulushi sezilarli darajada yuqori miqdorga ega.

Ustav kapitalining boshqa manbalarga qaraganda nisbatan yuqori barqarorlikka ega ekanligini inobatga olib, uning jami passivlar tarkibidagi ulushini tadqiq qilganimizda mazkur ko'rsatkichning sezilarli darajada pasayib borish tendentsiyasiga ega ekanligini guvohi bo'ldik. Masalan, ushbu ko'rsatkich, respublikamiz tijorat banklarida 1999 yil 1 yanvar holatiga 4,02 foiz, 2001 yil 1 yanvar holatiga 2,5 foiz, 2002 yil 1 yanvar holatiga 1,9 foizni tashkil etgan³². Ushbu natijalarni ijobiy holat sifatida baholab bo'lmaydi. Ushbu holat tijorat banklari kapitalini samarali boshqarishdagi mavjud bo'lgan muammo hisoblanadi. Chunki tijorat banklari ustav kapitali nisbatan yuqori barqarorlikka ega bo'lib, bank qiyin moliyaviy holatga tushganda undan asosiy himoya qilish vositasi sifatida foydalanadi. Tijorat banklari ustav kapitali salmog'ini bank passivlari tarkibidagi ulushining barqaror miqdorini ta'minlashga erishish ularning moliyaviy jihatdan baquvvat bo'lishiga xizmat qiladi.

³¹ Tijorat banklarining 01.01.2004 yildagi hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

³² Respublika tijorat banklarining mazkur sanalarga tuzilgan hisobot ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Ustav kapitalini shakllantirishda hamda undan keyingi bosqichlarda uning etarlilikini ta'minlashda oddiy aktsiyalar bank uchun qulay moliyaviy vosita bo'lib hisoblanadi. Oddiy aktsiyalar emissiyasi bank uchun tashqaridan kapitalni jalb qilishning eng qimmat shakli hisoblanadi. Jumladan, aktsiyalarni moliya bozorida joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, oddiy aktsiyalarga to'lanadigan dividendlar miqdorini boshqa qimmatli qog'ozlarga to'lanadigan to'lovlar riskini qayd etib o'tishimiz mumkin. Chunki, bank kelgusida, oddiy aktsiyalardan rejalashtirilgan daromad miqdorini ololmay qolish ehtimoli doimo saqlanib qoladi. Aktsiyadorlarning muomalaga yangidan chiqarilgan aktsiyalarni sotib olish imkoniyati bo'lmaganda, ushbu aktsiyalar bank faoliyati ustidan nazorat yuritish talablarini kamaytiradilar. Agar yangidan chiqarilgan aktsiyaning har biri tegishli miqdorda foyda keltirmasa ularni chiqarish bilan bog'liq xarajatlar bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ayni vaqtda, fikrimizcha, O'zbekiston bank amaliyotida tijorat banklari ustav kapitalining barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi ikki asosiy omil mavjud:

1. Banklarni mas'uliyati cheklangan jamiyatlar (MChJ) shaklida tashkil etishga ruxsat berilmasligi.

O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» gi qonunining 7-moddasiga muvofiq banklar mulkchilikning har qanday shakli asosida aktsiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi. Demak, ma'lum bo'ladiki banklar mas'uliyati cheklangan jamiyat sifatida tashkil etilishiga qonun hujjatlarida ruxsat etilmagan.

2. Bank muassislari bank ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida bank aktsiyadorlari tarkibidan chiqishga haqli emasligi³³.

Respublikamiz tijorat banklarining mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etishga ruxsat berilmaganining asosiy mohiyati shundaki, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar shaklida ta'sis etilgan banklarda ta'sischi moliyaviy yil davomida o'zining ulushini olish huquqiga ega bo'ladi. Bu esa, avvalo, bankning likvidligiga salbiy ta'sir qiladi. Tijorat banklarining asosiy qismi aktsiyadorlik shaklida tashkil etilgan bo'lib, yuqorida qayd etilgan qonunning talabiga muvofiq

³³ O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: «O'zbekiston», 2003. 254- bet.

aktsiyadorlar moliyaviy yil mobaynida o'z ulushlarini talab qilib olishga haqli emaslar. Demak, bank moliyaviy yil davomida aktsiyadorlarning mablag'larini erkin ishlata oladi.

O'zbekiston bank amaliyotida banklarning oddiy va imtiyozli aktsiyalarini sotishdan tushgan mablag'lar tijorat banklari ustav kapitalining asosiy qismini tashkil etadi. Ularning bozor bahosini oshishi ustav kapitali miqdorini va emission daromadlar hajmini oshirish imkonini beradi.

Bank oddiy aktsiyalarining bozor bahosi ijobiy o'zgarishiga moliya bozorida bank aktsiyalariga bo'lgan talabning oshishiga ta'sir qiladi. Imtiyozli aktsiyalarning bozor bahosi esa bankning operatsion foydasi hajmining o'zgarishiga bog'liq. Chunki imtiyozli aktsiyalar uchun belgilangan foizlar operatsion foyda hisobidan to'lanadi.

Markaziy bank tijorat banklarining jami kapitaliga nisbatan 10 foiz miqdorida minimal etarlilik talabi belgilangan bo'lib, ushbu talabni buzilishiga yo'l qo'ymaslik bank kapitalini boshqarishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Asosiy kapitalning minimal darajasi esa 5 foiz qilib belgilangan.

Asosiy kapital qo'shimcha kapitalga nisbatan barqaror moliyalashtirish manbai bo'lganligi sababli kapitalni boshqarish jarayonida unga alohida e'tibor beriladi.

Asosiy kapitalni boshqarish jarayonida uning barqarorligiga, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishga ustuvorlik beriladi. Biz keyingi paragrafda asosiy kapitalni boshqarish amaliyotini qaraganimizda bu masalaga alohida e'tibor beramiz.

Bank kapitalidan foydalanish samaradorligini baholash kapitalni boshqarishning muhim jihatlaridan biri sanaladi. Biz baholash mezonlarini mazkur bo'limning keyingi paragraflarida ko'rib chiqamiz. Bank kapitalidan foydalanish samaradorligini aniqlashda kapitalning qiymatini baholash markaziy masala hisoblanadi.

Lekin, shu narsani alohida ta'kidlash joizki, bank kapitalidan foydalanish samaradorligini baholashda abstrakt mushohadalarga ham sezilarli o'rin ajratiladi. Buning sababi, bank kapitalidan aynan qaysi aktiv operatsiyalarni amalga oshirishda foydalanilayotganligini aniqlashning iloji yo'q. Chunki bank resurslaridan umumiy asosda foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari kapitalini shakllantirish va boshqarishning nazariy asoslarini to'g'ri talqin qilish va bu borada mavjud bo'lgan asosiy muammolarning mohiyatini ochib berish, tijorat banklari kapitalini boshqarishni takomillashtirish tadbirlarini ilmiy jihatdan asoslash uchun jiddiy zamin hozirlaydi.

2.2. Bank kapitalini boshqarishning amaldagi tartibining tahlili

Aavvalgi paragraflarda bank kapitali iqtisodiy mazmuni, tarkibi, boshqarishning nazariy asoslari va uni shakllantirishning amaliyotdagi holati o'rganildi. Ushbu paragrafda tijorat banklari kapitalini boshqarishning amaldagi holati tahlil qilinadi.

Tahlil jarayonida asosiy e'tibor kapitalning tarkibi va dinamikasi hamda uning etarlilik borasidagi asosiy tendentsiyalarni aniqlashga qaratiladi.

Bank kapitalining manbalari va ularning kapital tarkibidagi salmog'i hamda ahamiyati bir-biridan keskin farq qiladi. Xalqaro bank amaliyoti tajribasidan ma'lumki, taqsimlanmagan foyda va zaxiralar miqdori jami kapital salmog'ining 40 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi. Oddiy va imtiyozli aktsiyalarning salmog'i bank jami kapitalining uchdan bir qismini tashkil etadi.

Subordinatsiyalashgan qimmatli qog'ozlar va majburiyatlar bank kapitali tarkibida nisbatan kichik salmoqqa ega. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida subordinatsiyalashgan qimmatli qog'ozlar hozircha mavjud emas. Keyingi paytlarda subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari banklar uchun uzoq muddatli moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bank kapitalini tartibga soluvchi qonun va me'yoriy hujjatlar ushbu qimmatli qog'ozlarni bankning kreditorlari va omonatchilari oldidagi majburiyatlarini bajarishda ko'proq foydalanishga undaydi.

Shunday qilib, agar bank tugatiladigan bo'lsa, uning aktivlari so'ndirilib, omonatchilari birinchi navbatda kompensatsiya oladilar, subordinatsiyalashgan qimmatli qog'oz egalari o'z ulushlarini olish nuqtai nazaridan ikkinchi darajali xuquqqa egadirlar. Lekin ushbu qimmatli qog'oz egalari bankning daromadlarini taqsimlashda oddiy va imtiyozli aktsiya egalariga qaraganda imtiyozga ega bo'ladilar. Shuning uchun, xalqaro bank amaliyotida keyingi yillarda bank kapitali tarkibida subordinatsiyalashgan qimmatli qog'ozlar ulushining oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Odatda, ushbu qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqarilgandan so'ng juda qisqa muddat ichida sarmoyadorlar tomonidan sotib olinadi. To'lanadigan foiz stavkalari qat'iy belgilangan yoki tebranib turuvchi bo'ladi (asosan davlat

qimmatli qog'ozlari yoki qisqa muddatli evrodollar depozitlariga o'rnatilgan foizlar miqdorida).

O'zbekiston tijorat banklari kapitalini boshqarishning amaldagi holatini baholash uchun ularning kapitali tarkibini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda ularning jami kapitali tarkibi va dinamikasini tahlil qilamiz.

2.3-jadval

**Tijorat banklari jami kapitalining
tarkibi va dinamikasi**

(foizda)

T/r	Moddalar	01.01. 2001y.	01.01. 2002y.	01.01. 2003y.	01.01. 2004y.	01.01.2004 yilda 01.01.2001 yilga nisbatan o'zgarishi (punkt)
1.	Ustav kapitali	18,4	14,8	12,4	13,0	-5,4
2.	Emission daromad	0,0	0,0	0,0	0,0	X
3.	Maxsus zaxira	62,7	72,6	76,6	77,0	+14,3
4.	Taqsimlanmagan foyda	9,6	5,8	5,3	5,0	-4,6
5.	Joriy yilning sof foydasi	9,2	6,6	5,5	4,9	-4,3
6.	Qayta baholash zaxirasi	0,1	0,2	0,2	0,1	0,0
7.	Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari	0,0	0,0	0,0	0,0	X
8.	Konsolidatsiyalashgan sho''ba korxonalariga qilingan quyilmalar	0,0	0,0	0,0	0,0	X
Jami kapital – hammasi		100,0	100,0	100,0	100,0	X

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, tijorat banklari kapitalining shakllanishida ustav kapitali va maxsus zaxira muhim o'rin tutadi. Ushbu kapital elementlarining jami kapital hajmidagi yuqori salmog'i yuzaga kelishiga quyidagi omillar ta'sir qiladi.

a) Respublikadagi qator yirik tijorat banklari ustav kapitalining sezilarli qismi xorijiy valyutalarda shakllantirilganligi;

Milliy valyuta almashuv kursining tebranishi sharoitida ustav kapitaliga qo'yilgan xorijiy valyutalar banklarning balansida devalvatsiya zaxirasi miqdorining ko'payishiga olib keladi. Devalvatsiya zaxirasi esa, o'z navbatida, maxsus zaxiraning tarkibiga kiritiladi. Binobarin, maxsus zaxiraning o'sishi yuz beradi.

b) Kichik va xususiy biznes korxonalarini hamda dehqon-fermer xo'jaliklarini imtiyozli kreditlash fondi mablag'larining ko'payishi.

Tijorat banklarida emission daromadning yuzaga kelmayotgani jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinib turibdi. Bu esa banklarning oddiy va imtiyozli aksiyalarini mamlakat qimmatli qog'ozlar bozorida doimiy savdo ob'ektiga aylanmaganidan dalolat beradi. Bizga ma'lumki, rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida emission daromadlar banklarning asosiy kapitali tarkibida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi. Buning boisi, birinchidan, tijorat banklari, qimmatli qog'ozlarning emissiya hajmiga ko'ra, hukumatdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Yuqori darajadagi emissiya hajmi yirik miqdorda emission daromad olish uchun birlamchi asosni yuzaga keltiradi. Bunday holatni AQSh, Yaponiya va Germaniya davlatlarining bank amaliyotida yaqqol kuzatish mumkin. Ikkinchidan, rivojlangan xorijiy davlatlarda tijorat banklarining asosiy qismi to'lovga qobil bo'lgan xo'jalik sub'ektlari sifatida yuqori nufuzga egadir, shuning uchun ham mazkur mamlakatlarning moliya bozorlarida tijorat banklari tomonidan emissiya qilingan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga nisbatan barqaror talab mavjud. 2000 yilning oxiriga kelib xalqaro fond bozorlarida tijorat banklarining aksiyalariga bo'lgan talab keskin oshdi. Ekspertlarning fikriga ko'ra, buning asosiy sababi, hukumat qimmatli qog'ozlarining daromadlik darajasi va bank depozitlarining foiz stavkasining pastligidir.

Hozirgi vaqtda, Xalqaro hisob-kitoblar bankining ma'lumotlariga ko'ra, etakchi industrial davlatlarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi moliyaviy operatsiyalarining 50 foizga yaqin qismi o'nta yirik tijorat bankning hissasiga to'g'ri keladi. Bu o'z navbatida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari bilan bog'liq operatsiyalar ko'lamini kengayishiga xizmat qiladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan mamlakatlar fond birjalarida oldi-sotdi qilinayotgan aksiyalarning qiymati to'g'risida aniq moliyaviy ma'lumotlar mavjud. Bunday sharoitda muomaladagi aksiyalarning qiymati aktsiya chiqarilayotgan vaqtdagi baho bilan uning bozor bahosi o'rtasidagi farqni aniq ajratish imkonini beradi. Aktsiyalarning bozor bahosini oshishiga tijorat banklarning emitent sifatida moliyaviy barqarorligi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ana shu barqarorlikdan kelib

chiqqan holda investorlar aktsiyalardan oladigan daromadlarining miqdorini chamalaydi, agar prognoz ko'rsatkichlari daromadlarning oshishidan guvohlik bersa, u holda mazkur banklarning aktsiyalari bozor bahosi oshadi.

Yangidan emissiya qilingan aktsiyalar o'zida qo'shilgan qiymatga mutanosib bo'lgan ustama qiymatni aks ettirishi lozim. Bu esa yangi aktsiyadorlarga eski aktsiyadorlar bilan teng huquqli asosda bankning sof foydasini taqsimlash jarayonida ishtirok etish huquqini beradi. Bu bilan yangi aktsiyadorlarning mablag'larini muvaffaqiyatli tarzda tijorat banklarining faoliyatiga jalb qilish ta'minlanadi.

Emission daromadlarning shakllanish jarayonini tahlil qilishda nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarni chiqarish va ularni boshqarish masalasi tijorat banklar e'tiboridan chetda qolmoqda. Buning sababi, nokumulyativ imtiyozli aktsiyalar bir vaqtning o'zida qat'iy belgilangan foizlarda daromad keltiradi va o'z egasiga bankning sof foydasini taqsimlashda ishtirok etish huquqini ham beradi. Bu esa bankning aktsiyadorlariga nisbatan e'tiborsizlik sifatida baholanishi mumkin. Chunki nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarning egalari bankning aktsiyadorlari oladigan dividendlarga ham sherik bo'ladilar.

Ushbu masalaning respublikamiz bank amaliyoti uchun ahamiyatga molik jihati shundaki, Markaziy bankning 2000 yil 26 apreldagi 420-sonli «Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talabalar to'g'risida»gi Nizomiga muvofiq, tijorat banklarining nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarini sotishdan tushgan mablag'lar bankning asosiy kapitali tarkibiga kiritiladi. Markaziy bankning talabiga muvofiq, nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarni asosiy kapital tarkibiga kiritish uchun ular quyidagi to'rt xususiyatga ega bo'lishi lozim.

1. Nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarni bank tomonidan qayta sotib olish sanasi va shartlari bo'lmasligi lozim.

2. Ushbu aktsiyalar, egasining xohishiga ko'ra istalgan vaqtda bankka qayta sotilishi mumkin emas.

3. Nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarga to'lanadigan dividendlar aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan to'lanmasligi mumkin.

4. Nokumulyativ imtiyozli aktsiyalar bo'yicha o'tgan yillardan qolib ketgan dividendlar to'lab berilmasligi lozim.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, 2000-2003 yillar mobaynida tijorat banklari jami kapitalining tarkibida ustav kapitalining salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'ldi. Tijorat banklari faoliyatini moliyaviy tahlil qilish talablari nuqtai nazaridan olib qaraganda, bu tendentsiya salbiy hisoblanadi. Chunki xalqaro Bazel qo'mitasi va Jahon banki ekspertlarining, shu jumladan, Kris Barltrop, Diana Mak Notonlarning fikriga ko'ra, bankning ustav kapitali jami kapital tarkibiga nisbatan eng barqaror moliyalashtirish manbaidir. Albatta, bu erda gap ustav kapitalining to'langan qismi haqida ketmoqda. Shu sababli, tijorat banki ustav kapitali salmog'ining pasayish tendentsiyasiga ega ekanligi bank kapitalini boshqarishdagi jiddiy kamchiliklardan biri sifatida ta'kidlash mumkin.

Buning ustiga, yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston Respublikasi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, bank aktsiyadorlari ustav kapitalidagi o'zlarining ulushlarini moliyaviy yil tugagunga qadar olishga haqli emaslar.

Bank aktsiyadorlarining nuqtai nazaridan olib qaraganda bankning oddiy aktsiyalarini sotib olishga sarflangan mablag'lar aktsiyadorlar uchun yuqori riskli kapital hisoblanadi. Chunki aktsiyadorlar oddiy aktsiya uchun faqat dividend oladilar. Dividend esa bankning sof foydasi hisobidan to'lanadi. Holbuki, bankning istalgan majburiy to'lovlari va zaxiralari miqdori moliyaviy yil davomida keskin o'zgarishi mumkin. Masalan, muddati o'tgan kreditlar miqdorining o'zgarishi kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining o'sishiga olib keladi. Bu holat bankning operatsion foydasi hajmini qisqartiradi yoki soliqqa tortish bazasining va soliq stavkasining o'zgarishi natijasida bankning soliq to'lovlarini o'zgarishiga olib keladi. Agar soliq bazasi kengaysa va soliq stavkasi ko'tarilsa, bankning soliq to'lovlari shaklidagi xarajatlar miqdori oshadi. Pirovardida, tijorat bankining operatsion foydasi miqdorini kamayishiga olib keladi. Demak, bankning oddiy aktsiyalarining egalari, bir tomondan, kam dividend olish xavfiga duchor bo'lsalar, ikkinchi tomondan, aktsiyalarning bozor bahosining pasayishi orqali bankning barcha zararida ishtirok etadilar.

Ma'lumot natijalaridan ko'rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida tijorat banklari taqsimlanmagan foydasining jami kapital tarkibidagi salmog'i nobarqaror

bo'lgan. 2003 yilda 2000 yilga nisbatan taqsimlanmagan foyda salmog'ining sezilarli darajada pasayishi kuzatilgan. Bizning fikrimizcha, taqsimlanmagan foyda salmog'ining pasayishini salbiy holat sifatida baholab bo'lmaydi, buning sababi birinchidan, taqsimlanmagan foyda miqdorini rejalashtirishning iloji yo'q. Chunki uning miqdori aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilanadi, ikkinchidan, taqsimlanmagan foyda salmog'ining kichikligi yoki taqsimlanmagan foydaning yuzaga kelmasligi aktsiyadorlarga to'lanadigan dividendlar miqdorining oshishi natijasida bo'lishi ham mumkin. Bunday holatda dividendlar miqdorining oshishi oddiy aktsiyalar bozor bahosining oshishi uchun muhim omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Bankning taqsimlanmagan foydasi, mohiyatiga ko'ra, foydaning mutlaq ozod qoldig'i bo'lib, undan bankning o'tgan yillardagi zararlarini qoplashda, foyda hisobidan voz kechilayotgan foizlarni balansdan chiqarishda foydalanilishi mumkin. Masalan, O'zbekistonda foizlarni o'stirmaslik siyosati qo'llanilayotgan kreditlarga nisbatan foizlarni o'stirmaslik muddati keyingi moliyaviy yilda tugagan taqdirda, hisoblangan, lekin undirilmagan foizlar miqdori taqsimlanmagan foyda hisobidan kechiladi. Agar foizlarni o'stirmaslik muddati joriy moliyaviy yilning o'zida tugasa, u holda hisoblangan, lekin undirilmagan foizlar tegishli foizli daromadlar hisobvarag'idagi mablag'lar hisobidan kechiladi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2000-2003 yillar mobaynida tijorat banklarining joriy yildagi sof foydasining jami kapital hajmidagi salmog'i pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Bu salbiy holat hisoblanadi. Chunki, birinchidan, joriy yilning sof foydasi tijorat banklarining ikkinchi darajali kapitali tarkibidagi asosiy element hisoblanadi; ikkinchidan, joriy yildagi sof foyda miqdorining kamayishi bankning operatsion va foizli xarajatlar miqdorining oshib borayotganligidan dalolat beradi. Buning natijasida tijorat bankining moliyaviy imkoniyati cheklanib qoladi; uchinchidan, bankning qo'shimcha kapital bazasi zaiflashadi.

2000-2003 yillar mobaynida, tijorat banklari jami kapitali tarkibida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarning yuzaga kelmaganligi, ularning o'rta va uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning qulay vositasidan foydalanmaganidan dalolat beradi.

Masalaning mohiyati shundaki, tijorat banklari deyarli barcha mamlakatlarda, avvalo, qisqa muddatli kreditlash institutlari hisoblanadi. Shuning uchun ham ularning balansi passivida qisqa muddatga jalb qilingan resurslar asosiy o'rinni egallaydi. Bunday sharoitda tijorat banklari uchun o'rta yoki uzoq muddatli resurslar jalb qilishning kam xarajatli sinalgan usuli bo'lib subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini chiqarish hisoblanadi.

Tijorat banklar kapitalini boshqarishning amaldagi holatini tahlil qilish jarayonini chuqurlashtirish maqsadida nomlari shartli ravishda olingan «Absolyut» va «Sifat» tijorat banklari jami kapitalining tarkibi va dinamikasini boshqarish amaliyotini ko'rib chiqamiz.

2.4-jadval

**«Absolyut» tijorat banki jami kapitalining
tarkibi va dinamikasi**

(foizda)


T/r	Ko'rsatkichlar	01.01. 2001y.	01.01. 2002y.	01.01. 2003 y.	01.01. 2004 y.	01.01.2004yilda 01.01.2001 yilga nisbatan o'zgarishi. (punkt)
1.	Ustav kapitali	6,2	7,5	5,5	5,1	-1,1
2.	Emission daromad	0,0	0,0	0,0	0,0	X
3.	Maxsus zaxira	71,0	80,9	85,3	88,5	+17,5
4.	Taqsimlanmagan foyda	14,3	7,8	6,7	4,4	-9,9
5.	Joriy yilning sof foydasi	8,5	3,8	2,5	2,0	-6,5
6.	Qayta baholash zaxirasi	0,0	0,0	0,0	0,0	X
7.	Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari	0,0	0,0	0,0	0,0	X
8.	Konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan quyilmalar	0,0	0,0	0,0	0,0	X
Jami kapital – jami			100,0	100,0	100,0	

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, 2000-2003 yillar mobaynida «Absolyut» bankining jami kapitali tarkibida ustav kapitali salmog'ining sezilarli

darajada pasayishi yuz bergan. Buning asosiy sababi tahlil qilingan davr mobaynida maxsus zaxira salmog'ining yuqori darajada o'sishi kuzatilgan. Bu o'sishning tub sabablarini aniqlash uchun 2.2-diagramma ma'lumotlaridan foydalanamiz. Shuningdek, tahlil qilingan hisobot davrida «Absolyut» bankining joriy yil sof foydasi ham kamayib borish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Sof foydaning kamayib borishi bankning hisobot davridagi operatsion xarajatlarning oshib borayotganidan dalolat beradi.

2.2-diagramma

**«Absolyut» banki maxsus zaxiralarning
2004 yilning 1 yanvar holatiga bo'lgan tarkibi³⁴**



Demak, «Absolyut» tijorat bankida maxsus zaxiraning o'sishi devalvatsiya zaxirasi summasining o'sishi bilan izohlanadi. Chunki maxsus zaxiraning mutlaq asosiy qismi devalvatsiya zaxirasi miqdoridan iboratdir. O'z navbatida, devalvatsiya zaxirasi yirik miqdorda ekani va o'sish sur'atining yuqoriligi milliy valyuta –

³⁴«Absolyut» tijorat bankining 01.01.2001 yil holatiga tuzilgan hisoboti asosida tayyorlandi.

soʻmning almashuv kursini 2001-2003 yillarda sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlanadi.

«Absolyut» tijorat bankining jami kapitali tarkibidagi maxsus zaxirasining oʻsib borishini 2.4-jadval maʼlumotlaridan aniqladik va uning tub sabablarini aniqlash uchun 2.2-diagramma maʼlumotlaridan foydalandik.

«Absolyut» tijorat banki jami kapitalini boshqarish amaliyotini Markaziy bankning «Tijorat banklari kapitalining etarililigiga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisida» gi 420-sonli yoʻriqnomasi talablaridan kelib chiqqan holda, quyidagi tarzda baholadik.

Hozirgi vaqtda bankning jami kapitali va asosiy kapitaliga Markaziy bank tomonidan qoʻyilgan talablar toʻliq bajarilmoqda. Bank ustaviga koʻra, bankning ustav kapitali respublika byudjeti mablagʻlari va bank foydasini kapitallashtirish hisobidan shakllantiriladi.

«Absolyut» tijorat banki ustaviga muvofiq hamda amaldagi qonunchilikka asosan soliqlar toʻlangach va fondlarga ajratmalar ajratilgach daromadlar Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan maqsadlar uchun ishlatiladi. Bank Kengashi esa bank faoliyatining yillik natijalarini tasdiqlaydi, bank Boshqaruvining tavsiyasiga koʻra daromadlarni, shuningdek, zararlarni qoplash tartibini tasdiqlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 24 martdagi «Bank tizimini isloh qilishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida» gi 104-sonli qarorining 1-ilovasi «2000-2003 yillarda Oʻzbekiston bank tizimini isloh qilish Dasturi» da 2000-2001 yillarda bank aktsiyalarining 40 foizini xorijiy investorlarga sotilishi koʻzda tutilgan edi.

«Absolyut» tijorat banki aktsiyalarini xorijiy investorlarga sotilishi bankning balansida emission daromadlarning yuzaga kelishiga sabab boʻlishi mumkin. Ammo, hozircha, bank kapitalining tarkibida emission daromadlar mavjud emas.

Yuqorida qayd etganimizdek, 2000-2003 yillar mobaynida bank kapitalining tarkibida joriy yilning sof foydasi salmogʻining pasayish tendentsiyasiga ega boʻlganligi bankning foizli va operatsion xarajatlari miqdorining keskin oʻsayotganidan dalolat beradi. Bunday sharoitda bank aktsiyalarining bozor bahosini oshirib boʻlmaydi.

«Absolyut» tijorat banki jami kapitali tarkibida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarining mavjud emasligi bank tomonidan o'rta va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish borasida sezilarli ishlarni amalga oshirilmaganidan dalolat beradi. Shuningdek, bankning jami kapitali tarkibida konsolidatsiyalashgan sho''ba korxonalariga qilingan quyilmalar ham mavjud emas. Bu esa bankning qoshida turli shakldagi kredit muassasalarini ochish amaliyotining yo'qligidan dalolat beradi.

Endi yirik banklardan biri «Sifat» tijorat bankining kapitalini tarkibini ko'rib chiqamiz.

2.5-jadval

«Sifat» tijorat banki jami kapitalining tarkibi va dinamikasi

(foizda)

T/r	Ko'rsatkichlar	01.01.2001y.	01.01.2002y.	01.01.2003y.	01.01.2004y.	01.01.2004 yilda 01.01.2001 yilga nisbatan o'zgarishi (punkt)
1.	Ustav kapitali	42,0	40,6	33,5	28,2	-13,8
2.	Emission daromad	0,0	0,0	0,0	0,0	X
3.	Maxsus zaxira	21,4	27,7	36,0	41,0	+19,6
4.	Taqsimlanmagan foyda	16,7	12,1	11,2	14,1	-2,6
5.	Joriy yilning sof foydasi	19,6	19,4	19,0	16,6	-3,0
6.	Qayta baholash zaxirasi	0,3	0,2	0,3	0,1	-0,2
7.	Subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari	0,0	0,0	0,0	0,0	X
8.	Konsolidatsiyalashgan sho''ba korxonalarga qilingan quyilmalar	0,0	0,0	0,0	0,0	X
Jami kapital – jami		100,0	100,0	100,0	X	

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, «Sifat» tijorat bankida tahlil qilingan davr mobaynida ustav kapitalining jami kapital hajmidagi salmog'i pasayish tendentsiyasi kuzatilgan. Bu salbiy holat hisoblanadi. Chunki, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ustav kapitali nisbatan barqaror moliyalash manbaidir. Bizning fikrimizcha, ustav kapitali salmog'ining 2004 yilda 2001 yilga nisbatan 13,8 punktga pasayishi sezilarli darajadagi pasayish hisoblanadi. Bu esa bank asosiy kapitalining sifat darajasi salbiylashganidan dalolat beradi.

Tahlil qilingan davr mobaynida, maxsus zaxiraning bank jami kapitalidagi salmog'i 19,6 punktga oshishi yuz berdi. Bu oshish, asosan, kapital zaxirasi va imtiyozli kreditlash fondining o'sishi hisobiga yuz berdi. Chunki bankning maxsus

zaxirasi ana shu ikki elementdan tashkil topadi, tahlil qilingan davrda esa devalvatsiya zaxirasi mavjud bo'lmagan. Xususan, 2002 yilda bank maxsus zaxirasining 54 foizi kapital zaxirasi hissasiga, 46 foizi esa imtiyozli kreditlash fondining hissasiga to'g'ri keldi. Bu esa bankni kichik va o'rta biznes korxonalarini kreditlashga alohida e'tibor berayotganidan dalolatdir.

Bankning 2004 yilda yildagi sof foydasi 2001 yilga nisbatan salmoq jihatidan sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Bu esa, fikrimizcha, salbiy holat hisoblanadi va bankning foizli va operatsion xarajatlari miqdorining oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Boshqa yirik tijorat banklaridagi kabi «Sifat» tijorat bankida ham emission daromadlar, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari va konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan quyilmalar mavjud emas.

Endi biz tahlil ob'ekti sifatida O'zbekiston-Gollandiya qo'shma banki, ya'ni O'zABN Amro bankni olamiz. Buning sababi qo'shma banklar faoliyati boshqa tijorat banklari faoliyatidan farq qiluvchi ayrim o'ziga xos jihatlarga ega. Masalan, bir qator qo'shma banklarda bank kapitali o'rniga uning o'rnini bosuvchi boshqa ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar odatda normativ xarakterga ega bo'ladi. Xususan, XX asrning etmishinchi yillarida Nyu Yorkda ochilgan xorijiy banklarning filiallari va qo'shma banklar uchun «108 talabi» qo'llanilar edi. Ushbu talabga ko'ra banklarning aktivlari passivlarning 108 foizidan kam bo'lmasligi kerak edi.

Qo'shma banklar faoliyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri ularning xorijiy bosh bank bilan o'zaro hisob-kitoblar tizimi takomillashgan bo'lib, banklararo munosabatlarda yuzaga keladigan bank xizmati turlaridan keng ko'lamda foydalanadi. Masalan, O'zbekiston tijorat banklari tomonidan ochiladigan ta'minlanmagan import akkreditivlarini xorijiy banklar tomonidan ma'qullanishi murakkab jarayon hisoblanadi. Ammo qo'shma banklar uchun bunday muammo yo'q. Chunki ular tomonidan ochilgan akkreditivlar bosh bank tomonidan tasdiqlanadi yoki qo'shma banklar bosh bankning yuqori reputatsiyasi evaziga ta'minlanmagan akkreditiv ochish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'z ABN Amro bank jami kapitalining tarkibi

T/r		01.01.2000y.	01.01.2002y.	(foizda)
				O'zgarishi. (punkt)
1.	Asosiy kapital	75,9	82,2	+6,3
2.	Qo'shimcha kapital	24,1	17,8	-6,3
3.	Kapitaldan chegirmalar	-	-	-
Jami kapital		100,0	100,0	X

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mazkur bankda jami kapitalning asosiy qismini asosiy kapital tashkil qiladi. Xuddi shunday holatni O'zbekistonning yirik tijorat banklarida ham kuzatish mumkin. Tahlil qilingan davr mobaynida O'zABN Amro bank asosiy kapitalining jami kapital hajmidagi salmog'ini sezilarli darajada, ya'ni 6,3 punktga o'sganligi kuzatildi. Bu esa bank kapitalining sifat jihatdan yaxshilanganidan dalolat beradi.

Bankning asosiy kapitalining o'sishi devalvatsiya zaxirasi va taqsimlanmagan foydaning o'sishi hisobiga yuz berdi. Xususan, 2002 yilning 1 iyul holatiga kelib, 2002 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan devalvatsiya zaxirasi 527,4 ming so'mga, taqsimlanmagan foyda esa 1488,5 ming so'mga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi «Aktsiyadorlik jamiyatlar va aktsiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida» gi qonunining 20-moddasiga asosan, aktsiyadorlik jamiyati davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng, uning ustav kapitalini ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan miqdorda shakllantirilishi bir yildan oshmasligi, 33-moddasi talabiga binoan esa, ta'sis majlisida belgilangan muddatda, lekin jamiyat ro'yxatdan o'tgandan so'ng bir yildan kechiktirmasdan aktsiyalarini to'la sotib olishi lozim.

Tijorat banklari kapitalini boshqarishda, kapitalning etarlilik masalasi markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Quyida «Absolyut», «Sifat» va ABN Amro banklarining asosiy kapitalini, ya'ni birinchi darajali kapitalining etarlilik darajasini ko'rib chiqamiz.

«Absolyut», «Sifat» va O'zABN Amro banklarining asosiy kapitalini etarliligiga nisbatan qo'yilgan talabning 2002 yilning 1 yanvar holatiga bajarilishi

Asosiy kapitalning etarliligi koeffitsientini (AKEK) aniqlash metodikasi	Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal daraja miqdori	«Absolyut» tijorat bank	«Sifat» tijorat bank	O'zABN Amro bank
AKEK =kapitalning umumiy summasi / tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasi	0,05	0,35	0,26	0,75

Mazkur paragrafning 2.3 va 2.4–jadval ma'lumotlaridan ma'lumki yirik tijorat banklarda asosiy kapital jami kapitalning mutlaq asosiy qismini tashkil etadi. Masalan, 2003 yilning 1 yanvar holatiga «Absolyut» tijorat bankining jami kapitali tarkibida asosiy kapitalning salmog'i 98,0 foizni, «Sifat» bankida esa 83,3 foizni tashkil etdi. Shu sababli ham barcha yirik tijorat banklarida asosiy kapitalning etarlilik darajasi juda yuqoridir.

Rivojlanayotgan davlatlarda rivojlangan industrial davlatlardan farqli o'laroq, tijorat banklarining aktivlari tarkibida yuqori riskli aktivlar nisbatan kichik salmoqni egallaydi. Jumladan, rivojlanayotgan davlatlarning tijorat banklarida yuqori likvidli, ammo past risk darajasiga ega bo'lgan aktivlar yuqori salmoqni egallaydi. Shuning uchun ham mazkur davlatlarda bank jami kapitalining va asosiy kapitalining etarlilik darajasi yuqoridir.

Xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan 1998 yilda ishlab chiqilgan bank kapitalining etarlilik koeffitsienti bank kapitalini riskka tortilgan aktivlar miqdoriga nisbati bilan ifodalanadi. Ana shu jihatdan olib qaraganda, O'zbekiston tijorat banklarining jami aktivlari tarkibida yuqori riskli aktivlar miqdorining pastligi banklarning riskka tortilgan aktivlari miqdorining kichik bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Bazel andozalaridan oldingi andozalarda aktivlarning risk darajasiga ko'ra farqlash mumkin emas edi. Unga muvofiq, tijorat banklarning jami va asosiy kapitalining etarliligi riskka tortilgan aktivlarga nisbatan aniqlanishining joriy qilinishi tijorat banklarning aktivlarini yo'qotishini oldini olishga hamda ularning bankrot bo'lish ehtimolini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, birinchidan, tijorat banklari jami kapitalining asosiy qismi asosiy kapitaldan tashkil topmoqda, asosiy kapital esa, asosan, maxsus zaxira va ustav kapitalidan iboratdir; ikkinchidan, O'zbekiston tijorat banklarining qo'shimcha kapital bazasi juda zaifdir; uchinchidan, O'zbekiston tijorat banklari jami kapitali va asosiy kapitaliga nisbatan Markaziy bank tomonidan qo'yilgan talablar yuqori darajada bajarilmoqda, bu esa, banklarning riskka tortilgan aktivlari miqdorining nisbatan kichik ekanligidan dalolat beradi.

2.3. Bank kapitalini boshqarish samaradorligining asosiy mezonlari

Tijorat banki kapitalining iqtisodiy mazmuni va uni shakllantirish manbalarini tadqiq qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, bank kapitali moliyaviy barqaror manbai hamda banklarning operatsion faoliyatida kutilmaganda yuzaga keladigan xarajatlar va zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir. Kapital bankka iqtisodiy konyunkturaning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan yangi iqtisodiy sharoitga moslashish imkonini beruvchi moliyalashtirish manbaidir.

Kapital bankning kredit munosabatlari natijasida yo'qotishi mumkin bo'lgan risklaridan himoyalashning muhim vositasidir. Tijorat banklarida iqtisodiy risklarning asosiy turi kredit riskidir. Chunki tijorat banklarining birlamchi va asosiy vazifasi kredit munosabatlarini tashkil etish hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida asosan ta'minlanmagan kreditlar beriladi, ushbu mamlakatlarda garovli kreditlar berish amaliyotidan deyarli voz kechilgan. Natijada, bank uchun kredit riski doimo saqlanib qoladi va berilgan kreditlarning hamda ularga hisoblangan foizlarning ma'lum qismi o'z vaqtida qaytmaslik holatlari bank amaliyotida tez-tez uchraydi. Bunday sharoitda bank kapitali kredit risklaridan yo'qotish ehtimolini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, tijorat banklari likvidlik riskini boshqarishda bank kapitalidan foydalaniladi. Likvidlik riski deganda, bankning o'z majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan miqdorda likvidli mablag'larga ega bo'lmay qolish xavfi tushuniladi. Likvidlik riski bankning reputatsiyasiga salbiy ta'sir qiladi va mijozlarning bankdan ketib qolishiga sabab bo'ladi. Ushbu holatda bank kapitali likvidlik riskini pasaytirishga xizmat qiladi.

Kapitalning yuqorida qayd etilgan xususiyatlari uni boshqarish samaradorligini belgilovchi birlamchi mezonlarini aniqlash imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, bank kapitalining birlamchi boshqarish mezoni sifatida quyidagi ikki ko'rsatkichni olish mumkin:

- 1) bank jami kapitali etarliligining barqaror darajasini ta'minlash;
- 2) bank kapitalining nisbatan barqaror qismi bo'lgan asosiy kapitalning etarlilik darajasining barqarorligini ta'minlash.

Tijorat banki jami kapitali etarliligining barqarorligini ta'minlashni tahlil qilish uchun bu ko'rsatkichning oylik, choraklik va yillik davrlardagi o'zgarishini o'rganish lozim.

O'zbekistonning qator yirik tijorat banklarida jami kapital etarliligining darajasini o'rganish uchun quyidagi jadval ma'lumotlariga murojaat qilamiz.

2.9-jadval

**Yirik tijorat banklarida jami kapitali
etarlilik darajasining (kapitalning adekvatlilik
koeffitsienti) ta'minlanishi**

T/r	Banklar	01.01. 2000 y.	01.01. 2001 y.	01.01. 2002 y.	01.01.2002 yilda 01.01.2000 yilga nisbatan o'zgarishi
1.	TIF milliy banki	0,23	0,41	0,35	+0,12
2.	«O'zsanoatqurilishbank»	0,35	0,26	0,31	-0,04
3.	«O'zpaxtabank»	0,26	0,41	0,41	+0,15
4.	«Asakabank»	0,32	0,71	0,66	+0,34
5.	«O'zuyjoyjamg'armabank»	0,35	0,35	0,36	+0,01
6.	«G'allabank»	0,17	0,23	0,24	+0,07

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida barcha yirik tijorat banklarida jami kapitalning etarliligiga nisbatan Markaziy bank tomonidan qo'yilgan minimal talab bajarilgan.

«O'zuyjoyjamg'armabank» va «G'allabank» da jami kapital etarliligining barqaror darajasiga erishilgan. «O'zsanoatqurilishbank» tijorat bankida 2002 yilning 1 yanvar holatiga jami kapital etarlilik darajasining ta'minlanishi 2000 yilning 1 yanvar holatiga nisbatan 0,04 punktga pasaygan. Bu sezilarsiz darajadagi pasayish bo'lib, mazkur bankda jami kapital etarliligining ta'minlanishi barqaror degan xulosani shakllantirish imkonini beradi.

TIF milliy banki, «Paxta Bank» va «Asaka» bankda jami kapitalning etarlilik darajasini sezilarli miqdorda oshganligi kuzatildi. Bu holat kapitalning adekvatlilik nuqtai nazaridan olib qaraganda ijobiy holat hisoblanadi. Lekin tijorat bank faoliyatining samaradorligi nuqtai nazaridan olib qaraganda salbiy holat sifatida ham baholanishi mumkin. Chunki tijorat banki aktivlari tarkibida yuqori riskli aktivlar salmog'ining nisbatan kichikligi jami kapital etarlilik darajasini nisbatan yuqori bo'lishiga olib keladi. Aktivlarning risk darajasi yuqori bo'lsa, ularning daromadlik

darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham jami kapital etarliligining yuqori darajasi bank aktivlari daromadligini past darajada ekanligidan dalolat berishi mumkin.

Jami kapitalning nisbatan barqaror qismi bo'lib asosiy kapital hisoblanadi. Shuning uchun ham bank kapitalini boshqarish samaradorligini belgilovchi birlamchi mezonlardan biri asosiy kapitalni etarlilik darajasi barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

Tijorat banklarining asosiy kapitali jami kapital tarkibida sezilarli darajada yuqori salmoqni egallaydi, bu esa ularga asosiy kapitalning etarliligiga qo'yilgan talabni bajarishga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, tijorat banklarining asosiy kapitali tarkibida ustav kapitalining ulushi kamayib borish tendentsiyasiga ega bo'lib, buni salbiy holat sifatida baholash mumkin. Tijorat banklari asosiy kapitalining tarkibida ustav kapitali ulushining kamayib borish tendentsiyasiga ega ekanligining bosh sabablaridan biri devalvatsiya zaxirasi hisoblanadi. Chunki tijorat banklari asosiy kapital tarkibidagi devalvatsiya zaxirasi ulushining doimiy ravishda o'sib borishi evaziga Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan asosiy kapitalning etarligiga qo'yilgan talabni bajarishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

2.10-jadval

Yirik tijorat banklarida asosiy kapitalning etarlilik darajasini (asosiy kapitalning adekvatlilik koeffitsienti) ta'minlanishi

T/r	Banklar	01.01. 2000 y.	01.01. 2001 y.	01.01. 2002 y.	01.01.2002 yilda 01.01.2000 yilga nisbatan o'zgarishi
1.	TIF milliy banki	0,18	0,40	0,35	+0,17
2.	«O'zsanoatqurilishbank»	0,35	0,21	0,26	-0,09
3.	«Paxta Bank»	0,25	0,34	0,33	+0,08
4.	«Asakabank»	0,25	0,67	0,64	+0,39
5.	«O'zuyjoyjamg'armabank»	0,33	0,35	0,34	+0,01
6.	«G'allabank»	0,12	0,19	0,20	+0,08

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, barcha yirik tijorat banklarida asosiy kapitalning etarligiga nisbatan Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan minimal talab bajarilgan.

«Paxta Bank», «O'zuyjoyjamg'armabank» va «G'allabank» da ushbu ko'rsatkichning barqaror darajasini saqlab qolishga muvaffaq bo'lingan. «TIF» milliy banki va «Asaka» bankda tahlil qilingan davr mobaynida asosiy kapital etarligining sezilarli darajada o'sishi kuzatilgan. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur har ikkala bankda ustav kapitaliga qo'yilgan xorijiy valyutadagi mablag'lar asosiy kapital tarkibida sezilarli salmoqni egallaydi. So'nggi yillarda milliy valyuta kursining sezilarli darajada pasayishi ushbu banklarda devalvatsiya zaxirasi miqdorining ma'lum darajada o'sishiga olib keldi. Buning natijasida bankning asosiy kapitali sezilarli darajada o'sdi.

Bank kapitalini boshqarish samaradorligining ikkilamchi mezonlari kapitaldan resurs sifatida foydalanish zaruriyati bilan belgilanadi.

Tijorat banki kapitali moliyalashtirish manbai sifatida bankning operatsion faoliyatida ishlatiladi. Ayniqsa, bank tomonidan yangi moliyaviy xizmat turlari o'zlashtirilayotgan paytda, bank filiallari uchun binolar va uskunalar sotib olinayotgan paytda kapitaldan foydalanishning ahamiyati oshadi. Tijorat banki mijozlarga kapital hisobidan qulay foiz stavkalarida kreditlar berish imkoniyatiga egadirlar.

Bank kapitalidan resurs sifatida foydalanilganda uning samaradorligini belgilovchi asosiy mezon daromadlik hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bank kapitalidan resurs sifatida foydalanish samaradorligini bevosita aniqlashning iloji yo'q, shu sababli u bilvosita aniqlanadi. Bank kapitalining daromadligini bevosita aniqlashning iloji yo'qligini ikki asosiy sababi mavjud:

-birinchidan, bank kapitali bank resurslari umumiy tarkibida hisobga olinadi va resurs sifatida umumiy asosda ishlatiladi. Ya'ni, kapital hisobidan aynan qaysi aktiv turi moliyalashtirilayotganligini aniqlashning iloji yo'q.

-ikkinchidan, bank kapitali tijorat banki resurslari umumiy hajmida kichik salmoqni egallaydi. Masalan, respublikamiz tijorat banklarida ushbu ko'rsatkich

1999 yil 1 yanvar holatiga 13,6 foiz, 2001 yil 1 yanvar holatiga 14,5 foiz, 2002 yil 1 yanvar holatiga 14,2 foizni tashkil qildi³⁵.

Bank kapitali daromadligini aniqlashda choraklik davriy oraliqlardagi darajasini solishtirish orqali uning dinamikasi aniqlanadi. Agar har bir so'mlik kapitalga to'g'ri keladigan daromad miqdori barqaror bo'lsa yoki oqilona o'sish (3-5 foiz) tendentsiyasiga ega bo'lsa, bu ijobiy holat hisoblanadi. Agar daromadlik miqdori pasayish tendentsiyasiga ega bo'lsa, bu salbiy holat hisoblanadi.

Mazkur ko'rsatkich 2001 yilning 31 dekabr holatiga, «O'zsanoatqurilishbank» da 90,2 foizni, TIF milliy bankida 53,3 foizni, «O'zuyjoyjamg'armabank» da 65,4 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar 2002 yil 31 dekabr holatiga ko'ra, mos ravishda 85,3 foiz, 40,3 foiz va 63,0 foizni tashkil qildi.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, «O'zsanoatqurilishbank» va TIF milliy bankda tahlil qilingan davr mobaynida mazkur ko'rsatkichni sezilarli darajada pasayishi kuzatilgan. Buning asosiy sababi, har ikkala bankda jami kapitalning o'sish sur'ati yalpi daromadning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligidir. 2001-2002 yillar mobaynida «O'zsanoatqurilishbank» da yalpi daromadning o'sish sur'ati 27,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, jami kapitalning o'sish sur'ati 38,1 foizni tashkil qildi. TIF milliy bankida esa, bu ko'rsatkichlar mos ravishda 43,5 foiz va 89,7 foizni tashkil etdi³⁶.

Bank amaliyotida kapitalning samaradorligini baholashda bir so'mlik ustav kapitaliga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun yalpi daromad summasi ustav kapitali summasiga bo'linadi va natija 100 foizga ko'paytiriladi.

2002 yilning 31 dekabr holatiga, mazkur ko'rsatkich «O'zsanoatqurilishbank»da -214,8 foizni, TIF milliy bankida -863,2 foizni, «O'zuyjoyjamg'armabank» da -264,2 foizni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkichlar 2001 yilning 31 dekabriga, mos ravishda 210,1 foiz, 535,1 foiz va 284,0 foizni tashkil qildi.

³⁵ Mazkur tijorat banklarining 01.01.2001-01.01.2002 yy. holatiga tuzilgan hisobotlari asosida hisoblandi.

³⁶ Mazkur tijorat banklarining 01.01.2001-01.01.2002 yy. holatiga tuzilgan hisobotlari asosida hisoblandi.

Har uchala bankda mazkur ko'rsatkichni yuqori darajada ekanligi tijorat banklari ustav kapitali passivlar umumiy hajmidagi salmog'ining sezilarli darajada yuqori emasligi bilan izohlash mumkin.

Tijorat banklari kapitalining samaradorligini tahlilida ularning joriy yildagi sof foydasining darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Joriy yilning sof foydasi deganda, odatda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lab bo'lingandan keyin qolgan foyda tushuniladi. Lekin ayrim banklarda majburiy to'lovlarning asosiy qismi to'lanmasdan, ularning joriy yil foydasi tarkibida ko'rsatish hollari mavjud bo'ladi. Masalan, frantsuz bank tizimi an'analari asosida faoliyat yuritayotgan banklarda majburiy to'lovlar to'langunga qadar balans tuziladi. Bunday banklarda yil davomida to'plangan foydaning yirik miqdorda balansda aks etishi yuz beradi. Ko'pchilik tijorat banklarda joriy yil foydasini aniqlashda barcha majburiy to'lovlar miqdori chegirib tashlanadi. Shuning uchun bu banklarning balansida aks etadigan foyda miqdori faqat foydaning ozod qoldig'i hisoblanadi.

Tijorat banklari xorijiy sarmoya ishtirokidagi banklarni va sho'ba banklarni tashkil etishda o'z mablag'lari hisobidan ularning qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadlarida ham foydalanadi. Bunday sharoitda bankning o'z mablag'laridan foydalanish samaradorligini aniqlashda uchinchi usuldan ham foydalaniladi. Ushbu usul qimmatli qog'ozlardan olinadigan foizlar va dividendlarning miqdorini bank kapitali miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich, yuqoridagi ko'rsatkichlar kabi foizda aks ettirilganligi uchun olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarishning samaradorligini aniqlashda bank kapitalining bozor qiymatini aniqlash usuli muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank kapitalining bozor qiymatini hisoblash uchun bir qator usullardan foydalaniladi. Lekin bizning fikrimizcha, qo'llanilayotgan asosiy ko'rsatkichlarni ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan olganda, bank kapitalining umumiy bozor qiymatini aniqlashni quyidagi usulini qo'llashdan boshlash lozim:

Bank kapitalining bozor qiymati = bank aktivlarining bozor qiymati – bank majburiyatlarining bozor qiymati.

Ushbu mantiqqa rioya qilgan holda bank kapitalining haqiqiy bozor bahosini quyidagi formula asosida aniqlash maqsadga muvofiqdir:

Bank kapitalining bozor qiymati = chiqarilgan aktsiyalarning joriy kurs qiymati \times chiqarilgan aktsiyalarning soni.

Ushbu usul yirik banklarning kapitalini dinamik tarzda baholash uchun juda qulay hisoblanadi. Lekin yirik banklar kapitaliga nisbatan bu usulni qo'llash uchun bitta majburiy shart bajarilishi lozim, u ham bo'lsa ushbu banklarning aktsiyalari moliya bozorida doimiy ravishda oldi-sotdi qilinishi kerak.

Bank kapitalining bozor bahosi kapitalning bankni qay darajada og'ir inqiroz holatlaridan qutqara olish darajasini ko'rsatadi. Agar bankning moliyaviy holati barqaror bo'lsa, u holda mijozlar uning aktsiyalarini doimiy ravishda sotib oladilar va aksincha, bankning bankrot bo'lish xavfi yuzaga kelgan bo'lsa, uning aktsiyalarining bozor bahosi pasayadi. Moliya bozori, ayniqsa, ikkilamchi moliya bozori hali rivojlanib ulgurmagan O'zbekiston Respublikasi sharoitida bank kapitalining bozor qiymatini baholash qiyin kechadi.

Tijorat banklari kapitalining bozor bahosini o'zgarishiga siyosiy kuch bevosita ta'sir qiladi. Agar siyosiy risk darajasi yuqori bo'lsa, bu qimmatbaho qog'ozlari emitentlarining, shu jumladan tijorat banklarining aktsiyalari bozor bahosi pasayadi. Bu esa bank kapitalidan samarali foydalanishga salbiy ta'sir qiladi.

Xalqaro Bazel qo'mitasi 2000 yildan boshlab siyosiy riskni emitentlarning aktsiyalarini bozor bahosiga nisbatan yuzaga keltiradigan salbiy ta'sirini ma'lum darajada yumshatishga muvaffaq bo'ldi. Ya'ni, tijorat banklari kapitalini tartibga solish tizimiga jiddiy o'zgartirish kiritildi: mijozning kredit riskini aniqlashda uning kredit reytingi hisobga olinadigan bo'ldi. Bu esa siyosiy risk darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlardagi to'lovga qobil bo'lgan va kredit reytingi yuqori bo'lgan mijozlarni banklar tomonidan kreditlash imkoniyatini kengaytirdi. Yuqori iqtisodiy o'sish jarayonini boshidan kechirayotgan davlatlarda tijorat banklari kapitalini o'sishi iqtisodiyotning bank kreditlariga bo'lgan ehtiyojining o'sishidan orqada qoldi. Bunday sharoitda xalqaro Bazel andozalari bo'yicha tijorat banklari kapitalini tartibga solish tizimiga kiritilgan o'zgarish bank kapitalini iqtisodiyotning kreditlarga bo'lgan ehtiyojini o'sishiga mos ravishda o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunga

misol qilib Rossiya Federatsiyasidagi neft kompaniyalarini olish mumkin. Rossiyaning bir qator neft kompaniyalari, shu jumladan, Lukoyl, Sibneft va boshqa kompaniyalar yuqori kredit reytingiga egadir. Lekin, mamlakatda siyosiy risk darajasi yuqori bo'lganligi sababli, ularga berilgan kreditlar 100 foiz risk darajasiga ega bo'lgan kreditlar sifatida baholanar edi. Demak, ularga kredit bergan tijorat banklarining likvidligi kredit miqdoriga mutanosib ravishda pasayar edi. Bu holat, bir tomondan, yuqori kredit reytingiga ega bo'lgan korxonalarining kredit resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirilmay qolishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, tijorat banklarining ushbu korxonalarni kreditlashdan manfaatdorligini pasaytirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklari kapitalini boshqarish samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqishda bank kapitalining har bir elementini o'ziga xos ahamiyati mavjudligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Masalan, bank ustav kapitalining haqiqatda to'langan qismi, emission daromad va taqsimlanmagan foyda bank kreditorlari tomonidan hech qanday da'vo va inkassa talabnomalari mavjud bo'lmagan pul mablag'laridir. Shuning uchun ulardan bankning operatsion faoliyatida yuzaga keladigan, ko'zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni qoplashda foydalanish imkoniyati katta. Kapitalning boshqa manabalaridan esa xarajatlar va zararlarni qoplashda foydalanish imkoniyati sezilarli darajada cheklangan. Masalan, kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining ma'lum qismi bankning qo'shimcha kapitali tarkibiga kiritiladi. Lekin ushbu zaxira ajratmalarining o'zi 56802 – «Ssudalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash» hisobvarag'i orqali to'g'ridan-to'g'ri bankning xarajatiga olib boriladi. Demak, muddati o'tgan ssudalar bo'yicha asosiy qarz miqdori va foizlar qaytarilmagunga qadar bu mablag'lardan bank xarajatlari va zararlarini qoplashda foydalanishning iloji yo'q. Yoki, hozircha tijorat banklari kapitali tarkibida etarli darajada shakllanmagan bo'lsada, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini sotishdan olingan tushum miqdorini olaylik, bank bu majburiyatlarni o'zining o'rta va uzoq muddatli resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida sotadi. Demak, bizning fikrimizcha, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini sotishdan olingan mablag'lar ko'zda tutilgan o'rta yoki uzoq muddatli loyihalarni moliyalashtirishga

yo'naltiriladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, kapitalning ushbu elementida bankning operatsion faoliyatida yuzaga keladigan xarajatlar va zararlarni qoplash maqsadida foydalanish imkoniyati keskin cheklangan.

Mazkur paragrafning poyonida xulosa qiladigan bo'lsak, bank kapitalini boshqarish samaradorligini ta'minlash tadbirlarini ishlab chiqish ko'p mehnat talab qiladigan jarayon bo'lib, pirovardida bank kapitalining haqiqiy bozor qiymati va himoya vositasi sifatidagi rolini to'g'ri baholash imkoniyatini beradi.

III-BOB. IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH SHAROITIDA BANK KAPITALINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Bank kapitalini boshqarish borasidagi asosiy muammolar va ularning mohiyati

Amalga oshirilgan moliyaviy tahlil natijalari tijorat banklarining kapitalini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan qator sezilarli muammolarni aniqlash imkonini berdi. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Tijorat banklari jami kapitali tarkibida qo'shimcha kapital salmog'ining juda kichikligi muammosi.

Ushbu muammoning mohiyati shundaki, tijorat banklari jami kapitalining mutlaq asosiy qismi asosiy kapitaldan iboratdir. Masalan, 2003 yilning 1 yanvar holatiga tijorat banklari jami kapitalining 93,3 foizi asosiy kapital hissasiga to'g'ri keldi. Bu holat banklarning qo'shimcha kapital bazasini zaif ekanidan dalolat beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklari qo'shimcha kapitali tarkibida subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari, konsolidatsiyalashgan sho''ba korxonalariga qilingan quyilmalar mavjud emas. Bundan tashqari ko'chmas mulk bozorining mamlakatimizda etarli darajada rivojlanmaganligi qo'shimcha kapital tarkibidagi qayta baholash zaxirasi miqdorini sezilarli darajada oshirish imkonini bermayapti.

- Tijorat banklari ustav kapitalining jami kapital hajmidagi salmog'ini pasayish tendentsiyasiga ega ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarida, 2000-2003 yillar mobaynida, ustav kapitalining jami kapital hajmidagi salmog'ini sezilarli darajada pasayishi yuz bergan. Bu esa bank kapitalini boshqarish samaradorligi pasayayotganidan dalolat beruvchi salbiy holat hisoblanadi. Qo'llanmaning birinchi bobida ta'kidlab o'tganimizdek, ustav kapitali bank faoliyatini moliyalashtirishning nisbatan barqaror manbai hisoblanadi. Ustav kapitaliga nisbatan moliyaviy yil davomida aktsiyadorlarning va bank kreditorlarining aniq talabi mavjud emas. Shuning uchun ustav kapitalidan tijorat banklarining operatsion faoliyatida yuzaga

keladigan, ko'zda tutilmagan xarajatlar va zararlarni qoplashda erkin tarzda foydalanish mumkin.

- O'zbekistonda milliy valyuta bozorini yanada erkinlashishi munosabati bilan milliy valyuta almashuv kursining sezilarli darajada pasayayotganligi va shuning asosida mamlakatimizning qator tijorat banklarida devalvatsiya zaxirasi miqdorining sezilarli darajada o'sayotganligi aniqlandi.

Ushbu muammoning mohiyati shundaki, bir qator tijorat banklarida devalvatsiya zaxirasi miqdorining o'sishi hisobiga ularning maxsus zaxira miqdorining o'sishi yuz bermoqda. Maxsus zaxira banklarning jami kapitali hajmida yuqori salmoqqa ega ekanligi sababli, devalvatsiya zaxirasi hisobiga jami kapital hajmining keskin o'sishi kuzatilmoqda. Masalan, 2003 yilning oxiriga kelib, mamlakatimiz tijorat banklarining jami kapitali hajmida maxsus zaxiraning salmog'i 77 foizni tashkil qildi.

Devalvatsiya zaxirasi hisobiga maxsus zaxira hajmining o'sishini ijobiy holat sifatida baholab bo'lmaydi. Chunki devalvatsiya zaxirasi barqaror moliyalashtirish manbai tarkibiga kirmaydi.

- Mamlakatimiz tijorat banklarining aktivlari tarkibida yuqori riskli aktivlar salmog'ining nisbatan kichikligi va buning natijasida bank aktivlarining daromadlik darajasining pastligi qaror topgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizning yirik tijorat banklarida kassali aktivlarning yirik miqdorda to'planib qolish hollari kuzatilmoqda. Buning natijasida bank aktivlarining daromadlik darajasiga salbiy ta'sir etuvchi holat yuzaga keldi. Masalan, hozirgi vaqtda kassali aktivlarning jami bank aktivlari hajmidagi salmog'i 23-25 foizni tashkil etmoqda. Holbuki, bu ko'rsatkich Germaniya, Buyuk Britaniya va Frantsiya davlatlarining bank amaliyotida 3 foizdan oshmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston bank amaliyotida yuqori risk darajasiga ega bo'lgan va yuqori daromad keltiruvchi qator aktivlar hozircha mavjud emas. Masalan, tijorat banklarida forvard transaktsiyalari, opsiyonlar va fyucherslar hozircha mavjud emas. Bundan tashqari, xalqaro bank amaliyotida naqd pulsiz hisob-kitoblarning asosiy shakli bo'lgan va tijorat banklariga yuqori darajada daromad olish imkonini beruvchi hujjatlashtirilgan akkreditivlardan oqilona tarzda

foydalanilmayotir. Buning asosiy sababi shundaki, O'zbekiston bank amaliyotida asosan ta'minlangan akkreditivlardan foydalanilmoqda, ya'ni banklar akkreditiv bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishda asosan 22602 – «Akkreditiv bo'yicha mijozlarning depozitlar» hisobvarag'idan foydalanishmoqda.

- O'zbekiston tijorat banklari aktivlarining sezilarli qismini kassali aktivlardan iborat ekanligi bank resurslaridan, shu jumaladan, bank kapitalidan foydalanish samaradorligini past darajada ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorini etarli darajada rivojlanmaganligi O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarini ushbu bozorda doimiy oldi-sotdi ob'ektiga aylanishiga to'sqinlik qilmoqda. Buning natijasida, birinchidan, tijorat banklarining asosiy kapitali tarkibida emission daromadlar vujudga kelmayapti; ikkinchidan, tijorat banklari kapitalining bozor bahosini aniqlash imkoni yuzaga kelmayapti.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyada tijorat banklari, emissiya hajmiga ko'ra, qimmatli qog'ozlarning emitentlari ichida hukumatdan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Demak, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining aksiyalari doimiy oldi-sotdi ob'ektiga aylangan. Bank aksiyalarining qimmatli qog'ozlar bozorida doimiy ravishda oldi-sotdi qilinishi va ikkilamchi bozorning yuqori darajada rivojlanganligi bank kapitalining real bozor bahosini aniqlash imkonini beradi.

- Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda bank aksiyalarining qiymatiga salbiy ta'sir qiluvchi inflyatsiya va valyuta kursi omillari mavjud.

Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori va nobarqaror ekanligi aksiyalarning investitsion qiymatiga salbiy ta'sir qiladi. Natijada, investorlarning bank aksiyalarini sotib olish uchun qilgan quyilmalari va bank aksiyalaridan olinadigan dividendlar va foizlar shaklidagi daromadlarning real qiymati pasayadi. Pirovardida, bank aksiyalarining sotilishi qiyinlashadi, investorlarning bu aksiyalarni sotib olishdan manfaatdorligi pasayadi. Chunki investorlar bank aksiyalarining bozor bahosini pasayishi evaziga bankning barcha zararlarida ishtirok etadilar.

Rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligida, shu jumladan, Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo bir qator mamlakatlarda milliy valyuta almashuv kursining pasayish tendentsiyasi kuzatilyapti. Buning natijasida, milliy valyutada yozilgan va muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga qilingan quyilmalar va ularga to'langan daromadlar real qiymatining pasayishi yuz beryapti. Bu holat qimmatli qog'ozlarning asosiy emitentlaridan biri bo'lgan tijorat banklarining aktsiyalari va obligatsiyalarining savdosiga salbiy ta'sir qilmoqda. Buning oqibatida investorlarning qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan, tijorat banklarning qimmatli qog'ozlarini sotib olishdan manfaatdorligi pasaymoqda.

Rivojlanayotgan davlatlarda milliy valyuta kursining pasayish tendentsiyasiga ega ekanligining asosiy sabablaridan biri bu mamlakatlarda Markaziy bank va hukumat tomonidan «erkin suzib yuruvchi kurs» rejimini qo'llanilmayotganidir. Hozirgi vaqtda, Xalqaro valyuta fondining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 47 mamlakatida erkin suzib yuruvchi kurs rejimidan foydalaniladi. Markaziy bank va hukumati etarli oltin zaxiralariga ega bo'lmagan, to'lov balansining ahvoli nochor bo'lgan ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarda erkin suzib yuruvchi kurs rejimi milliy valyuta kursining tebranishiga kuchli turtki beradi. Bu esa, o'z navbatida, qimmatli qog'ozlarga qilingan quyilmalar va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymatini keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

- Bank aktsiyadorlarini moddiy jihatdan manfaatdorligini oshirish va ularning bank Boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

- a) Bank aktsiyadorlarining moddiy manfaatdorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammo.

Bizga ma'lumki, aktsiyadorlarni qiziqtiradigan ikki asosiy omil mavjud. Bularning birinchisi, bank aktsiyalarini sotib olishga sarflangan mablag'lar va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymatini saqlanishi bo'lsa, ikkinchisi esa, to'lanadigan dividendlar miqdorining yuqoriligi va barqarorligidir.

Tahlil natijalaridan ko'rindiki, tijorat banklarida 2000-2003 yillar mobaynida jami kapital tarkibida joriy yilning sof foydasi salmog'ining sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Bu esa salbiy holat hisoblanadi. Chunki bank amaliyotida joriy yilning sof foydasi majburiy to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng qoladigan foyda

bo'lib, aktsiyadorlarga dividend to'lash uchun manba bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun, uning salmog'i pasayishi aktsiyadorlarning moddiy manfaatlariga salbiy ta'sir qiladi.

b) Bank aktsiyadorlarining bank boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammo.

Ushbu muammoning mohiyati shundaki, tadqiqot jarayonida biz aniqlashga muvaffaq bo'lgan muammolarning mavjudligi ma'lum darajada aktsiyadorlarning bank boshqaruvidagi ishtirokining faol emasligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda aktsiyadorlarning bank faoliyatini boshqarishdagi rolini oshirishning huquqiy asoslari to'liq yaratilgan deyishga, bizda, muayyan asoslar mavjud. Jumladan, 1998 yil 2 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aktsiyadorlik-tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq:

-ustav kapitalida davlatga tegishli aktsiyalar paketi 25 foizdan ortiq bo'lgan tijorat banklarining bank kengashi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan ishonchli vakil kiritiladi, uning zimmasiga mazkur aktsiyalar paketini boshqarish vazifasi yuklatiladi;

-aktsiyadorlik-tijorat banki Kengashi bank filiallarining Boshqaruvi va rahbarlar bilan birgalikda bankni samarali boshqarishni tashkil etish, kreditlar berilishi va ularning o'z vaqtida qaytarilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Tijorat banklari tizimida davlatning ulushini yuqori ekanligi rivojlanayotgan davlatlar amaliyotida ham, rivojlangan davlatlar amaliyotida ham ko'zga tashlanadi. Masalan, etakchi industrial davlat hisoblangan Germaniyada davlatning tijorat banklari kapitalidagi ulushi 50 foizni tashkil qiladi.

Bu holat rivojlanayotgan davlatlarning ko'pchiligiga xos hisoblanadi. Davlatning bank tizimidagi ulushi Xitoyda – 99 foiz, Hindistonda – 88 foiz, Indoneziyada – 85 foiz, Tayvanda – 75 foiz, Braziliyada – 48 foiz, Polshada – 46 foiz, Argentinada –36 foiz, Venesuela va Rossiyada – 30 foiz va Meksikada – 28 foizni tashkil etadi³⁷.

³⁷ А.Г.Саркисянц. Банковская система России и направления её реформирования. //Бухгалтерия и Банки. 2001г. №7. С. 10.

- Tijorat banklarining buxgalteriya hisobi va hisobotida bank kapitaliga oid ma'lumotlarni ishonchli tarzda aks ettirmaslik muammosi.

Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasining bank tizimlarida ayrim hollarda kapitalning sifat ko'rsatkichlarini hisobotlarda aniq va to'g'ri aks ettirmaslik hollari mavjud. Masalan, Rossiya Federatsiyasida muammoli kreditlarning haqiqiy miqdorlarini tijorat banklari tomonidan buzib ko'rsatilishi natijasida bir qator banklarda kapitalning etarlilik koeffitsientini asossiz ravishda yuqori bo'lish hollari yuz berdi. Buning natijasida ayrim tijorat banklarini og'ir moliyaviy holatga tushib qolish hollari yuz beradi. Masalan, tijorat banklari ayrim hollarda joriy yilning sof foydasi miqdorini pasayishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida muddati o'tgan ssudalarning real miqdorini yashiradilar. Agar mazkur banklar tomonidan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning haqiqiy miqdori ko'rsatilsa, u holda, **birinchidan**, joriy yilning sof foydasi sezilarli miqdorda kamayib ketadi, bu esa, bankning moliyaviy barqarorlik darajasi past, degan xulosani shakllantirish imkonini beradi; **ikkinchidan**, jami kapital miqdorining sezilarli darajada kamayishi yuz beradi, chunki qo'shimcha kapital tarkibiga joriy yil foydasi kiritiladi.

Tijorat banklarining hisobotlarida kapitalning etarliligi va boshqa sifat ko'rsatkichlari xususida noreal ma'lumotlarning mavjudligi investorlar va Markaziy bank uchun jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki Markaziy bank milliy bank tizimining barqarorligi uchun javobgar hisoblanadi, shu sababli, Markaziy bankda bank tizimining to'lovga qobilligi va likvidligi xususida soxta tasavvur hosil bo'ladi. Investorlar uchun esa, buning og'ir oqibatlaridan biri ularda bank aksiyalari bozor bahosining shakllanishi va ulardan olinadigan daromadlarning o'sishi xususida noto'g'ri tasavvur hosil bo'ladi.

Ushbu muammo xorijiy mamlakatlarning bank amaliyotida ham mavjud bo'lib, tijorat banklari kapitalining etarliligi to'g'risida ijobiy xulosa chiqarish imkonini beradi. Masalan, Yaponiyaning yirik tijorat banklaridan biri bo'lgan Sumitomo bankining Nyu Yorkdagi filiali boshqaruvchisi o'n yil mobaynida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalardan filial ko'rgan zararni yashirib kelgan. O'n yil davomida zarar miqdori bir milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Demak, o'n yil davomida joriy yil

foydasini bir milliard AQSh dollariga kamayishi va bu summaga zaxiralar miqdori tashkil qilish lozim edi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida tashkil qilinadigan zaxiralarning miqdori ko'pchilik hollarda tasniflangan kreditlar miqdoriga to'g'ri kelmaydi. Bunday hollarda tijorat banklari tomonidan ongli ravishda zaxiralarni etarli miqdorda tashkil etmaslik hollari yuzaga keladi. Yana shunday holatlar mavjudki, kreditlarni tasniflashda bank xodimlari tomonidan xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Bunda muddati o'tgan ssudalar muddatli ssudalar hisobvarag'ida hisobga olib borilaveradi. Natijada tasniflangan kreditlarning haqiqatdagi umumiy miqdori balansda aks etgan summaga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

- Tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirish va uning minimal darajasiga nisbatan qo'yiladigan talablar xususida yagona yondoshuvning mavjud emasligi.

Tahlil natijalaridan ma'lum bo'ldiki, tijorat banklari kapitalini shakllantirish va ularning minimal darajasiga qo'yiladigan talablar xususidagi xalqaro Bazel andozalari dunyoning bir qator mamlakatlarida to'lig'icha qabul qilinmayapti. Masalan, O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari jami kapitalining tarkibi va etarililigiga qo'yiladigan minimal talab bo'yicha xalqaro Bazel andozalaridan sezilarli darajada farq qiluvchi jihatlar mavjud. Xuddi shunday holatni Rossiya, Shveysariya, Yaponiya va boshqa bir qator mamlakatlarning bank amaliyotida ham kuzatish mumkin.

Xalqaro Bazel andozalarini O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida yanada to'laroq joriy etish lozim. Aks holda tijorat bank kapitalini boshqarish samaradorligi xususida yagona yondoshuvni shakllantirib bo'lmaydi.

Tijorat banki kapitali tarkibini shakllantirishda AQSh Federal zaxira rezervi tomonidan ishlab chiqilgan metodikada xalqaro Bazel andozalaridan farq qiluvchi jihatlar anchagina. Bizning fikrimizcha, xalqaro Bazel andozalarida ko'zda tutilgan asosiy kapitalning tarkibi AQSh Federal zaxira rezervining metodikasida ko'zda tutilgan asosiy kapitalga nisbatan ancha barqarordir.

Shuningdek, tijorat banklarining kapital zaxirasi xususida ham xalqaro bank amaliyotida yagona yondoshuv mavjud emas. Kapital zaxirasi tijorat banki ustav kapitali miqdorida tashkil etiladi. Lekin, uning maqsadi va ishlatilish sohasi xususida aniq ko'rsatmalar mavjud emas. Ko'pchilik rivojlangan davlatlarda kapital zaxirasi tashkil etilmaydi. Kapital zaxirasi asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning bank amaliyotida keng qo'llaniladi.

Kapital zaxirasi mohiyatiga ko'ra bank ustav kapitali miqdorini oshirishni ta'minlovchi moliyaviy manba hisoblanadi. Uni bank foydasi hisobidan tashkil etishi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorini kutib o'tirmasdan, ustav kapitali kabi barqaror moliyalashtirish manbaiga ega bo'lish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining kapitalini boshqarishni takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolar mavjud va ularni hal qilish kapitalni boshqarish tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

3.2. Bank kapitalini boshqarishni takomillashtirishda dividend siyosatining roli

Dividend siyosati bank kapitalinining etarligini ta'minlash va uni samarali boshqarishni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Dividend uchun to'lanayotgan mablag' miqdori dividend siyosatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, bank aktsiyadorlarining manfaatlarini iqtisodiy jihatdan himoya qilish va bank aktsiyalari bahosining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, bank tomonidan oqilona dividend siyosatining yuritilishi uning kapital bazasini mustahkamlashga, kapitalni samarali boshqarishga va tijorat bankining moliya bozoridagi mavqeini ko'tarishga xizmat qiladi.

Tijorat banklari tomonidan haqiqatda to'lanadigan dividendning real miqdori dividend siyosatini amalga oshirishda qo'yiladigan asosiy masalalardan hisoblanadi. Bankning aktiv operatsiyalaridan olinadigan daromadlarning ko'payishi uning rentabellik darajasiga va pirovardida, uning dividend siyosatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bank hisobot davrining yakuni bo'yicha olgan ma'lum miqdordagi foydasini barcha zarur maqsadlarga qilingan ajratmalardan so'ng, aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq, oddiy va kumulyativ imtiyozli aktsiyalar bo'yicha dividend to'lashga yo'naltiradi. Demak, dividendlar sof foyda hisobidan to'lanadi va bank moliyaviy-xo'jalik faoliyatida sof foydaning yuzaga kelmasligi dividendlarning to'lanmasligiga va uning oqibatida bank aktsiyalari bozor bahosining pasayishiga sabab bo'ladi. Ko'pchilik hollarda, bank aktsiyalari bozor bahosining pasayib ketishi aktsiyadorlar tomonidan aktsiyalarni qaytarib topshirilishiga sabab bo'ladi. Bu o'z navbatida, bank ustav kapitalining miqdorini kamayishiga olib keladi. Agar ustav kapitalini barqaror moliyalashtirish manbai ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu holat bankning to'lovga qobilligi va likvidligiga salbiy ta'sir qilishini kuzatishimiz mumkin.

Aktsiyadorlar tijorat banklari dividend siyosati orqali pul mablag'larini banklarning ustav kapitaliga joylashtirish xususidagi qarorlarini qabul qiladi. Agar, to'lanayotgan dividend summasi aktsiyador kutayotgan miqdordan kam bo'lsa, bunday holatda ular aktsiyalarning bir qismini sotib, olingan tushumni joriy

xarajatlarini moliyalashtirishga sarflaydilar. Agar ular, dividend to'lovi evaziga mo'ljalidan ortiqcha mablag'ga ega bo'lsalar, u holda, olingan dividendni yangi aktsiyalar sotib olishga yo'naltiradilar. Ushbu holatdan ko'rinib turibdiki, bank tomonidan olib borilayotgan dividend siyosatiga aktsiyadorlar tomonidan mustaqil ravishda xulosa chiqariladi. Aktsiyadorlar tomonidan chiqarilgan xulosa bank kapitalining tarkibi va miqdoriga keskin ta'sir qiladi.

Investorlar bankning aktsiyalari uchun to'lanayotgan dividend to'lovidan tashqari, to'lanayotgan summaning barqarorligiga katta e'tibor berishadi. Dividend to'lovining barqarorligi deganda, hisobot davri mobaynida to'langan dividend miqdorining o'zgarishi e'tiborga olinadi. Dividend miqdorining o'sib borishi bankning qimmatli qog'ozlari qiymatini o'sishiga va bankning aktsiyalarini ikkilamchi moliya bozoridagi oldi-sotdisiga ijobiy ta'sir qiladi.

Milliy iqtisodiyotda ikkilamchi moliya bozorining rivojlanmaganligi tijorat banklari jami kapitali tarkibida emission daromadlarning shakllanmayotganligiga sabab bo'layotgani qo'llanmaning oldingi boblarida tahlil qilingan edi. Demak, barqaror dividend siyosatining olib borilishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan bo'lgan dividend to'lovining miqdori, ko'p jihatdan, ikkilamchi moliya bozorining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Ushbu masala tijorat banklarining kapitalini samarali boshqarish va uning tarkibini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Dividend siyosati bo'yicha qaror qabul qilishda tijorat banklarining likvidligi muhim ahamiyatga ega. Chunki dividend uchun to'lanayotgan summa to'g'ridan-to'g'ri bank kapitalini kamayishiga olib keladi. Ma'lumki, to'lanayotgan dividend summasi tijorat bankining taqsimlanmagan foydasiga ta'sir qiladi, taqsimlanmagan foyda o'z navbatida, bankning birinchi darajali kapitalining asosiy elementi xisoblanadi.

Xalqaro bank amaliyotida, dividend siyosatini bank kapitali miqdorini kamaytirmasdan amalga oshirish maqsadida quyidagi uchta usuldan foydalaniladi:

a) dividendlarni investitsiya qilish;

Ushbu usul bank kapitalini oshishiga olib keladi. Bank kapitalining oshishi uning to'lov qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi, lekin uning daromadini

o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydi. Chunki bank kapitalining oshishi uning himoya funksiyasini mustahkamlab, bankning moliya bozoridagi iqtisodiy mavqeini ko'tarish bilan birga, ikkilamchi moliya bozoridagi qatnashuvini jadallashtiradi.

b) dividendlarni bankning aksiyalari bilan to'lash;

Albatta, dividend siyosatini olib borishda ushbu usul ham bank kapitali miqdorining oshishiga xizmat qiladi. Lekin bankning moliya bozoridagi aksiyalari kursiga ta'sir o'tkazadi. Birinchidan, bankning aksiyalarini sotib olishga bo'lgan talabning kamayishiga olib keladi, bu esa bankning aksiyalarini bahosini tushirib yuboradi. Ikkinchidan, bank aksiyadorlari va moliya bozorining boshqa qatnashchilarida bankning dividend siyosatiga nisbatan ishonchni pasayishiga olib keladi. Demak, ushbu usulni qo'llashda bank aksiyadorlarining hisobot yig'ilishidagi qarori muhim rol o'ynaydi. Unga ko'ra, bankning dividend to'lovlari o'rniga aksiyalar berilishi moliya bozorida va aksiyadorlar o'rtasida bankning aksiyalariga bo'lgan talab asosiy e'tiborga olingan holda qaror qabul qilinadi. Ushbu holatda, bankning aksiyalari moliya bozorida nominal baholarda sotilishi, bankning dividend siyosatiga va uning aksiyalari bahosiga salbiy ta'sir o'tkazmaydi. Shu bilan birga, bankning jami kapitali tarkibidagi emission daromadlarini vujudga kelmasligiga olib keladi.

Qo'llanmaning oldingi boblarida tijorat banklari jami kapitalining tarkibida emission daromadning mavjud emasligi va uning sabablari haqida to'xtalgan edik. Demak, buning asosiy sabablaridan biri bo'lib, bank tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalarni ikkilamchi fond bozorida oldi-sotdi operatsiyalari etarlicha emasligi yoki aksiyalarning nominal bahoda (yoki undan ham past bahoda) sotilayotganligi hisoblanadi. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida, ayrim hollarda, bank aksiyalarini sotib olinishi evaziga imtiyozli kreditlar berish hollari ham uchraydi. Bu esa, bank kapitalini va aktivlarini boshqarish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

v) bank xodimlariga hisoblangan dividendlarni bank aksiyalari bilan qoplash;

Ushbu usulning asosiy afzalliklaridan biri shuki, birinchidan, bank o'z kapital bazasini ko'paytiradi, ikkinchidan, xodimlarning bank faoliyatini rivojlantirishga

qiziqishini orttiradi, ya'ni, bank faoliyatini boshqarishda bank xodimi va uning rahbari o'rtasida o'zaro manfaatdorlik vujudga keladi. Ushbu holat bank kapitalini samarali boshqarishga va uning moliya bozoridagi faoliyatini raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu usulning yana bir asosiy qulayliklaridan biri moliya bozorida aktsiyalarni joylashtirish uchun brokerlik xarajatlarining kamayishi hisoblanadi. Xorijiy bank amaliyotida ushbu usul juda rivojlangan bo'lib, buning asosiy sabablaridan biri soliq organlari tomonidan bank xodimlarining kapitalni shakllantirishga yo'naltirgan mablag'lariga nisbatan soliq imtiyozlari belgilanganidir.

Shunga qaramasdan, bank tizimining rivojlanishi natijasida, kelgusida ushbu masala juda dolzarb mavzuga aylanib xizmatchilarning ish sifatiga va samaradorligiga katta ta'sir qiladi, shu bilan birga rahbariyat qabul qiladigan qarorlarni xodimlar tomonidan nazoratini kuchaytirish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

Xalqaro bank amaliyotidan ma'lumki, dividend siyosati yuritishning asosiy omillardan biri, etarli darajada axborotlarga ega bo'lish, uning qiymatini baholay olish va dividend to'lovlarining amaliyotdagi samarasini tahlil qilishi hisoblanadi. Bank, foydasining tushib ketishiga qaramasdan, moliya bozorida dividend to'lovlarini kamaytirmasligi uning aktsiyalariga nisbatan fond bozorlari ishonch bilan qarashiga asos bo'ladi. Demak, bankning barqaror dividend siyosatini yuritishi, bank foydasining tushib ketgan bo'lishiga qaramasdan, aktsiyadorlar uning kelajagiga ishonch bilan qarashiga sabab bo'ladi. Bank boshqaruvchilari, moliya bozorida barqaror dividend siyosatini yuritishi natijasida vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarni engib o'tishi lozim. Albatta, bank ushbu holatni moliyaviy bozorda uzoq vaqt ushlab turolmaydi, natijada bankning moliyaviy muammolari uning dividend siyosatidagi nobarqarorlikni yuzaga keltiradi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining dividend siyosatini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirishni ta'minlaydigan muhim omillardan biri milliy valyutaning almashuv kursi va inflyatsiya darajasi barqarorligi hisoblanadi. Har bir aktsiyador bankning ustav kapitaliga qo'ygan mablag'ining real qiymati saqlanishidan manfaatdor. Ushbu mablag'ning real qiymati esa inflyatsiya va almashuv kursi tebranishiga bog'liq bo'ladi. Inflyatsiya darajasining oshishi va milliy

valyuta almashuv kursini pasayishi milliy valyutada yozilgan aktsiyalarning real qiymatini pasayishiga olib keladi. Agar, tijorat banki tomonidan to'lanayotgan dividendlar darajasi inflyatsiya va milliy valyutaning almashuv kursini o'zgarishi natijasida pasayadigan qiymatni o'rnini qoplamasa, u holda bu bank aktsiyalariga bo'lgan talab keskin pasayadi. Bu o'z o'rnida, bankning muomaladagi aktsiyalari bozor bahosining pasayishiga va yangi aktsiyalar chiqarish hisobidan ustav kapitali hajmini oshirish imkoniyatini cheklanishiga olib keladi. Buning ustiga, aktsiyadorlarning ma'lum qismi ixtiyoridagi oddiy aktsiyalarni sotish payiga tushib qoladilar, buning natijasida bank ustav kapitalining miqdori kamayadi. Shuning uchun ham, rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida aktsiyalarga dividend to'lashda inflyatsiya darajasi albatta hisobga olinadi. Lekin milliy valyutaning almashuv kursi hisobga olinmaydi.

G'arbiy evropa mamlakatlari, AQSh va Yaponiyada inflyatsiyaning mo'tadil darajasi saqlab turiladi. Agar, inflyatsiyaning yillik darajasi 3 foizdan oshmasa, uning darajasi mo'tadil hisoblanadi. Shuning uchun ham, mazkur mamlakatlarning tijorat banklari faoliyatida inflyatsiya muammosi deyarli uchramaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy qismida inflyatsiyaning nisbatan yuqori va nobarqaror darajasi saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ham, mazkur mamlakatlarda bank aktsiyalarini qulay baholarda ikkilamchi fond bozorlarida sotish muammosi o'zining dolzarbligini saqlab turibdi. Mazkur muammolarning natijasi o'laroq, ushbu mamlakatlarda xorijiy valyutalarda yozilgan bank aktsiyalariga bo'lgan talab yuqoridir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda to'lov balansining surunkali defitsitga ega ekanligi milliy valyutalarning almashuv kurslarini doimiy ravishda tebranishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon milliy valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy valyuta kursining barqarorligini saqlab turish maqsadida to'lov balansining holatiga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklari dividend siyosatiga inflyatsiyaning ta'siri muammosi o'zining echimini topmoqda. Ya'ni, inflyatsiya darajasi yil sayin pasayish

tendentsiyasiga ega bo'lmoqda. Inflyatsiya darajasi 2002 yilda 21,6 foiz bo'lgan bo'lsa, o'tgan yili bu ko'rsatkich 3,8 foizni tashkil etdi³⁸.

O'zbekiston tijorat banklarining dividend siyosati uchun valyuta kursi muammosi yuzaga kelishi mumkin. Buning boisi birinchidan, hukumat 2003 yilning 15 oktyabridan boshlab to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha so'mni xorijiy valyutalarga erkin almashuvini joriy etilganini ma'lum qildi; ikkinchidan, valyuta kurslarini unifikatsiya qilinishi natijasida milliy valyuta kursining sezilarli darajada tebranish hollari kuzatilmoqda.

Tijorat banklarining xorijiy valyutalarda amalga oshiriladigan dividend to'lovlari ular uchun ma'lum muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Ana shunday muammolardan biri sifatida milliy valyuta kursining pasayishi sharoitida banklarning dividendlar to'lash bilan bog'liq xarajatlarning oshishini alohida ko'rsatish mumkin. Bunda, banklarning dividend to'lash maqsadidagi xarajatlari umumiy hajmi oshadi.

Mazkur toifadagi ikkinchi muammo to'lanishi lozim bo'lgan dividendlarni repotratsiya qilish muammosidir ya'ni, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy valyutadagi summani erkin almashadigan valyutaga konvertatsiya qilib, uni xorijiy investorga dividend sifatida o'tkazib berish muammosi mavjud. Ushbu muammo joriy valyuta bozorining likvidlik darajasining pastligi bilan izohlanadi.

Xalqaro bank amaliyotida, bank aksiyalariga dividend to'lashda listing talablarini bajarmaslik muammosi mavjud ya'ni, ayrim tijorat banklari fond birjasi tomonidan qo'yilgan listing talablarini bajarmaydilar. Buning natijasida investorlar bankning moliyaviy holatidagi jiddiy o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlayolmaydilar.

Mazkur toifadagi to'rtinchi asosiy muammo, xorijiy valyutalarda yozilgan bank aksiyalarini xalqaro fond bozorlarida joylashtirish muammosidir. Xalqaro fond bozorlarida ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning mamlakat reytingi mavjud emas. Bu esa moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan banklar ham aksiyalarining ham bozor bahosiga salbiy ta'sir qiladi.

³⁸ Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodimizga bog'liq. 12-tom, -T.: «O'zbekiston», 2004, 187-bet.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarning dividend siyosati ularning likvidligi va to'lovga qobilligini ta'minlashning muhim vositasi bo'lib, ko'p qirrali omillarning bevosita ta'siriga beriluvchan hisoblandi.

3.3. Bank kapitalini samarali boshqarishni takomillashtirish yo'llari

Tijorat banklari kapitalini samarali boshqarishni takomillashtirish maqsadida, quyidagi tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- Tijorat banklari ustav kapitalining haqiqatda to'langan qismining asosiy kapital hajmidagi salmog'ini pasayishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Buning uchun devalvatsiya zaxirasini nobarqaror moliyalashtirish manbai sifatida maxsus zaxira tarkibidan chiqarish va uni qo'shimcha kapitalning alohida elementi sifatida aks ettirish zarur. Qo'shimcha kapital tarkibidagi joriy yilning sof foydasini asosiy kapital tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki joriy yilning sof foydasi barcha majburiy to'lovlar to'lab bo'lingandan keyin va barcha zaxiralar tashkil qilib bo'lingandan so'ng qoladigan foyda bo'lib, barqaror moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Agar devalvatsiya zaxirasini nobarqaror moliyalashtirish manbai sifatida maxsus zaxira tarkibidan chiqarsak, u holda milliy valyuta almashuv kursining pasayishi natijasida bank kapitalini devalvatsiya zaxirasi hisobidan asosiy kapitalning o'sishiga chek qo'ygan bo'lamiz.

- Xalqaro Bazel andozalarida ko'zda tutilgan banklarning forvard transaksiyalari bo'yicha aktivlarini riskka tortish tizimiga o'zgartirish kiritish lozim.

Tijorat banklarining forvard transaksiyalari Bazel andozalarida ko'zda tutilgandek 100 foiz emas, balki 50 foiz risk darajasini belgilash maqsadga muvofiqdir. Chunki forvard transaksiyalarida tijorat banklari o'zlarini iqtisodiy risklardan sezilarli darajada himoya qilish imkoniyatiga egadirlar. Koll va put opsiyonlarda esa bankning o'zini himoya qilish imkoniyati sezilarli darajada cheklangan. Shuning uchun ham forvard transaksiyalari va opsiyonlarning risk darajasini bir xil bo'lishi maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz.

- Tijorat banklarining qo'shimcha kapital bazasini mustahkamlash imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish lozim.

Tijorat banklarida konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalariga qilingan quyilmalar va subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlari hajmini oshirish yo'li bilan

tijorat banklari o'zlarining qo'shimcha kapital bazasini mustahkamlash imkoniyatiga egadirlar.

Milliy iqtisodiyotda tijorat veksellari muomalasi mavjud bo'lmaganligi sababli, hozircha, trust va forfeyting kompaniyalari shaklidagi konsolidatsiyalashgan sho'ba korxonalarini ochishga zaruriyat yo'q. Lekin, milliy iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida tijorat banklarining lizing va faktoring xizmatlariga xo'jalik sub'ektlari tomonidan ehtiyoj katta. Bu esa tijorat banklari qoshida lizing va faktoring kompaniyalarini tashkil qilish zarurligini belgilaydi.

Hozirgi vaqtda lizing kompaniyalari lizingga berilgan uskunalar uchun oladigan foizli daromadlaridan foyda solig'i to'lamaydilar. Bundan tashqari, tovarlarni ishlab chiqaruvchidan to'la qiymatda sotib olayotganlarida qo'shilgan qiymat solig'i to'lashdan ozod qilingan. Fikrimizcha, mazkur soliq engilliklari lizing operatsiyalarini rivojlantirish uchun kuchli turtki beradi. Tijorat banklarining kassali aktivlar shaklida vaqtinchalik bo'sh pul mablag'lari mavjuddir. Ushbu pul mablag'larining sezilarli qismini lizing operatsiyalariga yo'naltirish ular balansining likvidligiga jiddiy tarzda xavf solmaydi. Chunki bank kapitalining etarlilik koeffitsienti va asosiy kapitalning etarlilik koeffitsienti belgilangan normativ darajaga qaraganda juda yuqori natijani tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichlarning bajarilishi ayrim tijorat banklarimizda 0,7 ni tashkil qilmoqda, TIF milliy banki, «O'zsanoatqurilishbank», «Paxta Bank» kabi yirik tijorat banklarida jami kapitalning etarlilik koeffitsienti o'rtacha 0,35-0,4 ni tashkil qilmoqda. Holbuki, belgilangan normativ daraja 0,1 ni tashkil etadi.

Tijorat banklari uchun lizing operatsiyalarini rivojlantirishning yana bir qulay tomoni, lizing operatsiyalari banklarning kredit riskini kamaytirish imkonini berishidir. Chunki lizingga berilgan uskunalar garov vazifasini o'taydi. Tijorat banki lizingga berilgan uskunani o'zining balansiga asosiy vosita sifatida kiritib qoladi, uskunalariga hisoblangan amortizatsiya ajratmalari ham bankning balansida to'planadi. Demak, bank lizingga berilgan uskunalariga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi.

Tijorat banklarining mustaqil balansga ega bo'lmagan faktoring kompaniyalari ochishga qilgan quyilmalari bank qo'shimcha kapitalining muhim elementi bo'lib qolishi mumkin. Chunki banklarning faktoring xizmatlariga bo'lgan talab yuqoridir.

Tijorat banklari qoshida mustaqil balansga ega bo'lgan faktoring kompaniyalarining ochilishi xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi debetor va kreditorlik qarzlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki faktoring kompaniyalari o'zlarining manfaatidan kelib chiqqan holda xo'jalik sub'ektlarining debetor qarzlarni sotib oladi.

Ayni vaqtda, tijorat banklarining faktoring operatsiyalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi ayrim omillar mavjud, ulardan asosiylari sifatida quyidagi ikki omilni ajratib ko'rsatish mumkin:

a) Faktoring kreditlarini berish muddatini belgilab qo'yilganligi.

Mamlakatimiz bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan beriladigan faktoring kreditlarining maksimal muddati 90 kunni tashkil etadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar bank amaliyotida esa faktoring kreditlarining muddatiga nisbatan cheklash yo'q.

b) Tijorat banklari tomonidan beriladigan faktoring kreditlarining foiz stavkasi Markaziy bankning rasmiy qayta moliyalashtirish stavkasi bilan tartibga solinadi. Ya'ni, faktoring kreditlari foiz stavkasining yuqori chegarasi rasmiy qayta moliyalashtirish stavkasidan 1,8 martadan yuqori bo'lmasligi lozim.

Tijorat banklarining faktoring kreditlariga nisbatan belgilangan talablar olib tashlanishi lozim. Chunki faktoring krediti tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning bitta shakli bo'lib, u bilan bog'liq risklar iqtisodiy normativlar doirasida chegaralangan.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida tijorat banklarining kreditlash limitlariga nisbatan cheklovlar joriy qilish holatlari mavjud bo'lgan, lekin bank kreditlarining foiz stavkasi chegaralanmagan.

- Tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarini ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida keng ko'lamda oldi-sotdi qilishini ta'minlash lozim.

Buning uchun, avvalo, tijorat banklari tomonidan oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividendlar va imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan foizlar darajasini

investorlarning manfaatiga mos keladigan maqbul darajaga etkazish lozim. Buning uchun, avvalo, hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalariga to'lanadigan foizlardan asos sifatida foydalanish lozim, ikkinchidan, investorlarning aktsiyalarni sotib olishga qilgan quyilmalari va ulardan oladigan daromadlari qiymatiga inflyatsiya darajasini va milliy valyutaning almashuv kursi ta'sirini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Aks holda, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida bank aktsiyalariga bo'lgan barqaror talabni yuzaga keltirib bo'lmaydi. Tijorat banklari aktsiyalarining qimmatli qog'ozlar bozorida erkin muomalasi ta'minlanmas ekan, bank kapitalining bozor bahosini aniqlash imkoni bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda jahon qimmatli qog'ozlar bozorida bank aktsiyalari va korporativ aktsiyalarga bo'lgan talab kuchaydi, ushbu aktsiyalarning bozor bahosi o'sish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda. Bunday sharoitda mamlakatimiz yirik tijorat banklarining xorijiy valyutalarda yozilgan aktsiyalarini jahon fond bozorlarida sotilishini tashkil qilish ularning kapital bazasini mustahkamlashni ta'minlaydi. Buning uchun tijorat banklariga jahon fond birjalari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan xorijiy valyutadagi to'lovlarni amalga oshirish sharoiti ta'minlab berilishi lozim. Ya'ni, tijorat banklari istalgan vaqtda o'zlarining so'mdagi mablag'larini ana shu maqsadlar uchun xorijiy valyutalarga erkin konvertatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Hozirgi vaqtda xalqaro Bazel qo'mitasi andozalari tijorat banklariga kredit riskini minimallashtirish va aktiv operatsiyalar ko'lamini kengaytirish uchun tegishli imkoniyatlar beradi.

Ushbu holat O'zbekiston tijorat banklarining aktiv operatsiyalar hajmini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari hajmida riskka tortilgan aktivlarining ulushi ortib borishi, ularning daromad manbaining o'sishiga iqtisodiy omil yaratadi. Shu bilan birga qayd etish lozimki, tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlari sifat darajasi jihatidan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi zarur. Chunki tijorat banklarining riskka tortilgan aktivlari sifat darajasi iqtisodiy jihatdan yomonlashuvi tijorat banklarining ushbu aktivlar bo'yicha maxsus zaxiralarni yaratishni talab etadi. Ushbu zaxiralar tijorat banklari xarajatlari hisobidan shakllantirilib to'g'ridan-to'g'ri bank foydasining oshib

borishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, tijorat banklarining kredit riskini minimallashtirishning asosiy omillaridan biri ularning riskka tortilgan aktivlari sifat darajasini yaxshilashdan iborat bo'ladi. Tijorat banklarining aktivlari sifat darajasining ijobiy ko'rsatkichga ega bo'lishi tashkil qilinishi lozim bo'lgan zaxira miqdori ulushining kamayishiga olib keladi.

Tijorat banklari aktsiyalarini xorijiy investorlarga sotish natijasida jalb qilingan mablag'lardan banklarning investitsion kreditlari hajmini oshirishda foydalanish mumkin.

Tijorat banklari ana shunday yo'l bilan o'zlarining oddiy aktsiyalarining bozor bahosini oshirishlari mumkin. Bunda bank kapitalining etarlilik koeffitsienti doimiy nazorat ob'ekti bo'lishi kerak. Chunki xorijiy investorlar tijorat banklarining to'lovga qobilligini baholashda birinchi navbatda bank kapitalining etarliligiga e'tibor beradilar.

Tadqiqot jarayonida banklarning jami kapitali va asosiy kapitalining etarliligiga qo'yilgan talablar yuqori darajada bajarilayotganining guvohi bo'ldik. Albatta bu, kapitalning etarliligi nuqtai nazaridan ijobiy holat sifatida baholanadi. Lekin kapital manbalarining moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak salbiy holat sifatida ham qarash mumkin. Buning boisi, tijorat banklari kapitalining manbalari tarkibida moliyaviy jihatdan nobarqaror moliyaviy resurslarning o'sib borish tendentsiyasi mavjud. Kapital tarkibida moliyaviy jihatdan nisbatan barqaror bo'lgan ustav kapitalining miqdori pasayib borish tendentsiyasiga ega.

- Tijorat banklarining balans hisobotlarida bank kapitalining tarkibi va etarliligiga oid ma'lumotlarning haqqoniy tarzda aks ettirilishi lozim.

Ayrim tijorat banklarida bank kapitali sifat ko'rsatkichlarini buzib ko'rsatish hollari mavjud, ayniqsa, tasniflangan kreditlar miqdorini atayin kamaytirib ko'rsatish natijasida zaxira ajratmalari miqdorini noreal bo'lib qolish hollariga yo'l qo'yilgan. Bunday sharoitda joriy yilning sof foydasi miqdori asossiz ravishda yuqori qilib ko'rsatiladi. Chunki tijorat banklarining kreditlardan yo'qotishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yo'naltiriladigan mablag' ularning xarajati hisobidan amalga oshiriladi. Tijorat banklari xarajatlarini bu yo'l bilan kamaytirilishi ma'lum davrda ijobiy natija berishi mumkin, lekin bankning kelgusidagi faoliyatini iqtisodiy

inqirozga uchrashiga zamin yaratib boradi. Albatta, buning oqibatida salbiy holatlar vujudga kelishi mumkin.

Buning ustiga, zaxira ajratmalari riskka tortilgan aktivlar miqdorining 1,25 foiziga to'g'ri keladigan qismi kapital tarkibiga kiritilishi lozim. Demak, bu summani kapital tarkibida aks etadigan qismi ham noreal miqdorga ega bo'ladi.

- Bank aktsiyadorlarining bank boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish tadbirlarini ishlab chiqish va hukumat dasturida ko'zda tutilgan tijorat banklarini davlat tasarrufidan chiqarish jarayonini nihoyasiga etkazish lozim.

Buning uchun, avvalo, yirik tijorat banklarning oddiy aktsiyalarini xususiy sektorga mansub korxonalariga sotish hajmini oshirish yo'li bilan ushbu banklarning ustav kapitalidagi davlatning ulushini pasaytirish lozim. Bunda bank Boshqaruvida xususiy aktsiyadorlarning ishtirokini faollashtirish imkoni yuzaga keladi.

Tijorat banklari faoliyatini boshqarishda aktsiyadorlarning rolini oshirilishi bank kapitalidan va bankning resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bizning fikrimizcha, bank kreditlarini o'z vaqtida qaytmasligi uchun bank Kengashining javobgarligini oshirilgan muhim ijobiy siljish hisoblanadi. Ayni vaqtda, bank kapitalining etarlilikiga va sifat ko'rsatkichlariga rioya qilishda ham bank Kengashi a'zolarining javobgarligini oshirish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Buning natijasida bank kapitalini boshqarish sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va bankning balans hisobotlarida haqqoniy ma'lumotlarni aks ettirish ishiga sezilarli hissa qo'shish imkoniyati yuzaga keladi. Bank Kengashi bu vazifalarni hal qilish uchun etarli imkoniyatlarga ega. Ana shunday imkoniyatlardan biri tijorat banklari ichki audit xizmatining Bank Kengashi raisiga bo'ysundirishidir. Bank kapitali sifat ko'rsatkichlariga oid ma'lumotlarning haqqoniyliги uchun ichki audit xizmati boshlig'ining shaxsan javobgar ekanligini belgilab qo'yish ham maqsadga muvofiq.

Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish dasturida bank kapitalini boshqarishning har bir sifat ko'rsatkichi bajarilishi bank Boshqaruvining hisoboti orqali bank Kengashi oldida vaqti-vaqti bilan tinglanib turilishi lozim.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotida bank faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari aktsiyadorlarning doimiy diqqat e'tiborida bo'ladigan birlamchi masaladir. Bu samaradorlik ko'rsatkichlari aniq hisoblash metodikasiga ega bo'lib,

ularning belgilangan reja miqdorlari mavjud. Mazkur reja ko'rsatkichlarning haqiqatda bajarilishi aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishida muhokama qilinadi va bank rahbariyatining faoliyatini baholash uchun jiddiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, nokumulyativ aktsiyalar shaklidagi imtiyozli aktsiyalarni bank kapitali tarkibiga kiritish maqsadida qo'yilgan to'rt talabning ikkitasidan voz kechish lozim. Markaziy bank tomonidan nokumulyativ aktsiyalarga qo'yilgan to'rt majburiy talabning uchinchi, ya'ni, aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan dividendlar to'lanmasdan o'tkazib yuborilishi edi. Bizning fikrimizcha, nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarni bank aktsiyadorlari o'rtasida taqsimlash lozim va aktsiyalarning jozibadorligini oshirish maqsadida uchinchi majburiy talabdan voz kechish kerak. Ya'ni, sof foyda mavjud bo'lgan taqdirda aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan nokumulyativ imtiyozli aktsiyalar bo'yicha dividendlarni to'lanmasdan o'tkazib yuborilishi mumkin emas.

To'rtinchi talab bo'yicha esa nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarga o'tgan yillarda to'lanmay to'planib qolgan dividendlar qayta to'lab berilmaydi. Agar biz uchinchi talabni qonuniy asosda o'zgartiradigan bo'lsak u holda to'rtinchi majburiy talab o'z-o'zidan bekor bo'ladi.

Jahon bankining etakchi ekspertlari Kris Barltrop va Diana Mak Notonlarning fikriga ko'ra, nokumulyativ imtiyozli aktsiyalarining chiqarilishi bankning oddiy aktsiyalarini sotib olgan aktsiyadorlarga nisbatan e'tiborsizlikdir. Chunki nokumulyativ imtiyozli aktsiyalar aralash instrument sifatida o'z egalariga qat'iy belgilangan foizda daromad keltiradilar va bir vaqtning o'zida ularga bankning sof foydasida ishtirok etib dividendlar olish huquqini beradi. Bizning fikrimizcha, nokumulyativ imtiyozli aktsiyalar aktsiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi lozim. Bu esa, aktsiyadorlarning moddiy manfaatdorligini oshirishga xizmat qiladi, ularning bank boshqaruvidagi faolligini oshirishda kuchli rag'batni yuzaga keltiradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Qo'llanmada amalga oshirilgan tahlil natijalariga asoslangan holda, quyidagi asosiy xulosa va takliflarni chiqarishga muvaffaq bo'ldik.

1. Bank kapitalining iqtisodiy mohiyati xususida hamon yagona ilmiy yondoshuv mavjud emas. Olimlarning bank kapitali xususida bergan ta'riflarining qiyosiy tahliliga tayangan holda unga: **«Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo'lib bankning operatsion jarayonida kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkonini beruvchi o'ziga xos himoya vositasidir»**, -degan ta'rif berildi.

2. Tijorat banklarining kapitali ikki qismdan, ya'ni asosiy kapital va qo'shimcha kapitaldan iborat bo'lib, asosiy kapital barqarorligi jihatidan qo'shimcha kapitalga nisbatan ustun turuvchi moliyalashtirish manbaidir. Tahlil qilingan davr mobaynida, tijorat banklarining asosiy kapitali tarkibida ustav kapitalining haqiqatda to'langan qismi pasayish tendentsiyasiga ega ekanligi aniqlandi. Tijorat banklari ustav kapitali haqiqatda to'langan qismining asosiy kapital hajmidagi salmog'i pasayishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

3. Tijorat banklari jami kapitalining yuqori o'sish sur'atlari asosan maxsus zaxiralar hisobidan ta'minlanmoqda, maxsus zaxiraning asosiy ulushi esa devalvatsiya zaxirasi hissasiga to'g'ri keladi. Kapital tarkibida ushbu modda nobarqaror moliyaviy manba ekanligini hamda asosiy kapitalning etarliligi miqdorining sezilarli darajada yuqoriligini inobatga olib, devalvatsiya zaxirasini asosiy kapital tarkibidan qo'shimcha kapital tarkibiga kiritish lozim.

4. Hozirgi vaqtda dunyoning yuzdan ortiq mamlakatida, shu jumladan, O'zbekiston tijorat banklari kapitalining tarkibini shakllantirishda va uning etarlilik darajasini belgilashda xalqaro Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan andozalardan asos sifatida foydalanilmoqda. Bazelning ijobiy jihatlari bilan birgalikda, unga xos bo'lgan asosiy kamchilik ham bor, ya'ni, bank kreditlari bo'yicha risk toifalari mijoz iqtisodiyotning qaysi sektoriga va qaysi davlatga mansub ekanligiga qarab belgilangan edi. Respublikamiz tijorat banklarida Bazel

andozalarining faqatgina ijobiy jihatlarini qo'llash maqsadga muvofiq. Shuningdek uning riskka tortish tizimiga ayrim o'zgartirishlar kiritish zarur.

5. Tijorat banklari kapitalining tarkibi tahlil qilinganda ulardagi qo'shimcha kapital bazasi zaif ekanligi aniqlandi. Buning asosiy sabablari ularning qo'shimcha kapitali tarkibida konsolidatsiyalashgan sho''ba korxonalariga qilingan quyilmalar mavjud emasligi, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlaridan foydalanish tartibi ijobiy echimini topmaganligi va berilgan kreditlarning qaytarilmasligi natijasida yo'qotishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi miqdorining pastligidir. Demak, tijorat banklari qo'shimcha kapital bazasini mustahkamlashda mavjud imkoniyatlardan to'laroq foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Milliy iqtisodiyotda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining etarli darajada rivojlanmaganligi tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarini ushbu bozorda doimiy oldi-sotdi ob'ektiga aylanishiga to'sqinlik qilmoqda. Ularning kapitali tarkibida emission daromadlarning vujudga kelish imkoniyatini bermayapti, aksiyalarning bozor bahosini shakllanishiga iqtisodiy muhit yaratilmayapti. Shuningdek, bank aksiyadorlarini moddiy jihatdan manfaatdorligini oshirish va ularning bank boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirishga iqtisodiy ehtiyoj tug'dirmayapti. Ushbu holatlarni ijobiy hal etish maqsadida, tijorat banklarining oddiy va imtiyozli aksiyalarini ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida keng ko'lamda oldi-sotdi qilinishini ta'minlash lozim.

7. Tijorat banklari kapitalini boshqarishning asosiy usullari to'rtta bo'lib, ular bank ustav kapitalining barqaror darajasini ta'minlash, bank umumiy kapitalining etarliligini ta'minlash, bank asosiy kapitalining etarliligini ta'minlash va bank kapitalidan samarali foydalanishni ta'minlash hisoblanadi. Tijorat banklarining kapitalini samarali boshqarish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqish asosida ushbu usullarni to'liq ishlashini ta'minlash zarur.

8. Tijorat banklari jami kapitalining va asosiy kapitalining etarlilik darajasini boshqarish amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, kapitalning har ikkala etarlilik koeffitsientini haqiqatda bajarilishi barcha yirik tijorat banklarida belgilangan normativ miqdorga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Buning asosiy sababi sifatida banklarning riskka tortilgan aktivlari hajmining nisbatan

pastligi va asosiy kapital nobarqaror moliyaviy manbalar hisobidan o'sib borayotganidir. Ushbu masalaning echimi sifatida, banklarning sof foydasini asosiy kapital tarkibiga kiritish lozim, shuningdek, asosiy kapitalni moliyaviy barqaror manbalar hisobidan shakllantirishning mavjud boshqa imkoniyatlaridan ham to'liqroq foydalanish lozim.

9. Milliy iqtisodiyotda tijorat veksellari muomalasini mavjud bo'lmaganligi sababli, hozircha, trust va forfeiting kompaniyalari shaklidagi konsolidatsiyalashgan sho''ba korxonalarini ochishga zaruriyat yo'q. Lekin, milliy iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida tijorat banklarining lizing va faktoring xizmatlariga xo'jalik sub'ektlari tomonidan ehtiyoj yuqoriligini inobatga olib yirik tijorat banklari qoshida mustaqil balansga ega bo'lmagan lizing va faktoring kompaniyalarini tashkil etish ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

10. Yirik tijorat banklarining oddiy aksiyalarini xususiy sektorga mansub korxonalarga sotish hajmini oshirish yo'li bilan banklarning ustav kapitalidagi davlatning ulushini pasaytirish mumkin. Bunda bank Boshqaruvida aksiyadorlarning ishtirokini faollashtirish va ularning rolini oshirilishi bank resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bank Kengashi a'zolarining javobgarligini oshirish orqali bank kapitalini boshqarishning sifat ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash lozim.

Tijorat banklarining kapitalini moliyaviy barqaror manbalar hisobidan shakllantirish va ularni samarali joylashtirishga erishish banklarning moliyaviy holatini mustahkamlash, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish hamda milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga puxta zamin tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Qonunlari va Prezident asarlari:

1. O'zbekiston Respublikasining Er kodeksi.–T.:«O'qituvchi», 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: «Adolat», 1997.
3. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –T.: «O'zbekiston», 2003.
4. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –T.: «O'zbekiston», 2003.
5. «Valyutani tartibga solish to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –T.: «O'zbekiston», 1996.
6. «Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.–T.: 2003.
7. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.–T.: 2003.
8. Karimov I.A.«O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan». 3-tom. – T.: «O'zbekiston», 1995, -267 b.
9. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». 6-tom.–T.: «O'zbekiston», 1997, 326 b.
- 10.Karimov I.A.«Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz». 9-tom. –T.: «O'zbekiston», 2001. -440 b.
- 11.Karimov I.A. «Biz tanlagan yo'l –demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li». 11-tom. –T.: «O'zbekiston», 2003. –319 b.
- 12.Karimov I.A. «Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq». 12-tom. –T.: «O'zbekiston», 2004. – 340 b.

KITOB VA TURKUM NASHRLARI

1. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. –T.: «TMI», 2000. –311 b.
2. Abdullaeva Sh.Z. Pul kredit va banklar. –T.: «Moliya», 2000. –312 b.
3. Abdullaeva Sh.Z. Bank risklari va kreditlash.–T.:«TMI», 2002, -304b.
- 4.Achilov M.F., Aliev M.G., Kotov V.A., Tashaev Sh.J., Xamidulin M.B. Rinok kapitala Uzbekistana: Vchera, segodnya i zavtra.–T.: «Moliya», 2002,-268b.
- 5.Belix L.P. Ustoychivost kommercheskix bankov. Kak bankom izbejat bankrotstva. –M.: Banki i birji. «YuNITI», 1996.
- 6.Vasilishen E.N. Regulirovanie deyatel'nosti kommercheskix bankov. – M.: «FiS», 1995.
- 7.Gazibekov D.G., Sobirov O.Sh. Lizing i ego razvitie v Uzbekistane. – T.: «Moliya», 2001.
- 8.Gryaznova A.G. Finansovo-kreditniy entsiklopedicheskiy slovar. –M.: «F i S», 2002.
- 9.Dolan Edvin Dj., Kolin D.Kampbell. Dengi, bankovskoe delo i denezhno kreditnaya politika. Per. s angl. –M.:, 1996.Devid Polfreman, Filip Ford. Osnovi bankovskogo dela. –M.: «INFRA-M», 1996.
- 10.Kadirov A.K., Karaliev T.M., Omonov A.A. Xozyaystvenniy raschet v sisteme kommercheskix bankov. –T.: «Uzbittsentr», 1991. –64 b.
- 11.Kiselev V.V. Upravlenie bankovskim kapitalom: teoriya i praktika. Rossiyskaya akademiya predprinimatel'stva. –M.: «Ekonomika», 1997. –256 b.
- 12.Lavrushin O.I. i dr. Bankovskoe delo. – M.: «FiS», 2001.
- 13.Malikov T.S.Moliyaviy qaror qabul qilish asoslari.–T.:«Sharq», 1996.
- 14.Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. – T.: 1999.
- 15.Markova O.M.i dr. Kommercheskie banki i ix operatsii. – M.: «YuNITI», 1995. – 288 b.
- 16.Mamonova I.D. Ekonomicheskiy analiz deyatel'nosti banka /Uchebnoe posobie. – M.: «Infra – M», 1996.
- 17.Mullajonov F.M. Bankovskaya sistema Uzbekistana v godi nezavisimosti. – T.: «O'zbekiston», 1996, -205 b.

18. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. –T.: «O'zbekiston», 2001, -304 b.
19. Nurmuradov M.B., Qoraliev T.M., Xolmaxmadov Z.A. Xo'jalik yuritishning hozirgi sharoitida kredit mexanizmi va banklar. –T.: «TXXI», 1991.
20. Pod red. prof O.I. Lavrushina. Bankovskoe delo – M.: «FiS», 2001.
21. Rid E., Kotter R., Gill E., Smit R. Kommercheskie banki. Perevod s angliyskogo A.A.Kandaurova, T.D.Masyukovoy, M.Z.Shtrengarts. Pod redaktsiey V.M.Usoskina 2-e izdanie. –M.: «Kosmopolis» 1991. –480 b.
22. Toshmurodov Sh.M. Formirovanie i ispolzovanie pribili kommercheskogo banka. SPb: SPbUEF, 1993, -126 b.
23. Usoskin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank: Upravlenie i operatsii. – M.: «Vazar- Ferro», 1994. .
24. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: Mehnat, 1995. –527 b.
25. Yan Ville Van der Fossen. Nachalniy kapital bankov. Materiali seminara po bankovskomu nadzoru. Vena, 26 fevralya – 8 marta 1996. –11 b.
26. Bazelskiy komitet po bankovskomu nadzoru. Osnovnie printsipi effektivnogo bankovskogo nadzora. Bazel, 1997.
27. Diana Mak Noton. Bankovskie uchrejdeniya v razvivayushchixsya stranax. I, II tom. Per. s angl. Institut ekonomicheskogo razvitiya Mirovogo banka, russkaya versiya. -Vashington. 1994.
28. Diana Mak Noton i Kris Dj. Barltrop. Bankovskie uchrejdeniya v razvivayushchixsya rinkax. Materiali IER. Tom II. Vsemirniy bank. Vashington, D.S. 1994.
29. Jan Matuk. Finansovie sistemi Frantsii i drugix stran. I, II

JURNALDAGI MAQOLALARGA HAVOLALAR

1. Vlasov S.N., Rojkov Yu.V. Upravlenie likvidnostyu kommercheskogo banka. //Bankovskoe delo. №9, 2001. –S.24-26.
2. Gerashchenko V.V. Aktualnie problemi bankovskoy sistemi v 1999 godu. //Dengi i kredit. №1, 1999. –S.3-10.
3. Gulyamov R.A. Prirosta razvitiya bankov Uzbekistana. //Rinok, dengi i kredit. №12, 2001. –S. 3-6.
4. Gureva M.I. Problemi kreditno-denejnoj sistemi SShA v 80-e godi. //Dengi i kredit. №10, 1991. – S. 62-75.
5. Doronin I.G. Mejdunarodniy finansoviy krizis: prichin i posledstviya. //Dengi i kredit. №2, 1999. – S. 34-40.
6. Doljenkova L.D. Vliyanie ekonomiki SShA na polojenie v mirovom xozyaystve. //Bankovskoe delo. №6, 2001. – S. 2-7.
7. Egorov S.E. O sostoyanii bankovskoy sistemi i putyax eyo ukrepleniya. //Dengi i kredit. №4, 1999. – S. 6-12.
8. Krasavina L.I. Shvetsarskiy stil bankovskoy sistemi: Mirovoy opit i Rossiya. //Dengi i kredit. №3, 2003. –S.42-47.
9. Maslennikov Yu. S. Monitoring finansovoy deyatel'nosti banka na osnoviy modelirovaniya ego balansa i identifikatsii traditsionnix bankovskix riskov. //Dengi i kredit. №2, 1998.-S.10-14.
10. Matovnikov M.Yu. Novaya sistema regulirovaniya dostatochnosti kapitala Bazelskogo komiteta – «za» i «protiv». //Dengi i kredit, №2-2001 – S. 30.
11. Mixaylov A.G. Kommerchiskie banki: metodi otsenki nadyojnosti. //Bankovskoe delo. №1, 1998.-S.28-30.
12. Moskvina V.A. Sistema riskov pri investitsionnom kreditovanii predpriyatiy. //Bankovskoe delo. №2, 1998.-S.5-10.
13. Muratov A. Auktsionni kreditnix resursov. //Bankovskoe vedomosti. №5, 1995. S. 25.
14. Murodov N. Mejdunarodnie standarti bankovskogo nadzora, rekomendovannie Bazelskim komitetom. //Bozor, pul va kredit. №1, 2003. –S.7-11.

15. Navruzov A. Puti povishcheniya effektivnosti ispolzovanie resursnoy bazi kommercheskix bankov. //Bozor, pul va kredit. №9-10, 2002. –S. 10-12.
16. Norqobilov S., Jo'raev O'. Bank tizimi islohotlari yo'lida. //Bozor, pul va kredit. №9, 1999, 19-22 betlar.
17. Nurmurodov B. Nadzor i regulirovanie deyatel'nosti kommercheskix bankov: Mirovoy opit. //Rinok, dengi i kredit. №1, 2003. –S. 12-15.
18. Pomorina M.A. Vnutrenniy analiz finansovogo sostoyaniya banka. //Bankovskoe delo. №6, 1999. – S. 34-40.
19. Pomorina M.A. Metodi otsenki i upravleniya protsentnim riskom. //Bankovskoe delo №1, 1999. – S. 12-18.
20. Portnoy M. Ekonomika SShA segodnya. //Ekonomist. №3, 1992. – S. 118-126.
21. Simanovskiy A.Yu. Dostatochnost bankovskogo kapitala: novie podxodi i perspektivi ix realizatsii.//Dengi i kredit.№6, 2000.–S.20-23.

MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT SOHASIGA TEGISHLI FARMONLAR, QARORLAR, ME'YORIY HUJJATLAR VA BANK HISOBOTLARIGA HAVOLALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni, 1997 yil 27 aprel. – T.: «O'zbekiston», 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aktsiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni, 1998 yil 2 oktyabr. –T.: «O'zbekiston», 2003.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni, 2000 yil 21 mart. –T.: «O'zbekiston», 2003.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, №24, 1999 yil 15 yanvar. –T.: «O'zbekiston», 2003.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bank tizimini isloh qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, №104, 2000 yil 24 mart. –T.: «O'zbekiston», 2003.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Pul mablag'larini bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, №280, 2002 yil 5 avgust. –T.: «O'zbekiston», 2003.
7. Tijorat banklari likvidligini boshqarishga bo'lgan talablar to'g'risida Nizom, № 559, 1998 yil 2 dekabr. –T.: «O'zbekiston», 2003.
8. Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom, №571, 1998 yil 19 dekabr. – T.: «O'zbekiston», 2003.
9. Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom, №905, 2000 yil 2 mart. –T.: «O'zbekiston», 2003.
10. Tijorat banklari kapitalining etarliligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom, № 420, 2000 yil 26 aprel. –T.: «O'zbekiston», 2003.

11.Ko'p valyutali buxgalteriya hisobi tizimida O'zbekiston Respublikasi banklari balanslarining aktiv va passiv qismlaridagi valyuta hisobvaraqlari qoldiqlarini qayta baholash qoidalari. №363, 1997 yil 24 oktyabr. –T.: «O'zbekiston», 2003.

12.O'zbekiston banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida Yo'riqnoma. № 485, 2001 yil 8 fevral. –T.: «O'zbekiston», 2003.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari kapitali etarliligiga nisbatan belgilangan talablarning xalqaro Bazel standartlaridan farq qiluvchi asosiy jihatlari*

№	Ko'rsatkichlar	Bank kapitali etarliligining minimal darajasi
1	Tijorat banklari jami kapitalining etarlilik darajasi: - Xalqaro Bazel standartlarining talabi - O'zbekiston Markaziy bankining talabi	0,08 0,1
2	Tijorat banklari asosiy kapitalining etarlilik darajasi: - xalqaro Bazel standartlarining talabi - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talabi	0,04 0,05

* *Manba:* Respublika Markaziy banki va xalqaro Bazel qo'mitasining me'yoriy yo'riqnomalari asosida tayyorlandi.

**Bazel qo'mitasi andozalariga ko'ra bank aktivlarining
riskka tortilish darajasi***

0%	(a)	Kassa (bankda mavjud bo'lgan oltin quymalarni ham o'z ichiga oladi)
	(b)	Hukumatga va Markaziy bankka nisbatan, milliy valyutada aks etgan va shu valyutada qoplanadigan talablar
	(c)	IHTT ga kiruvchi mamlakatlar Markaziy Hukumati yoki Markaziy banklariga bo'lgan har-xil moliyaviy talablar
	(d)	IHTT ga kiruvchi mamlakatlarning naqd valyutalari yoki qimmatli qog'ozlari bilan qoplanadigan yoki hukumat tomonidan kafolatlangan moliyaviy talablar
0, 10, 20 yoki 50 % (nazorat organlarining xohishiga qarab)	(a)	Milliy davlat muassasalariga nisbatan qo'yilgan talablar, markaziy hukumat va ular tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar yoki kafolatlangan kreditlar bundan mustasno
20%	(a)	Ko'p tomonlama rivojlanish banklariga (JTTB, ARB, OTB, AFRB, ETTB) va shu banklar tomonidan emissiya qilingan yoki kafolatlangan qimmatli qog'ozlarga nisbatan qo'yilgan talablar
	(b)	IHTT ga kiruvchi mamlakatlarning banklariga va shu banklar tomonidan kafolatlangan kreditlarga qo'yilgan talablar
	(s)	IHTT ga kiruvchi tashkilotlarning qimmatli qog'ozlariga nisbatan bo'lgan talablar, bu talablarga nisbatan tegishli nazorat va me'yoriy jarayonlar qo'llaniladi, jumladan, tortilgan riskni hisobga olgan holda kapital bo'yicha talablar va qimmatli qog'ozlar bilan shug'ullanadigan shunday tashkilotlarning kafolatlariga nisbatan talablar
	(d)	IHTT dan tashqaridagi mamlakatlarning banklariga nisbatan qoldiq muddati bir yilgacha bo'lgan talablar va IHTT ga kirmaydigan mamlakatlarning banklari tomonidan kafolatlangan qarz mablag'lariga nisbatan bir yilgacha muddatdagi talablar
	(e)	IHTT ga kiruvchi mamlakatlarning nomilliy davlat muassasalariga bo'lgan talablar, markaziy hukumat va ushbu muassasalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan yoki kafolatlangan qarz mablag'lari bundan mustasno

	(f)	Yig'im jarayonidagi kassa
50%	(a)	Turar joy mulki ipotekasi bilan to'liq ta'minlangan qarz mablag'lari, ushbu ko'chmas mulk qarzdorga tegishli yoki kelgusida egallanadi yoki bo'lmasa ijaraga olinadi
100%	(a)	Xususiy sektorga bo'lgan talablar
	(b)	Faoliyat muddati bir yildan yuqori bo'lgan, IHTT ga kirmaydigan banklarga bo'lgan talablar
	(c)	IHTT ga kirmaydigan davlatlar hukumatiga bo'lgan talablar
	(d)	Xususiy sektorda faoliyat yurituvchi tijorat kompaniyalarga qo'yilgan talablar
	(e)	Binolar, zavodlar va uskunalar hamda boshqa doimiy aktivlar
	(f)	Ko'chmas mulk va boshqa ko'rinishdagi investitsiyalar (boshqa kompaniyalarning faoliyatida konsolidatsiyalashmagan ko'rinishda qilingan investitsiyalar ham kiradi)
	(g)	Boshqa banklar tomonidan chiqarilgan kapital instrumentlari (kapitaldan chegirib tashlanadigan qismi bundan mustasno)
	(h)	Boshqa barcha aktivlar

*Manba: Bazelskiy komitet po bankovskomu nadzoru Mejdunarodnaya Konvergentsiya. Otsenki kapitala i standartu. 1998. S.25/37.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining riska tortilish darajasi *

0%	(a)	Bankda va uning filiallarida naqd pul ko'rinishida saqlanayotgan milliy va chet el valyutasi (jumladan, yo'ldagi naqd pullar va Markaziy bank hamda tijorat bank zaxira fondlarida saqlanayotgan oltin quymalar.)
	(b)	Markaziy bank va uning hududiy boshqarmalaridagi vakillik va zaxira hisob varaqlarida saqlanayotgan mablag'lar.
	(v)	Hukumat va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga to'g'ridan-to'g'ri talablar va bu emitentlar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar.
	(g)	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) kiruvchi mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek, bu mamlakatlar hukumatlari va Markaziy banklariga qo'yiladigan boshqa talablar.
	(d)	Aktivlar yoki ularning O'zbekiston Respublikasi va IHTT ga kiruvchi mamlakatlar milliy valyutalariga denominatsiya qilinib, naqd pul bilan ta'minlangan hamda bankda alohida cheklab qo'yilgan depozit hisobraqamda saqlanadigan qismi.
20 %	(a)	IHTT davlatlarida ro'yxatga olingan depozitar institutlariga nisbatan talablar, shu jumladan, qarzlar va pul bozori vositalari.
	(b)	IHTT davlatlarida ro'yxatga olingan depozitar institutlari kreditlari bilan ta'minlangan boshqa barcha aktivlar. IHTT davlatlari depozitar institutlarining kapitali bo'lgan qimmatli qog'ozlar yuqori tavakkalchilik darajasiga (100 foiz) ega aktivlar.
	(v)	Bankning IHTT davlatlari mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari, shuningdek, ular tomonidan kafolatlangan bank aktivlari. Bu talablar va kafolatlar bo'yicha to'lovlar alohida loyihalar bo'yicha tushumlardan emas, balki yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlar byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.
	(g)	Bankning Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlariga nisbatan talablari, shuningdek, bu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan bank aktivlari.
	(d)	Joriy bozor qiymatida baholangan va Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan aktivlar va ularning qismlari.

	(e)	Bankning IHTT ga a'zo bo'lmagan mamlakatlarning milliy valyutalariga denominatsiya qilingan va milliy valyutadagi majburiyatlari bilan qoplangan, IHTT ga a'zo bo'lmagan davlatlar Markaziy Hukumatlari va markaziy banklariga nisbatan talablari. Milliy valyutada denominatsiya qilinmagan va milliy valyutada moliyalashtirish summasidan oshib ketgan aktivlar qismi tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan aktivlar qatoriga kiritiladi.
	(j)	Joriy bozor qiymatida baholangan va O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki IHTT ga kiruvchi davlatlar Markaziy Hukumatlari tomonidan emissiya qilingan yoki kafolatlangan qimmatli qog'ozlar ko'rinishidagi garov bilan ta'minlangan yoki kafolatlangan aktivlar, ularning qismlari va balansdan tashqari majburiyatlar. Qimmatli qog'ozlar bank tasarrufida bo'lishi va belgilangan tartibga muvofiq unga berilishi lozim. Kafolatlar to'g'ridan-to'g'ri va hech qanday shartlarsiz, ya'ni ularni qo'llashni cheklovchi biron-bir qo'shimcha shartlarni o'zida qamrab olmagan bo'lishi kerak.
	(i)	O'tkazish jarayonidagi pul hujjatlari (lekin yo'ldagi naqd pullar hisobga kirmaydi).
50%	(a)	Jismoniy shaxslarga, bir oilaga uy-joy (xonadon) sotib olish yoki uy qurish uchun berilgan dastlabki garov predmeti bilan ta'minlangan kreditlar. Bunda ssuda miqdori garov qiymatiga nisbati 60 foizdan oshmasligi kerak. 60 va undan yuqori kunga muddati o'tgan, foizlar hisoblash to'xtatilgan yoki restrukturizatsiyalangan kreditlar tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan aktivlar toifasiga kiradi. Bir oila uchun uy-joy qurish maqsadida beriladigan kreditlar shu uy-joyda yashamoqchi bo'lgan xususiy shaxslargagina berilishi kerak. Bank dastlabki garov huquqiga ega bo'lmasa, bunday kreditlar tavakkalchiligi yuqori (100 foiz) bo'lgan aktivlar hisoblanadi.
	(b)	Bankning IHTT ga kiruvchi davlatlar mahalliy hokimiyat organlariga nisbatan talablari yoki bu talablar va kafolatlar bo'yicha to'lovlar mazkur majburiyatlar bo'yicha moliyalashtiriladigan muayyan loyiha tushumlariga bog'liq bo'lsa, ushbu tashkilotlar tomonidan kafolatlangan aktivlar. Yuqorida qayd etilgan tashkilotlar tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar.
100 %	(a)	Bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, jumladan, tadbirkorlik tuzilmalari, qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish korxonalariga berilgan kreditlar, shuningdek, ipoteka va iste'mol kreditlari (0 va 50 % tavakkalchilik darajasiga kirgan kreditlar bundan mustasno).
	(b)	Bankning asosiy vositalari, inshootlari, jihozlari va shaxsiy ko'chmas mulki.
	(v)	Boshqa barcha aktivlar.

*Manba: Markaziy bankning 2000 yil 26 apreldagi 420 – sonli «Tijorat banklari kapitalining etarligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi Nizomi asosida tuzildi.